Tasviriy san'at

7

O‘QITUVCHILAR UCHUN
METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 75(072)
KBK 85.14
V 30

Tuzuvchilar:
Noila Vaxabova, Zulayxo Xashimova, Madina Qudratova

Taqrizchilar:

B. Baymetov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti san’atshunoslik fakulteti tasviriy san’at va dizayn kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi, O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi.

M. Axmedov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tasviriy san’at kafedrasi dotsenti.

B. Yunusova – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi tasviriy san’at va chizmachilik fanlari metodisti.

S. Mansurova – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 274-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fanlari o‘qituvchisi.

Sh. Tursunova – Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi 15-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fanlari o‘qituvchisi.

Tasviriy san’at 7 [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / Noila Vahabova, Zulayxo Xashimova, Madina Qudratova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 140 b.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8379-3-5

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi.....4
Tasviriy san’at fanini o‘qitishda fanga oid va tayanch
kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar 4
Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilariga tasviriy san’at fanidan qo‘yiladigan talablar 5
7-sinflar uchun tasviriy san’at fanining taqvim rejasi 5
Tasviriy san’at fanining o‘qitish metodologiyasi 6
Rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or metodlari.....8
STEM / STEAM / STPEAM ta’limi – davr taqozosi.....10
Tasviriy san’at fanini o‘qitishda STEAM 12
“CLIL” metodikasi 14
Dars maqsadlariga qo‘yiladigan talablar.....14
“CSMART” metodi 15
“Moodboard” metodi 16
Tasviriy san’at fanini o‘qitishda kreativ yondashuv 17
Amaliy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishida
fanlararo hamkorlik tashkil etish 17
Tasviriy san’at darslarida qo‘llanadigan interfaol metodlar 18
1-mavzu.....25
2-mavzu.....28
3-mavzu.....32
4-mavzu.....35
5-mavzu.....40
1-nazorat ishi 43
6-mavzu.....46
7-mavzu.....51
8-mavzu.....56
2-nazorat ishi 59
9-mavzu.....62
10-mavzu.....66
11-mavzu 72
12-mavzu.....76
13-mavzu.....78
14-mavzu.....82
15-mavzu.....86
16-mavzu.....91
17-mavzu.....95
18-mavzu.....101
19-mavzu.....108
20-mavzu.....112
4-nazorat ishi 116
21-mavzu.....119
22-mavzu.....123
Tasviriy san’at darslarida muzeylar haqida ma’lumot berish. 129
Dunyo muzeylari.....129
Tasviriy san’at atamalarining izohli lug‘ati.....136
Tasviriy san’at fanining baholash mezoni uchun baholash vositalari 138
7-sinf. Baholash mezoni jadvali.....138
7-sinf. Tasviriy san’at fanidan mavzular bo‘yicha baholash mezonlari 139

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi

Mamlakatimizda o‘qitish va tarbiyalashda milliy yuksalish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturini bosqichma-bosqich joriy etish, o‘quvchining shaxsiga, unda ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil rivojlanishga o‘rgatish, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishni nazarda tutadi.

Umumta’lim maktablarida tasviriy san’at darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan hisoblanib, o‘quvchilarni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar ilmiy bilim asoslarini egallaydilar, borliqni o‘zlashtiradilar, bu esa ularni g‘oyaviy, aqliy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Tasviriy san’at darslari o‘z xarakteriga ko‘ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg‘u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o‘stirishda katta rol o‘ynaydi. Dekorativ kompozitsiya darslarida o‘quvchilar naqshlar, amaliy san’at buyumlaridagi go‘zallikni his qiladilar va o‘zlari ham xuddi shunday kompozitsiyalar tuzishga harakat qiladilar. Tasviriy san’at fani o‘quv predmetiga o‘quvchilarning estetik tarbiyasi ahamiyatli bo‘libgina qolmay, balki axloqiy tarbiyada ham salmoqli o‘rin egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san’at darslari o‘quvchilarda milliy g‘urur va milliy tafakkurni shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyada, do‘stlik va yordam g‘oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega.

Maktabda o‘qitiladigan tasviriy san’at darslarining har bir turi (narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish) o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘stirishga, shuningdek, shaxsni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiladi.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar

Fanga oid kompetensiyalar:

1. Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi.
2. O‘z-o‘zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi.
3. Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalarning shakllantirilishi belgilab berilgan. Amaliy fanlar bloki orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish o‘zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko‘nikma, malakalarini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiya**larni shakllantirishda, davlat tili, xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlashni, amaliy mashg‘ulotlarni o‘zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, nutqni yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishni, amaliy fanlarga oid atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishni o‘rgatish zarur.

Fanlarni o‘qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasi**ni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish kerak. Bunda o‘quvchilarni fanga oid ax-

borotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar)lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda o‘quvchilarni umuminsoniy fazilatlarga ega bo‘lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunish, ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirish zarur.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilariga tasviriy san’at fanidan qo‘yiladigan talablar

Kodi	7-sinf
1	**Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**
1.1	Tasviriy san’atdagi ramziy belgi va geraldika (gerb, emblema, tamg‘a va b.) namunalarini solishtiradi va tahlil qiladi.
1.2	O‘zbekistonning amaliy bezak san’ati namunalarini tahlil qiladi.
1.3	Dizayn san’ati turlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi, badiiy-ijodiy tahlil qiladi.
1.4	O‘zbekiston kitob grafikasi san’atiga oid asarlarni tahlil qiladi, mustaqil va ijodiy fikrlaydi.
1.5	Kompyuter grafikasi vositasida ishlangan rasmlarni tahlil qiladi, mustaqil va ijodiy fikrlaydi.
1.6	O‘zbekistonning me’moriy yodgorliklari haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.
1.7	Tasviriy san’atning oqim va yo‘nalishlariga oid asarlardan zavqlanadi va badiiy idrok etadi.
2	**O‘z-o‘zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**
2.1	Tasviriy san’atning oqim va yo‘nalishlari, amaliy bezak, dizayn, me’morlik mavzulari asosida amaliy topshiriq bajarishda ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanadi va sanitariya-gigiyena, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi.
3	**Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**
3.1	Tasviriy san’atda ramziy belgi va geraldikani mustaqil ijodkorona ifodalaydi, turli emblemalar ishlay oladi.
3.2	O‘zbekiston naqsh ramzlari va amaliy bezak elementlari asosida mustaqil kompozitsiya tuzadi.
3.3	Dizayn san’ati turlari asosida eskizlarni chiza oladi.
3.4	Zamonaviy kitob grafikasida kompyuter texnologiyalaridan foydalana oladi va bunda Corel DRAW vektorli grafik dasturini qo‘llaydi.
3.5	Kollaj texnikasida ishlay oladi.
3.6	O‘zbekiston me’moriy yodgorliklarining tasvirini ishlaydi.
3.7	Amaliy bezak san’ati namunalariga qarab naqshlardan nusxa ko‘chiradi.
3.8	“Orzumdagi shahar” mavzusiga me’moriy kompozitsiya ishlaydi.

TASVIRIY SAN’AT (7-sinf)

Darslar tartibi	Mavzu nomi	Soat	Taqvimiy muddat
I chorak			
1-dars	Tasviriy san’atda ramziy belgi va geraldika	1	
2-dars	San’at festivali, sport musobaqasi logotipini ishlash	1	
3-dars	San’at festivali, sport musobaqasi logotipini ishlash	1	

4-dars	Tasviriy san’atda oqim va yo‘nalishlar. Impressionizm va postimpressionizm		
5-dars	Puantilizm uslubida manzara ishlash	1	
6-dars	Puantilizm uslubida natyurmort ishlash	1	
7-dars	**1-nazorat ishi.** Puantilizm uslubida manzara (yoki natyurmort) ishlash	1	
8-dars	Kubizm uslubida natyurmort ishlash	1	
9-dars	Kubizm uslubida natyurmort ishlash	1	
II chorak			
10-dars	Grafik dasturlar yordamida kitob muqovasi dizaynini ishlash	1	
11-dars	Kitob illyustratsiyasi	1	
12-dars	Kitob illyustratsiyasi	1	
13-dars	**2-nazorat ishi.** Adabiyot darslarida o‘rganilgan mavzulardan biriga illyustratsiya ishlash	1	
14-dars	Shriftli-grafik kompozitsiya	1	
15-dars	Kollaj texnikasida tasvir ishlash	1	
16-dars	Kollaj texnikasida tasvir ishlash	1	
III chorak			
17-dars	Haykaltaroshlikda portret	1	
18-dars	Haykaltaroshlik materiallaridan dekorativ buyumlar yasash	1	
19-dars	Haykaltaroshlik materiallaridan dekorativ buyumlar yasash	1	
20-dars	Landshaft dizayni uchun funksional-dekorativ haykalcha yasash	1	
21-dars	Landshaft dizayni uchun funksional-dekorativ haykalcha yasash	1	
22-dars	Haykaltaroshlikda dekorativ panno yasash. Relyef	1	
23-dars	**3-nazorat ishi.** Plastilin yoki loydan ixtiyoriy mavzuda relyefsimon kompozitsiya yasash	1	
24-dars	O‘zbekistonning amaliy bezak san’atida ramziy shakllar	1	
25-dars	Islimiy naqsh ishlash	1	
26-dars	Islimiy naqsh ishlash	1	
IV chorak			
27-dars	Dizayn san’ati	1	
28-dars	Arxitekturada kompozitsiya. Interyer dizayni	1	
29-dars	Arxitekturada kompozitsiya. Eksteryer dizayni	1	
30-dars	Arxitektura muhitida graffiti kompozitsiyasi	1	
31-dars	**4-nazorat ishi.** “Sport musobaqalari” mavzusida devoriy tasvir – graffiti uchun kompozitsiya ishlash	1	
32-dars	“Orzumdagi shahar” mavzusida me’moriy kompozitsiya ishlash	1	
33-dars	“Orzumdagi shahar” mavzusida me’moriy kompozitsiya ishlash	1	
34-dars	Fotografiyada kompozitsiya	1	
	UMUMIY	**34**	

Tasviriy san’at fanining o‘qitish metodologiyasi

O‘zini kamol toptira olmagan inson
o‘zgalar kamolotini ta’minlay olmaydi.
Konfutsiy

Shaxsdan faol harakat qilish, mustaqil qaror qabul qilish, hayotning o‘zgarayotgan sharoitlariga moslashish talab qilinayotgan bu davrda ta’lim tizimida o‘qitish jarayonini kafolatlaydigan metodologiya zamonga mos bo‘lishi lozim.

Metodologiya so‘zi lug‘aviy tahlil qilinganda, yunoncha bo‘lib, “metodlar nazariyasi”, “mavzuni tadqiq qilish metodlari”, “metodlar va strategiyalar”ni o‘rganadi, tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etadi.

Pedagogika metodologiyasi bu – pedagogik bilimlar va uni ishlab chiqarish jarayoni haqidagi ta'limot.

Metodologiyaning maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta ta'lim Milliy o'quv dasturining metodologiyasini yaratishdan asosiy maqsad – ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonida milliy metodologiya bo'yicha, avvalo, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, rejalarini belgilash, metodik tavsiya berish hamda o'quvchilarning olgan bilimlarini samarali qo'llashiga erishish, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan, jahon hamjamiyati talablariga javob bera oladigan, yurt istiqboliga o'z hissasini qo'sha oladigan, kompetent, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat.

Asosiy vazifalari:

– fanlarni o'qitishning milliy metodologiyasi asosida samarali kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiya va metodlarni tanlash, saralash va qo'llash;

– real dunyoda iqtisodiy tushunchalar, nazariyalar va tamoyillarni tahlil qilish va ongli qo'llashga erishish; mustaqil tanqidiy, ijodiy fikrlash, real dunyoda paydo bo'layotgan qiyinchiliklarni ko'ra bilish va ularni bartaraf etishning optimal yo'llarini izlab topish;

– turli ijtimoiy guruhlarda madaniyatli bo'lish, hamkorlikda ishlashni bilish yoki turli vaziyatlarda ongli munosabatda bo'lishga qaratilgan motivatsion-innovatsion metodlarni yaratish, axborotlar bilan savodli ishlash;

– o'zining "men"ligi, intellektual salohiyati, ma'naviyati va dunyoqarashi ustida mustaqil ishlash hamda XXI asr ko'nikmalari (madaniyatli muloqot, insoniy fazilat, kitobxonlik, savodxonlik, tanqidiy-kreativ fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, muammolarga yechim topish kabi)ni o'quvchilarda shakllantirish.

Metodologiya insonlarning yashashi, hayotda turmush kechirishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

Metodologiyaning tarixiy taraqqiyotini kuzatadigan bo'lsak, bunda Suqrot, Aristotellarning o'ziga xos o'rni bor. Forobiy sharqona fikrlash uslubi nuqtayi nazaridan Aristotel asarlarini sharhlaydi. Bunday sharhlar Aristotel merosini o'rganishda metodologiya bo'lib kelgan. Ibn Sino o'zining xotiralarida Aristotelning "Metafizika" asarini 40 marotaba o'qib chiqsa ham hech narsa tushuna olmaganini, bu asarning mazmuniga Forobiyning sharhlarini o'qigandan so'nggina tushunib yetganini yozib qoldirgan. Metodologiya bo'yicha F. Bekon, R. Dekart, J. Lokk, G. Galiley va boshqa yevropalik olimlar maxsus kitoblar yozishgan. Shuningdek, soha rivojiga Kant, Fixte, Shelling, Gegel kabi buyuk shaxslar katta hissa qo'shishgan. Gegel dialektik metodologiyaning asoslarini ishlab chiqqan.

Metodologiyaning texnologik darajasini tadqiqot texnikasi deyish mumkin, ya'ni qayta ishlaydigan omborlar to'plamiga kirgandan so'ng metodologik bilim aniq me'yor hisoblanadi. Umuman olganda, metodologiya amaliy faoliyatni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi.

Pedagogik metodologiya o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z-o'zini boshqarishga, muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishga yo'naltiradi, xatti-harakatning natijalarini tahlil qilishga, voqelikka qanday yondashishga o'rgatadi, o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, **motivatsiya**ning yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi, pedagogik bilimlarning tarkibi va funksiyalari, pedagogik masalalari, metodologik ahamiyatga ega bo'lgan boshlang'ich, asosiy, fundamental, falsafiy, umumiy-ilmiy va pedagogik qoidalarni (faraz, tushuncha, nazariyalar) tushuntiradi.

Pedagogik metodologiya bu pedagogik nazariyaning boshlang'ich nuqtalari, pedagogik hodisalarni ko'rib chiqishda yondashuv tamoyillari va ularni tatbiq qilish usullari, shuningdek, olingan bilimlarni o'qitish, bilimlar tizimidir.

Texnologiya va metodlar metodologiyaning asosidir. Texnologiya va metodlarning qo‘llanishida afzalligi, qulayligi, manfaatliligi, ko‘ra bilishning osonligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, shakl va mohiyatiga ko‘ra turkumlangan metodlarni tanlashda o‘qitish maqsadi bilan birga o‘qituvchilarning kuchli bilimi va salohiyati, dunyoqarashi, insonparvar, vatanparvar, tashabbuskor, ijodkor, madaniyatli ekani va savodli nutq, kasbiy mahorati, o‘z kasbini sevishi – o‘ziga ishonch yotadi.

Metod esa belgilangan maqsadga erishishdagi o‘zaro faoliyatni tashkil etish yo‘lidir. Nemis didakti L. Klinberg ta’lim jarayonida metodlarni hamkorlik shakllari bilan uyg‘unlashtirishga alohida urg‘u beradi: “Monologik”, “Hamkorlik”, “Tadqiqotchilik”, “Dialogik”, “Ma’ruza”, “Suhbat”, “Hikoya”, “Intervyu” kabi.


Ma’lumki, bu metodlar fanlar yo‘nalishida qo‘llanishida birmuncha farq qiladi.

Aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishida bilimga asoslangan, mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan metodlar qo‘llansa, ijtimoiy va filologiya yo‘nalishidagi fanlarda nutq (og‘zaki va yozma), madaniy savodxonlik va ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar qo‘llanadi. Amaliy fanlarda esa evristik, mantiqiy, modellashtirish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan metodlar ko‘proq ishlatiladi. O‘quv jarayonida uyg‘unlashgan (mualliflik: “Kim chaqqon”, “Aql sandig‘i”, “Shamol esmoqda”, “Mening loyiham”, “Ijodiy ish”, “Taqdimot”, “Rotatsiya”) ayrim shakllari o‘zgartirilgan metodlar fanlarda natijaviyligiga qarab o‘ziga xos farqlar asosida faol qo‘llanadi.

O‘quv jarayonida qo‘llanadigan texnologiyalar metodlar uyg‘unligi bilan o‘zaro farq qiladi: “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi”, “O‘qitishni individuallashtirish ta’lim texnologiyasi”, “Modellashtirish ta’lim texnologiyasi”, “Hamkorlik ta’lim texnologiyasi”, “Muammoli ta’lim texnologiyasi”, “Evristik ta’lim texnologiyasi”, “Raqamli ta’lim texnologiyasi” kabi.

O‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan), ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli), kelib chiqish manbaiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan) turkumlanishi asosida innovatsiyalar quyidagicha tasniflanadi:

Interfaol metodlar:



Rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or metodlari

Ma’lumki, har bir sohada “ilg‘or tajriba” mavjud. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda o‘qitish jarayonida yangi imkoniyatlar ochadigan, mavzuni tushuntirishda yangi metod, uslub va shakllardan foydalangan holda ijodiy natijaga erishiladigan tajriba tushuniladi. Har qanday xorijiy tajribani to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmaydi. Ularni milliy xususiyatimizdan kelib chiqqan holda, metod bo‘lsa, mavzuga, dars bosqichiga; tadqiqotchilik harakatlari bo‘lsa, o‘quvchilar o‘zlashtirishiga moslashtirib qo‘llanadi.

Ilg‘or ish tajribalarini tanlashda uning dolzarbligi, qo‘llash uchun shart-sharoitning yaratilgani; tajribaning yaxshi

natijaga olib kelishiga ahamiyat berish lozim.

Janubiy Koreyada ta'lim muassasalarida bilim berish va uni baholash uslublari boshqalarnikidan ancha farq qiladi. O'quvchilar darslarni o'z vaqtlariga qarab belgilashadi. O'qituvchilarni ham o'zlari tanlashadi. Tahsil oluvchilar ma'ruza jarayonlariga o'zlari tayyorlanadi va o'zlari o'qiydi. O'qituvchilar faqat boshqarib turadi, ular uchun davomat, ma'ruza, konspektlar unchalik muhim emas. Eng asosiysi – o'quvchilar olgan bilimlarini amalda sifatli qo'llay olishiga bo'lgan o'zaro ishonch. Janubiy Koreya metodologiyasida "Blended learning" texnologiyasi ko'p qo'llanadi.

Aslida **"Blended learning"** aralash o'qitish tizimi bo'lib, bunda mustaqil ravishda bilimlarni onlayn va kunduzgi holatda o'qituvchi ishtirokida o'rganiladi. "Blended learning"da "shu yerda va hozir" degan ma'nolar tushuniladi.

"Blended learning" texnologiyasida asosan tyutor, supervizorlik va moderatorlik faoliyatiga tayaniladi. Tyutor bu – o'qituvchi. Muhimi, o'qituvchining asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, bolani maqsadga erishish uchun mustaqil ravishda harakat qilishga o'rgatish. **Tyutor** – pedagog o'quvchilarni maqsadini mustaqil ravishda belgilashga, o'z kamchiliklarini tushunishga o'rgatadi. Supervayzer (inglizcha "supervise" – "kuzatish" degani) – kuzatuvchi. U ta'lim jarayonidagi kamchilik va yutuqlarni kuzatadi. Shuningdek, administrator savollarini yechishga harakat qiladi, u kreativ kuzatuvchi, kommunikativ ijrochi, mas'uliyatli, strategik fikrlovchi shaxs sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) shaxsni tanlash va o'qitish;

b) o'quvchilar bilan o'zaro munosabatga kirisha olish;

c) o'quvchilarga topshiriqlarni bo'lib berish;

d) ta'lim sifatini nazorat qilish;

e) o'quvchilar faoliyatidan xabardor bo'lish.

Moderator esa axborotlarni tekshiradi, o'rnatilgan tartibda tahrir qiladi.

Janubiy Koreya yoshlarining ta'limga qiziqishiga asosiy sabab o'quvchilarning qo'shimcha ta'lim bilan ko'p shug'ullanishlari va maktabda ular uchun amaliy mashg'ulotlarga bir necha soat vaqt ajratilishida ekani kuzatilgan.

Yaponiyada esa ta'lim tizimining boshqaruv strukturasi barcha muassasalar faoliyati uchun yagona ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi (MEXT) orqali boshqariladi.

Yaponiya ta'lim tizimida o'quv dasturlari har yili yangilanishi va takomillashtirilishi xususiyati, fan yo'nalishlaridagi zamonaviy yangiliklar, o'zgarishlarning o'quv dasturlarida aks ettirilishi bilan xarakterlanadi.

Yaponiya metodologiyasini kuzatadigan bo'lsak, **"kaydzen"** metodi mavjud bo'lib, unda "bir daqiqa" tamoyili yotadi. Bu metodning prinsipi shundan iboratki, odam aniq bir ish bilan bir daqiqa shug'ullanadi, lekin har kuni va bir vaqtning o'zida.

Bir daqiqa juda oz vaqt bo'lsa-da, har qanday odam osonlikcha bajarishi mumkin. Bu metod ta'limda turli shakllarda qo'llanib, ijobiy baholangan. O'quvchilarning o'zlashtirish sifatida o'sish kuzatilgan. Yarim soat davomida bajarilmagan xatti-harakatlar bir daqiqada osongina bajarilgan.

Yapon tilida **"kaizen"** so'zi "doimiy takomillashtirish" degan ma'noni anglatadi.

Singapur ta'limining ham jahon hamjamiyatida ijobiy natijalarga erishayotgani sir emas. Ma'lumki, **Singapur** PIRLS tadqiqotida aholisi savodxonligi bo'yicha dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega. Singapur maktablarining o'quvchilari 1995-yildan buyon matematika va tabiiy fanlar TIMSS bo'yicha xalqaro imtihonlarida dunyodagi eng yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda.

Singapur metodologiyasida dars sifatini oshirishga qaratilgan qator metodlarning quyidagi shakllarini ko'rishimiz mumkin:

"Metro boshqarmasi" – sinfni boshqarish metodi, o'quvchilar 4 kishidan iborat bitta jamoada taqsimlanadi: har kim ixti-

yoriy, bir-birining yonida o‘tiradi va mavzu bo‘yicha haqiqiy raqib kabi aloqa qiladi.

“HI file” – darsning boshlanishi yoki biron-bir topshiriqning belgisi sifatida o‘qituvchining ko‘tarilgan kaftiga diqqatni jamlash.

“Jot toast” (“fikrni yozib olish”) – yozuvni tezkor bajarish, uni baland ovozda o‘qish. Bu metodda natijalar tahliliga alohida ahamiyat beriladi.

“Tic-Tac-Toe” – diagrammada kerakli so‘zlar bilan jumla tuzish vazifasi orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Masalan, so‘zlar raqamlar bilan o‘zgartiriladi.

“Stir the Class” (“sinfni aralashtirmoq”) – o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha maksimal fikrlari va javoblari to‘planadi, fikrlar yaqinligi bo‘yicha ro‘yxat tuziladi, so‘ng shu asosda qayta joylashishga ruxsat beriladi. Mavzuga oid barcha umumiy tahlillarni o‘zlariga o‘zlari o‘tkazadilar.

“Koneps” – o‘quvchilar sinf burchaklariga oldindan o‘zlarining tanlovlariga ko‘ra taqsimlanadi va savollar bo‘yicha fikrlarini aytishadi.

“Simultaneous Round” bu – guruhning barcha a’zosi yozma topshiriqlarni bajaradigan va oxirida topshiriqlar tekshirish uchun sherigiga aylana shaklida beriladigan metod turi.

“Kyuz-kyuz-trade” – o‘quvchilar bir-birlarining bilimini tekshiradi va o‘rganilgan tahlillar asosida dars beradi.

“Time pea shea” – ikki ishtirokchi vaqtni belgilab nazorat qiladi. Mavzu bo‘yicha to‘liq javoblar almashiladi.

“Mix pea shea” – sinfning ixtiyoriy aralashmasi, musiqa tugashi bilan tasodifiy juftlik hosil qilinadi va mavzu qisqa javoblarda to‘liq muhokama qilinadi.

Fransiya ta’lim vazirligi qoshidagi masofadan o‘qitish milliy markazi (CNED) elektron ta’lim platformasida faoliyat yuritadi. Bu tajribadan 2017-yilgacha dunyo bo‘ylab 237000 o‘quvchi foydalangan. Tahlillarga ko‘ra, bu masofaviy ta’lim platformasi 15 million o‘quvchiga mo‘ljallangan. 2019-yili “Intel” sun’iy intellekt (A1) va avtonom tizimlar kabi asosiy sanoatning “kirish nuqtalari” ustida ishlaydigan dastlabki startaplarga qaratilgan “Ignite” dasturi ishga tushirildi.

Rivojlangan davlatlar qatorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish, xalqning boy intellektual me’rosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish **O‘zbekiston** taraqqiyotining muhim shartidir.

STEM / STEAM / STPEAM TA’LIMI – DAVR TAQOZOSI

Kundan kunga texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yoshlarning texnik, madaniy savodxon bo‘lishi, robototexnika fanlarini yaxshi o‘zlashtirishi doimgidan ham muhimroqdir. Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida STEAM ta’limini joriy qilish yuzasidan alohida vazifalari belgilandi.

Bugun ta’limning STEM / STEAM / STPEAM kabi yangi yondashuvlari rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanib, jahon

hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda. Fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlari asosida o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi STEM deb nomlanadi.

STEM ta’limi ilmiy usullardan, texnik qo‘llanmalardan, matematik modellashtirish va muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu o‘quvchining innovatsion fikrlash, XXI asrning qobiliyatlari, ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

STEM – o‘quvchilar mahoratini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradigan innovatsion metod. Uning yordami bilan iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo‘lishga imkon beradigan ilg‘or kadrlar bazasini shakllantirish mumkin.

Bu borada rivojlangan davlatlarni kuzatadigan bo‘lsak, AQSH, Singapur, Koreya, Avstraliya, Xitoy, Buyuk Britaniya kabi ko‘pgina mamlakatlarda STEAM ta’limi sohasida davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Massachuset texnologik instituti (MIT) STEAM yondashuviga yorqin misol bo‘ladi. Bu universitetning shiori, “Mens et Manus” (“Tafakkur va qo‘l”). STEAM kurslari va bolalarning STEAM konsepsiyasi bilan oldindan tanishishlari uchun ba’zi o‘quv muassasalarida STEAM mashq markazlari ochilgan bo‘lib, maktab partasidayoq bu yo‘nalishni chuqur o‘rgatish rejalashtirilgan.

Bularning barchasi AQSHda paydo bo‘lgan STEM atamasi bilan boshlangan. STEAM STEMdan (A–art) bitta harfda farq qiladi, ammo yondashuvdagi farq juda katta. So‘nggi paytlarda STEAM ta’limi AQSH va Yevropada haqiqiy tendensiyaga aylandi va ko‘pgina mutaxassislar buni “kelajak ta’limi” deb atashadi.

STEAM – tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan yo‘nalishlarini birlashtirgan yangi o‘quv texnologiyasi.

S – fan. T – texnologiya, E – ingliz tilida muhandislikni anglatadigan elektron muhandislik, A – san’at, M – matematika. STEAM o‘quv rejasi o‘quvchilarni fanlararo va amaliy yondashuvdan foydalangan holda o‘qitish g‘oyasiga asoslangan. Beshta fanning har birini alohida o‘rganish o‘rniga STEAM ularni yagona sistemaga birlashtiradi.

STEAM esa, S – fan, T – texnologiya, E – o‘qish + yozish muhandisligi, A – art, M – matematika yoki fan, texnologiya, o‘qish + yozish, muhandislik, san’at, ijod, matematika yo‘nalishlari to‘plami sifatida tushuniladi. Bunday holda tadqiqot konsepsiya bilan mustahkamlanadi, bunda nafaqat fan bilimlari, umumiy o‘qish va yozish qobiliyatlari, balki o‘quvchilarni qiziqtiradigan bo‘lsa, global miqyosda rivojlanib borishi mumkin bo‘lgan ma’lumot qidirish ko‘nikmalari va mini tadqiqotlar talab etiladi.

Darhaqiqat, kelajakda yoshlarimiz hayot so‘qmoqlaridagi murakkab muammolarni tushunish va hal qilish, o‘zining yashash sharoitini yaxshilash, texnika, texnologiya yo‘nalishida atrofidagilar bilan ongli munosabat o‘rnata olishlari uchun ham STEM / STEAM / STPEAM ta’lim yondashuvlarini joriy qilish zarurati mavjud.

STEAM ta’limini joriy qilish va rivojlantirishning strategik maqsadlari:

– STEAM ta’limning davlat ta’lim standarti talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini tahlil qilish, ta’lim mazmunini yangilash;

– STEAM ta’limning maqomini oshirish, uning umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash, ta’lim jarayoniga milliy va umuminsoniy hamda moddiy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, metod va vositalarini keng joriy etish;

– STEAM ta’lim mazmunida texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish, bo‘limlarni mustaqil amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini yaratish;

– STEAM ta’limni tashkil etishda innovatsion yondashuv (kompetentli, tizimli, kompleks, faoliyatli, loyiha, texnologik) asosida invariant va variativ o‘quv modullariga ajratib o‘qitishni joriy etish;

– STEAM ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy metodlar asosida ixtirochilik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beruvchi ilg‘or metodologiyalardan foydalanishni tatbiq etish;

– STEAM ta’limi yo‘nalishidagi fan (kimyo, biologiya, fizika, matematika) o‘qituvchilarining mutaxassislik fanlari bo‘yicha malakasini oshirish;

– STEAM ta’limini joriy etish uchun tabiiy va aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish orqali iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga erishish.

O‘QITUVCHILARGA BELGILANGAN ASOSIY VAZIFALAR:

– istiqbolli texnologik, zamonaviy standartlarga mos keluvchi yo‘nalishlarni tadqiq qilish va joriy etish;

– o‘quvchilarda texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash yuzasidan bilim, ko‘nikmalarni, loyihalash, texnologik va tadqiqotchilik madaniyatini rivojlantirish;

– kasb tanlashda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish, mehnat bozorida zarur bo‘ladigan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

– o‘quvchilarning milliy va xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirokini ta’minlash.

STEAM ta’lim muhitida o‘quvchilar egallagan bilimlaridan amalda foydalanishlari sababli ular ulg‘ayib, voyaga yetgach, real hayotda turli muammolarga duch kelishganida, masalan, atrof-muhit ifloslanishi bo‘ladimi, iqlim o‘zgarishimi, yechim topa olish ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi.

Xulosa qilinganda, bu yondashuvlar o‘quvchilarda yangicha fikrlash, ijodiy va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga asoslangan.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda STEAM

Bugungi kunda ta’lim sohasida pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi o‘qituvchi faoliyatining yangilanishini talab etmoqda. Amaliy fanlar o‘qituvchilarining asosiy maqsadi fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda **kreativlik**ni rivojlantirish, **STEAM** (fan, texnologiya, injiniring, san’at va matematika (science, technology, engineering, art and mathematics)) **yondashuvi asosida fanlar integratsiyasini kuchaytirish,** ular har bir o‘quvchini ijodkorga aylantirishga, turli manbalar (adabiyotlar, eksperimentlar va h.k) yordamida mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘quvchilarda ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga, yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro‘yobga chiqarishga e’tibor qaratishi hamda bilim olishga qiziqtirishi lozim.

STEAM ta’limining 10 ta afzallik tomoni bor:

1. Ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki “mavzu”lar bo‘yicha integratsiyalab olib borish.

STEAM ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyoti va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik sohasi bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

2. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash.

STEAM ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va rivojlantiradi.

3. Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish.

STEAM dasturi bolalar kundalik hayotda duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar. Birinchi sinovdan so‘ng kutilgan natijaga erishilmasa, buning sabablari haqida o‘ylaydilar va topadilar. Balki, g‘ildiraklarning kattaligi yoki aerodinamikasi to‘g‘ri kelmagandir. Har bir sinovdan so‘ng ular kamchiliklarni bartaraf etib boradilar.

4. O‘z kuchiga ishonish hissining ortishi.

Bolalar ko‘prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlashib boradilar. Har bir sinovdan so‘ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib, maqsadga erishadilar. Bu bolalar uchun ruhlanish, g‘alaba va quvonch demakdir. Har bir g‘alabadan so‘ng ular o‘z kuchlariga yanada ishonadilar.

5. Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash.

STEAM dasturi faol kommunikatsiya va jamoada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirish va taqdimot o‘tkazishni o‘rganadilar. Bolalar doim o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda bo‘ladilar. Ular jarayonda faol qatnashsalar, mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar.

6. Texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish.

Boshlang‘ich ta’limda STEAM ta’limning vazifasi, o‘quvchilarning tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bu ishni sevib bajarish qiziqishlarni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

STEAM mashg‘ulotlari dinamik va qiziqarli bo‘lganidan bolalar mashg‘ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o‘tganini sezmay qoladilar.

7. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv.

STEAM ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi.

8. Ta’lim va karyera orasidagi ko‘prik.

Turli xil baholashlarga ko‘ra, hozirgi kunda talabgor eng ko‘p bo‘lgan 10 mutaxassisdan 9 tasida aynan STEAM bilimlari zarur bo‘ladi. Bunday kasblarga muhandis-kimyogarlik, neft bo‘yicha muhandislik, kompyuter tizimlari analitikligi; muhandis-mexaniklik, muhandis-quruvchilik, robototexnik, yadro meditsinasi kabilar kiradi.

9. Bolalarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash.

STEAM ta’limi bolalarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. Keyingi 60 yil davomida texnologiyalar jadal darajada rivojlandi.

10. STEAM ta’limi maktab dasturlariga qo‘shimcha sifatida qo‘llanadi.

STEAM dasturlari 7–14 yoshdagi o‘quvchilarning muttasil ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga qiziqishini orttiradi. Masalan, tasviriy san’at darslarida fasllarga oid tabiatning ko‘rinishi o‘rganilganda doskada bu mavzu chizib tushuntirilsa, STEAM to‘garaklarida o‘quvchilar tabiatning fasllarga oid manzaralarini, daraxtlar, barglar va tabiat elementlarining ranglarini anglagan holda ularni modellashtirish va loyihalash orqali applikatsiyalarini yasaydilar va o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar. O‘quvchilar o‘zlari ko‘rmagan yoki eshitmagan atamalarni har doim ham tez anglab yetmaydilar. Masalan, kuzda barglarning sarg‘ayishi (kuzda barglarda xlorofill ishlab chiqarish to‘xtaydi va u tezda rangini o‘zgartiradi).

STEAM mashg‘ulotlarida ular qiziqarli tajribalar o‘tkazganlarida bu atamalarni osongina tushunib olishlari mumkin.

Demak, xulosa qilib aytganda, STEAM ta’limi beshta sohaning yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM beshta fanning har birini alohida o‘rganish o‘rniga ularni yagona o‘quv tizimiga birlashtiradi.



“CLIL” METODIKASI

“CLIL” atamasi 1994-yilda Finlyandiyaning Jivaskila universiteti mutaxassisi Devid Marsh tomonidan tilga singdirish va mazmunga asoslangan o‘qitish uslubi sifatida yaratilgan. Ushbu metodologiya ko‘plab mamlakatlarda biznes sharoitida qo‘llangan va samarali yondashuv sifatida qabul qilingan.

Haqiqatan ham, muhim bo‘lgan tadbirkorlik rivojida bu ta’lim metodikasining tarafdori juda ko‘pchilikni tashkil etadi.

C – content (mazmun, tuzilish);

L – language (til);

I – integrated (integratsiya);

L – learning (o‘rganish, amaliy mashg‘ulot).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta’lim maqsadini amalga oshirishda “CLIL” metodikasidan keng foydalaniladi. “CLIL” turli xil ta’lim turlari uchun soyabon atamasi sifatida qabul qilingan. Uning amaliy fanlar o‘qituvchilari uchun afzalligi shundaki, mavzularni o‘ylash uchun ko‘p vaqt sarflash zaruriyati yo‘qoladi, motivatsiya beriladi.

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda o‘quvchilarni rag‘batlantirish va amaliy mashg‘ulotga vaqt ajratish muhimdir. “CLIL” metodlari sifatida ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va nazariy bilimlarni mustahkamlash), davra suhbatlari (ko‘rilayotgan topshiriqlar yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish), bahs va munozaralar (topshiriqlar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli materiallarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish) kabilardan unumli foydalaniladi.

“Amaliy o‘rganish” metodi. Bu metodda ta’lim sifatini oshirish uchun takroriy harakatlar bajariladi. Asosiy e’tibor biror ma’lumot bo‘yicha aqliy harakat mashqlariga qaratilgan bo‘ladi.

Bu metodda jismoniy mashqlar shaklini tanlash (og‘zaki, yozma, grafik mashg‘ulot) o‘rganilayotgan mavzuning mazmuniga yoki yechilayotgan muammoga



va o‘rganuvchi xotirasining ustuvor shakliga (vizual, eshitish, mexanik, mantiqiy) bog‘liq.

“Davra suhbati” metodi. Bu metod 2 yoki undan ortiq o‘qitish jarayonida qo‘llanadi. O‘rganuvchi yoki o‘quvchining o‘zaro fikr almashishiga keng imkoniyat yaratiladi. O‘rganuvchi o‘zini qiziqtirgan savollarga javoblarni erkin muloqot orqali bilishga erishadi.

Dars maqsadlariga qo‘yiladigan talablar

• **aniqlik –** dars so‘ngida o‘quvchilarda hosil bo‘lgan yangi bilimlar, ko‘nikma va malakalarning shakllanishi, rivojlanishini belgilaydi;

• **reallik –** real imkoniyatlar: o‘quvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, sinfdagi o‘quvchilar soni, darsning jihozlanishi, texnik ta’minotga bog‘liq vaziyat;

• **diagnostika –** maqsadga erishish mumkin bo‘lgan mezonlar.

Darsni maqsadli to‘g‘ri tashkil etish

Tasviriy san’at fanini o‘qitishda darsni qismlarga ajratib, har bir qismni daqiqalarga taqsimlab olish maqsadga muvofiqdir. Chunki, amaliy fanlarni o‘qitishda darsning “Amaliy mashg‘ulot” qismi o‘quvchilarning bilim va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Puxta reja – samarali natijadir. Reja asosida qismlarga ajratib tashkil qilingan darslar qiziqarli va tartibli bo‘ladi. Darsning har bir qismida o‘quvchilar nazariy, amaliy-metodik jihatdan o‘z bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini mustahkamlab boradilar. Eng muhimi, o‘qituvchi va o‘quvchilar 45 daqiqalik vaqtdan samarali foydalanadilar.

№	Dars qismlari	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Avvalgi mavzuni mustahkamlash	3 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	8 daqiqa
4	Amaliy mashg‘ulot	22 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
6	Darsni yakunlash va uyga vazifa berish	5 daqiqa

“CSMART” METODI

Insoniyat tarixidagi katta muvaffaqiyatlar o‘z vaqtida to‘g‘ri rejalashtirilgan va erishilgan maqsadlar natijasi bo‘lgan.

CSMART metodi qo‘yilgan real maqsadga qanday erishish usullarini o‘rgatadi. CSMART bu orzuga yetishishning zamonaviy, samarali, ilmiy o‘rganilgan natijali metodidir.

Hayotimizda maqsad qo‘yish va unga erishish katta o‘rin tutadi. Maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilmaslik oqibatida insonlar hayoti boshqara olmaydigan tartibsiz voqea-hodisalar ketma-ketligidan iborat bo‘lib qolishi mumkin. O‘qituvchi darsga qo‘ygan maqsadiga erishishi uchun nimalar kerak?

Albatta, oldin darsga aniq maqsad qo‘yishi kerak, lekin bu yerda ham anchagina kutilmagan ziddiyatlar bo‘ladi. Lekin eng asosiysi maqsadning o‘zini to‘g‘ri qo‘yishdir. Buning uchun turli usullardan foydalanish kerak.

CSMART inglizcha akronim bo‘lib, u maqsadni to‘g‘ri tushunib yetish va erishishga yordam beruvchi, o‘ta samarali metod hisoblanadi.

CSMART texnikasi o‘lchamli maqsadni qo‘yish va uni tasvirlab berishdir. Bu ko‘pincha ta’limning “Loyihalash”, “Modellashtirish” metodlarida uchraydi. Shuni yodda tutish kerakki, **CSMART** ijodiy faoliyatga va aniq natijaga yo‘naltirilishi zarur. CSMART metodi ham turli metodlar kabi o‘qituvchining darsiga qo‘ygan maqsadiga erishishi uchun xizmat qiladi.

CSMART metodi qachon paydo bo‘lgan?

Birinchi bo‘lib **CSMART** uslubini 1981-yili Jorj Doran “There’s a S.M.A.R.T. way to write management’s goals and objectives” maqolasida izohlab bergan. Bu uslub o‘tgan 10 yil mobaynida internet tarmoqlarida keng muhokamaga sabab bo‘ldi. Shu davrda o‘qituvchilar CSMART

metodining ta’limda natijaviylikka erishish imkoniyatlarini isbotlab berdilar. CSMART metodi insonlarga ma’lum chegaradan chiqib ketmagan holatda maqsadga erishishda zarur bo‘lgan bosqichlardan o‘tib borishga yordam beradi. Shuningdek, bu metod kerakli resurslar, erishilayotgan natijalar va sarflanayotgan vaqt ustidan nazorat qilish imkoniyatini beradi.

CSMARTning mezonlari:

C – challenging (yetarli darajadagi murakkablik).

S – specific (konkretlik).

M – measurable (o‘lchanish mumkinligi).

A – achievable (erishish imkoniyati).

R – relevant (dolzarblik).

T – time-bound (muddatlar bo‘yicha aniqlik).

Bu metod juda yaxshi, lekin topshiriqlar oldindan belgilangan bo‘lishi kerak.

CSMART metodining afzalligi:

– aniq maqsadga erishish;

– amaliy va aniq maqsadga erishishning baholanishi;

– o‘quvchilar o‘rtasida motivatsiyani oshirish;

– topshiriq berganda o‘zaro muloqotni soddalashtirish;

– vaqtni tejash va natijaga erishish;

– o‘quvchi o‘zining shaxsiy muammolarida ham maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilishi;

– o‘quvchida kreativlikni o‘stirishi.

“Moodboard” metodi

Moodboard – inglizcha so‘z bo‘lib, “kayfiyat taxtasi yoki doskasi” degan ma’noni anglatadi. Moodboard metodi kollaj texnikasining bir bo‘lagi hisoblanadi.

Kayfiyat taxtasi bu – kompozitsiyadagi tasvirlar, matn va namunaviy obyektlardan tashkil topgan vizual taqdimot yoki “kollaj” turi. U ma’lum bir mavzuga asoslanishi yoki tasodifiy tanlangan har qanday material bo‘lishi mumkin.

Bu metod biror-bir mavzuni ishlab chiqish bosqichida oldindan ko‘rish sifatida tuzilgan. Barcha elementlar bir maydonda kollaj shaklida joylashtiriladi. Moodboard o‘quvchiga uslub va yo‘nalish bo‘yicha qaror qabul qilish, to‘g‘ri tanlash va ortiqcha narsalarni kesib tashlashga yordam beradi. Bir nechta vizual tasvirlarni birlashtirgan holda dizayner yangi loyiha yaratadi. Shunday qilib, dizayn moodboard ham estetik, ham amaliy ahamiyatga ega.





Grafik dizaynda moodboard bu – turli matnlar, tipografiya elementlari, ranglar palitrasi va rasmlar to‘plami.





Tasviriy san’at fanini o‘qitishda kreativ yondashuv

Tasviriy san’at fani o‘qituvchilarining asosiy vazifasi o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishdir.

Kreativlik (ing. “create” – *yaratish*, “creative” – *yaratuvchi, ijodkor*) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.

Kreativlik o‘quvchining yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, tasavvur, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

O‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda:

– o‘quvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

– o‘quvchilar ijodiy fikrlashi uchun qulay imkoniyat yaratish, ular bayon qilgan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir o‘quvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

– o‘quv jarayonini o‘quvchi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– o‘quvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undashdan iborat.

Amaliy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishida fanlararo hamkorlik tashkil etish

Bugungi kunda ta’lim sohasida pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi o‘qituvchi faoliyatining yangilanishini talab etmoqda. Amaliy fanlar o‘qituvchilarining asosiy maqsadi fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda **kreativlik**ni rivojlantirish, ular turli manbalar (adabiyotlar, eksperimentlar va h.k) yordamida mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘quvchilarda ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga, yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro‘yobga chiqarishga e’tibor qaratishi hamda bilim olishga qiziqtirishi lozim.



Amaliy koʻnikmalarni rivojlantirishda 3 ta bosqich muhim hisoblanadi

Birinchi bosqich – idrok etish. Idrok etish aniq maqsadga yoʻnaltirilgan jarayondir.

Ikkinchi bosqich – oʻquv materialini anglab yetish. U ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va tahlil qilishdan iborat.

Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash. Oʻzlashtirilgan bilimlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolish va bilimlarni amaliyotda qoʻllashdan iborat. Bu borada integratsiya darslari samarali natija beradi.

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA QOʻLLANADIGAN INTERFAOL METODLAR

"Modellashtirish" texnologiyasi

"Modellashtirish" texnologiyasi loyihalashga yaqin tursa-da, tub mohiyatiga koʻra oʻzaro farqlanadi. Biror obyektni modellashtirish deganda uning xossa va xususiyatlarini matematik munosabatlar yoki mantiqiy ifodalar orqali ifodalash tushuniladi. Modellashtirish texnologiyasi oʻzaro bogʻliq boʻlgan nizomlar, ta'riflar, modellarni yaratish va tadqiq etish usullari, vositalari toʻplamini tashkil etadi. Modellashtirish tadqiqotchilik modellarini yaratish va oʻrganishdan iborat.

Modellashtirish texnologiyasini kompozitsiya bobidagi transport mavzularida qoʻllash mumkin. Oʻquvchi(guruh)larga geometrik shakllar tarqatiladi. Vazifa: berilgan geometrik shakllar asosida oʻzingiz yoqtirgan tasvir modelini yasang.

"Loyiha" metodi

Bu metodga oʻquvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida birorta mavzu boʻyicha axborot yigʻish, tadqiqot oʻtkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishi asos hisoblanadi. Bu metodda oʻquvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish, natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyihani ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh holida boʻlishi mumkin, lekin har bir loyiha guruhning birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bunday topshiriqlar mustaqil reja tuzishni amalga oshirishda yaxshi samara beradi. Loyihaviy topshiriqlarni bajarish uchun oʻqituvchidan koʻrsatish, tushuntirish, izohlash talab etilsa, oʻquvchilarga asoslar, dalillar, materiallar toʻplash, oʻz loyihalarini ishlab chiqish topshiriladi.

"Fikriy hujum" metodi

Mazkur metod oʻquvchilarning mashgʻulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga ragʻbatlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang gʻoyalarni toʻplash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo boʻlgan fikrlarni yengishga oʻrganish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodining asosiy tamoyili va sharti mashgʻulotning har bir

ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 10–15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llanadigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir nechta original yechimlarni tanlash imkoniyati tug‘iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

– o‘quvchilar o‘zlarini erkin his etishi uchun sharoit yaratib berish;

– g‘oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish;

– muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;

– mashg‘ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash;

– bildirilayotgan g‘oyalarning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish;

– qog‘oz varaqlari g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish;

– bildirilgan fikrlarni yangi g‘oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;

– boshqalar tomonidan bildirilgan g‘oya (yoki fikr)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– yangi g‘oyalar bildirilayotgan ekan, muammoning yagona yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik.

Shuningdek:

– o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi;

– o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

– g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi;

– o‘quvchilarning boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelishiga erishish.

Dars jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O‘quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.

2. Har bir o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag‘batlantirib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi.

3. Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi. Ularning fikrlari baholab borilsa, o‘quvchilar diqqatini shaxsiy fikrini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

“Klaster” metodi

“Klaster” (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Stil g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulot jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar va o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shuncha-ki yozib boring.

2. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror-bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguncha davom ettiring.

3. Yozuvingizning imlosi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.

4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni, bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

“Namoyish” metodi

Bu metodda ta’lim sifatini oshirish uchun o‘quvchilarga yangi mavzuni tushuntirish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish samarali natija beradi.

O‘qituvchi dars jarayonida faqat mavzuga va o‘quvchilar o‘rgangan materialga mos keladigan videoqismlarni olishi kerak.

Videodars darsning bir bo‘lagi bo‘lishiga qaramasdan, o‘quvchini idrok qilishga o‘rgatadi va o‘rganganlaridan amalda foydalanish istagini paydo qiladi, o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni kuchaytiradi va olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish layoqatini egallashga yordam beradi.

Masalan, o‘qituvchi “Tasviriy san’atning turlari” mavzusini tushuntirish jarayonida videoroliklardan foydalansa, o‘quvchi mavzuni tez va oson qabul qiladi, o‘rganganlari uzoq vaqt xotirasida qoladi.

“Videotopishmoq” metodi

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Videotopishmoq” metodida o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlaydilar va jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar, o‘qituvchi tomonidan berilgan sa-

vollarga javob qaytaradilar. Tasviriy san'at darslarida "Videotopishmoq" metodini qo'llash samarali natija beradi.

Masalan, o'qituvchi natyurmort, manzara va boshqa janrlarni ishlash jarayoni videosini ko'rsatadi va o'quvchilardan bu jarayonlar tasviriy san'atning qaysi janriga mansub ekanini so'raydi.

"Plener amaliyoti" metodi

"Plener amaliyoti" metodi bu – tabiat qo'ynida manzaraga qarab rasm ishlash.

Bu metod fasllarga oid mavzularda qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Bu mavzularni o'tish samaradorligi, shubhasiz, o'quvchilarning tabiat haqidagi tasavvurlarining teranligi bilan bog'liq. Tabiat insonlar uchun go'zallik va quvonch manbai bo'lib kelgan. Sinfxonadagi darsga nisbatan bolalarni sayohatga olib chiqish ularning kayfiyatlariga, his-tuyg'ulariga va ijodiy ishlashlariga ijobiy ta'sir qiladi. Shu sababli ham yuqoridagi mavzular bo'yicha dars o'tishda uni sayohat usulida o'tkazishni aniq tartibda rejalashtirib olish lozim. Albatta, sayohat davomida o'rganiladigan ma'lumotlar 45 daqiqaga mo'ljallab tuziladi.

"Breynrayting" metodi

Bu metodni qo'llashda barcha g'oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa o'z fikr va g'oyalarini og'zaki bayon etishga qiynaladigan ba'zi o'quvchilar uchun qulaylik yaratadi. O'quvchilar tomonidan yozilgan fikr va g'oyalarning imloviy va uslubiy xatolariga e'tibor qaratilmaydi hamda fikrlar orasida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo'sh joylar ham qoldiriladi. O'quvchilarga o'z fikrlarini erkin, mustaqil ifoda etish topshiriladi. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu metoddan foydalanganda muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

Masalan, "Tabiatni asrang" mavzusidagi plakat kompozitsiyasini ishlash" mavzusida o'quvchilar tabiatni asrash yuzasidan o'z g'oyalarini yozma bayon qilishlari mumkin. Bu metoddan o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda unumli foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Intervyu" metodi

Bu metoddan o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinflarda guruh vakillari chiqib, bir-birlari bilan tanishib oladilar. (Masalan: men "Dunyo bo'ylab" kanali muxbiri (familiya, ismi)man.)

So'ngra guruh vakillari bir-biriga o'tilgan mavzu yuzasidan qiziqarli savollar berishadi. Bu metod ishtirokchiga dadillik hissini beradi, og'zaki nutqi rivojlanadi. Ishtirokchilar bir-birining fikrini qo'llashi, tanqidiy munosabatda bo'lishi va fikrini asosli faktlar bilan himoya qilishi nazorat qilib turiladi. Tanqidiy fikrlash o'z-o'zini baholashni ham o'z ichiga oladi.

"Kollaj" texnikasi

O'qituvchi sinf doskasiga vatman qo'yadi. Guruhlarga yangi mavzu yuzasidan vazifalar, ya'ni kompozitsiya elementlarini bajarish ishi beriladi. Guruhlar bajargan tayyor ishlarini vatmanga yopishtiradilar. Shu tariqa yangi mavzu

yuzasidan umumiy kompozitsiya ishlanadi.

Bu texnikani 3-sinf yangi avlod darsliga kiritilgan “Koinotga parvoz”, “Tog‘da bahor”, “Tabiatni asrang” mavzularida qo‘llash mumkin.

“3 soniya” metodi

“3 soniya” metodi asosida o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi.

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu asosida savol beriladi. Ular belgilangan vaqt ichida javob qaytaradilar. Javobni o‘ylab turish uchun 3 soniya vaqt beriladi. Javob topilmasa, berilgan savol raqibga o‘tib ketadi. Bundan tashqari, o‘zlari tuzib kelgan savollarni ham bir-birlariga beradilar.

“Meni qiziqtiradi” metodi

Bu metod avvalgi dars mavzularini takrorlash jarayonida qo‘llanadi.

O‘quvchilar o‘tilgan mavzu asosida atrofimizdagi narsalarni xayolan kuzatadilar va savol tuzadilar. Tuzgan savollarini bir-birlariga beradilar.

“Qiziqarli geografiya” metodi

Bu metodda guruhlar bilan ishlanadi. Dars geografiya faniga bog‘lanadi. Mavzuga oid tasvir, masalan, shahar gerblari va shaharning ko‘zga ko‘ringan haykaltaroshlik namunasi ko‘rsatiladi. Har bir guruh shahar yoki mamlakat nomini yoki u qayerda joylashganini topadilar. Javoblar uchun doskaga maxsus qog‘ozchalar yopishtirilib boriladi. Tasvir mozaika shaklida ham berilishi mumkin. Tasvir javoblardan tuzilgan bo‘ladi. O‘yin oxirida shu davlatning ko‘zga ko‘ringan binosi, geografik kartasi, bayrog‘i yoki gerbi va hokazo tasvirlari kelib chiqadi. Tasvir geografik ahamiyatga ega.

“Xotira” metodi

Bu metodda guruh bilan yoki individual bo‘lib ishlanadi.

Bunda o‘qituvchi tayyorlab kelgan tasvir ko‘rsatiladi (bu dars uchun turli shakllar va shakllar ichiga naqshlar chizilgan oddiy yoki murakkab tasvirlar nazarda tutilgan). Guruhlar doskadagi tasvirni diqqat bilan kuzatadilar. So‘ng tasvir berkitib qo‘yiladi. Guruhlarga shu tasvirning nusxalari tarqatiladi. Guruhlarning vazifasi bu tasvirning yetishmayotgan elementini (raqami, naqshi, rangi bo‘lishi mumkin) topadilar. Doskadagi tasvirlar o‘quvchilar qo‘lidagi tasvirga nisbatan kichikroq bo‘lishi kerak. Ma’lum vaqt beriladi. Vaqt tugagach nusxalar doskadagi tasvir bilan solishtiriladi.

“Belgilarni joylashtir” metodi

Mazkur metodni turli yoshdagi o‘quvchilarda qo‘llash mumkin.

Bu metodning maqsadi – o‘quvchilarning diqqati ko‘chuvchanligi va taqsimlanuvchanligini aniqlash.

Bu metodikaning o‘tkazilish vaqti 2–3 daqiqa bo‘lib, noan’anaviy darslarda guruh bilan yoki yakka tartibda o‘tkazish


mumkin. Metodikaning qo‘llanishi oddiy: geometrik shakllar ichiga turli belgilar qo‘yiladi. Belgilangan vaqtda o‘quvchilar shakllarning ichini to‘ldirib chiqadilar.

Bu metod ko‘rib chiqilgandan so‘ng teskarisiga **“Belgilar asosida tasvirni hosil qil”** metodini takomillashtirish mumkin.

Bunda geometrik shakllar asosida tasvir hosil qilinadi.

Bu metodlarni o‘quvchining diqqatini darsga jamlash va darsning tashkiliy qismlarida qo‘llash mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin.





Buning uchun yuqoridagi geometrik shakllardagi belgili tasvirlar alohida qilib olinib, o‘quvchilarga ko‘rsatilgach, berkitib qo‘yiladi. O‘quvchilar eslab qolganini belgilashi lozim.

“Men xato qildim” metodi

Mazkur metod o‘quvchilarni o‘z xatosini tan olishga, diqqatini jamlashga undaydi.

O‘qituvchi yozilgan so‘zlarni butun sinfga ko‘rsatadi va ularni birgalikda o‘qiydilar.

Bu metodda berilgan so‘zlarni diqqat bilan o‘qish tavsiya etiladi.

O‘qib bo‘lgandan so‘ng o‘quvchilar “Kim xato qilib o‘qidi?” degan savolga qo‘l ko‘tarib javob beradilar.

SARIQ	MOVIY	OLOVRANG
QORA	QIZIL	YASHIL
BINAFSHA	SARIQ	QIZIL
OLOVRANG	YASHIL	QORA
KO‘K	QIZIL	SIYOHRANG
YASHIL	MOVIY	OLOVRANG

“Maxfiy konvert” metodi

“Maxfiy konvert” metodidan yakka yoki guruh bo‘lib ishlash uchun foydalansa bo‘ladi.

Bu metodda tarqatmalar solingan katta konvert va kichik konvertdan foydalaniladi. Katta konvertdagi tarqatmalar soddaroq mavzuning boshlanishida ishlatilsa, kichik konvertdagi tarqatmalar murakkabroq yoki mavzuni mustahkamlash uchun foydalaniladi. Ular guruhlarda ishlanishiga, guruh soniga qarab tayyorlanadi.

Yana darsning tashkiliy qismlari asosida konvertlarni tayyorlash mumkin.

Bu metodda guruhlar orasida maxfiylik bo‘lishi talab etiladi. Guruhlar tez va to‘g‘ri bajarishiga qarab baholab boriladi.

“Siz nimani tanlaysiz?” metodi

Metodda 3–5 nafar o‘quvchi ishtirok etadi.

Masalan:

1-o‘quvchi:

O‘zini tanishtiradi, tanlov haqida va u nima mavzudaligini tushuntiradi. Tanlovdan olgan taassurotlari va tanlovdagi yutuqlari haqida ma’lumot beradi.

2-o‘quvchi:

Barcha gapiradigan so‘zlarini katta formatdagi qog‘ozga yozib ko‘rsatadi.

3-o‘quvchi:

Tanlov emblemasi yoki tasvirini chizib, kerakli ma’lumotni qisqa qilib yozib qo‘yadi.

Metodning maqsadi – o‘quvchiga qanday ko‘rinish qulay ekanligini muhokama qilish. Muhokama o‘quvchilarni fikr yuritishga o‘rgatadi. Bu metodda o‘quvchi to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganib boradi.

“Qiziqarli klaster” metodi

Bu metodda turli shaklli klaster tuziladi. Har bir guruhga turli shakldagi klaster namunasi tarqatiladi, guruhlar tasvirlar yoki so‘zlarni jurnal yoki gazetalardan kesib olib yopishtiradilar. Kollaj metodi bilan birgalikda ishlash ham mumkin.

“Bir lahzali shovqin” metodi

Ushbu metod asosida o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi.

Bunda o‘qituvchi o‘tilgan tanish mavzular asosida 4 xil matn tuzib keladi. Butun sinfga ketma-ketlikda matn tarqatiladi. Bu matnlar so‘zlari soni bo‘yicha bir xil bo‘lishi kerak. O‘qituvchi ishorasi bilan barcha qatordagi o‘quvchilar bir-birlariga qarab matnlarni baravariga o‘qiydilar. O‘qib bo‘lganidan so‘ng, ular sxema asosida qarama-qarshisidagi o‘quvchining matnidagi mavzuni qisqacha gapirib beradilar.

1-o‘quvchi ⟷ 2-o‘quvchi

3-o‘quvchi ⟷ 4-o‘quvchi

Endi oldindagi o‘quvchilar orqadagi o‘quvchilar bilan matn almashadilar, yana shovqin hosil qilib o‘qiydilar. Yana sxema asosida, bunda bir biriga dioganal joylashgan o‘quvchilar matnidagi mavzuni qisqacha gapirib beradilar.

1-o‘quvchi ✕ 2-o‘quvchi

3-o‘quvchi 4-o‘quvchi



O‘quvchilarning qiziqishini yanada oshirish maqsadida notanish matn (yangi mavzu bo‘yicha) tarqatiladi. Yana sxema asosida shovqinli holat hosil qiladilar va bir-birlarining matnlaridan eslab qolganlarini qisqacha gapirib beradilar.

Bu metodning afzalligi o‘quvchining diqqatini rivojlantiradi, xotirasini kuchaytiradi va fiziologik jihatdan miyaning ikkala yarimsharining ishlash faoliyatini yaxshilaydi.

1-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Tasviriy san’atda ramziy belgi va geraldika		
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga geraldika haqida tushuncha berish va amalda bajara olishini shakllantirish		
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda badiiy-estetik ko‘nikmalarni, atrof-muhitga, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklarga nisbatan qarashlarni shakllantirish		
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda mustaqil ravishda turli ramziy belgilarni ishlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish		
	CSMART maqsadi: 	C – o‘quvchi tasviriy san’atning grafika turini farqlay oladi. S – o‘quvchi gerb yoki emblema ishlashda komponovkani to‘g‘ri bajara oladi. M – o‘quvchi gerb yoki emblemaning xomaki tasvirini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. A – o‘quvchi gerb yoki emblema eskizini ishlashda uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. R – o‘quvchi gerb yoki emblema shaklini va rangini to‘g‘ri tasvirlay oladi. T – o‘quvchi tasvir mavzusi asosida kompozitsiya tuza oladi.		
	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	“Tasavvur” metodi “Zakovat” metodi “Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar		
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, sirkul, chizg‘ich, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.		
	Sinf doskasining bezagi		*Davlat ramzlari va o‘quvchilarning ishlaridan namunalar*	
	DARSNING BORISHI			
Tashkiliy qism	Atamalar	Emblema, logotip		
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur bo‘lgan asbob-anjom va o‘quv qurollarini tayyorlash; f) guruhlarda ishlash uchun o‘quvchilarni jamoalarga bo‘lish. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.		

	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilar oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlar baholanadi.
	Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Yangi mavzuga bog‘lanadi. Masalan: 1. Tasviriy san’atdagi qanday tur va janrlarni bilasiz? 2. Stilizatsiya nima? “Qiziqarli savol” sahifasi: a) Bayroq deganda nimani tushunasiz? b) Ilk bayroqlar qayerda va qachon paydo bo‘lgan? Javoblar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **Bu qiziq!**  1997-yilda rassom Javlon Umarbekov va haykaltarosh Saidolim Sharipov yaratgan tasvir poytaxt gerbi sifatida tasdiqlandi.  2018-yilda poytaxt gerbi tasviri o‘zgartirildi.  2019-yil 14-yanvarda avvalgi gerb tasviriga yengil grafik o‘zgartirishlar kiritildi.	**“Tasavvur” metodi** O‘qituvchi turli ramziy belgilarning (turli davlatlar bayrog‘i va gerblari) ko‘rinishini tasvirlab beradi. O‘quvchilar tasvirni ko‘rmasdan turib uning rangi va og‘zaki tavsifi asosida qaysi davlatning ramziy belgilari ekanini aytishlari kerak bo‘ladi.  **Geraldika** haqidagi ma’lumot darslikdan o‘qib o‘rganiladi. Yangi mavzu slaydlar yoki ko‘rgazmali plakatlar asosida tushuntiriladi. *Geraldika* so‘zi lotincha “heraldus” – *jarchi* degan ma’noni anglatadi. Geraldika davlat ramzlari va ramziy belgilarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. XIII – XIX asrning 1-yarmigacha zodagonlar va yer-mulk egalarining gerblarini tuzish bilan geroldlar shug‘ullanganlar (*geraldika* atamasi shundan olingan). XIV asrdan boshlab gerbchilar ustaxonasi tashkil topgan, unda murakkab va rangli gerblar yaratilgan. **“Zakovat” metodi** Guruhlarga turli gerb namunalari tarqatiladi.  O‘quvchilar birgalikda maslahatlashib berilgan namunalarga ta’rif yozadilar. Tasvirdagi ramziy belgilarga izoh berishga harakat qiladilar. Toshkent shahrining gerbidan ham tarqatma sifatida foydalanish mumkin. Har bir guruh o‘z ta’rifini tushuntirib berganidan so‘ng, to‘g‘ri ma’lumotlar o‘qib eshittiriladi. O‘qilgan javobga yaqin va unga mos keladigan izohlar aniqlanib, baholanadi.

	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	Amaliy ish  Hokimlik  Yengilmas  Jasurlik yoki jasorat  Donishmandlik  Tinchlik	**“Ijodiy ish” metodi** O‘quvchilar yakka yoki jamoaviy tartibda guruhlari uchun gerb kompozitsiyasi eskizini chizadilar. Bunda ramziy belgi va tasvirlardan, kollaj va applikatsiya texnikasidan foydalanish mumkin. *Gerb chizish uchun namunaviy shakllar*  Bezakli shablonlardan ham foydalanish mumkin.  O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilarning bajargan amaliy ishlari doskada ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi. **“Namoyish” metodi** **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:** 1. Geraldika nima? 2. Ramziy belgi yoki ramziy tasvirlar nima?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash Qo‘shimcha yoki ixtiyoriy vazifa berish “Oilam gerbi” mavzusida kompozitsiya ishlash	Darslikdagi uy vazifasini berish  “Maktab emblemasini yaratish” mavzusida kompozitsiya ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

2-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	San’at festivali, sport musobaqasi logotipini ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga emblema haqida ma’lumot berish va amalda bajara olishini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda badiiy-estetik ko‘nikmalarni, atrof-muhit, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklarga nisbatan qarashlarni shakllantirib borish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda mustaqil ravishda turli emblemalarni ishlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi tasviriy san’atning grafika turini farqlay oladi. **S** – o‘quvchi logotip ishlashda komponovkani to‘g‘ri bajara oladi. **M** – tasvirning xomaki eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – logotip eskizini ishlashda uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi logotip shakli va rangini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **T** – o‘quvchi logotip mavzusi asosida kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, sirkul, chizg‘ich, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.
	Sinf doskasining bezagi	 *Emblema va logotip tasvirlangan ishlardan namunalar* 
	Atamalar	Emblema, logotip
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish. Ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur bo‘lgan asbob-anjom va o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilar oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlar baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Yangi mavzuga bog‘lanadi. 1. Geraldika nima? “Geraldika” so‘zi qaysi tildan olingan va qanday ma’noni anglatadi? 2. Geraldika san’atining asosi nimalardan iborat? 3. Dastlabki gerblar qachon paydo bo‘lgan? 4. Kimlarda va qaysi kasb egalarida shaxsiy gerb bo‘lgan? Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni	**“Siz nimani tanlaysiz?” metodi**



Metodda 3–5 nafar o‘quvchi ishtirok etadi:

1-o‘quvchi o‘zini tanishtiradi, tanlov qanday mavzudaligini tushuntiradi. Tanlovdan olgan taassurotlari va tanlovdagi yutuqlari haqida ma’lumot beradi.

2-o‘quvchi: gapiradigan so‘zlarini katta formatli qog‘ozga yozib ko‘rsatadi.

3-o‘quvchi tanlov emblemasini chizib kerakli ma’lumotni yozib qo‘yadi.

Metodning maqsadi – o‘quvchiga qulay ko‘rinish qanday ekanligini muhokama qilish. Muhokama o‘quvchilarni fikr yuritishga o‘rgatadi. Bu metodda o‘quvchi to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganib boradi.

Yangi mavzu fikr va g‘oyalarni muhokama qilish bilan davom ettiriladi.

Bu qiziq!



Bilasizmi, aziz o‘quvchilar, siz maza qilib iste’mol qiladigan shirinlik logotipini buyuk syurrealist rassom Salvador Dali yaratgan.



Uning aytishicha, logotip rangini tanlashda Ispaniya bayrog‘i ranglaridan ilhomlangan.





Logotip (nemischa “logotype”, yunoncha “logos” – *so‘z,* “typos” – *iz* ma’nolarini anglatadi) – tashkilotlar, tijorat korxonalari yoki jismoniy shaxslarning grafik belgisi yoki emblemasi. Logotip kompaniya korporativ identifikatorining asosiy atributidir.

Logotip dizayni – konsepsiya va g‘oyaning vizual ifodasi bo‘lib, sodda, ayni paytda mantiqiy-kompozitsion jihatdan mukammal grafik tasvir hisoblanadi. Shuning uchun logotiplar original, assotsiativli, ekspressiv, funksional bo‘lishi lozim.


Ikkinchidan, logotip belgi, ramz, qiziqarli shriftlardan tarkib topgan elementlarni birlashtirish vositasida yaratilishi ham mumkin. Masalan, yozuv belgiga aylanishi, shrift mavzuga oid biror-bir grafik shakl bilan boyitilishi mumkin.

Uchinchidan, logotip kompaniyani belgi va ramzlar orqali tanishtiradi. Logotipdagi belgi vizual qabul qilish uchun qulay va tushunarli bo‘lishi kerak. Toshkentda o‘smirlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan xalqaro qilichbozlik chempionati logotipi bunga misol bo‘ladi.

Misol uchun: chempionat hamda musobaqa o‘tkaziladigan joyni bitta logotipda ko‘rsatish.

Logotip asosi sifatida yuqoriga ko‘tarilgan qilich tasviri hamda diqqatga sazovor joylardan biri – Toshkent teleminorasi obrazlaridan foydalanilgan.






Emblemada tafsilotlarga boy murakkab elementlardan ko‘proq foydalaniladi. Logotipda esa sodda element, shakl va ranglardan foydalaniladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash

Yakuniy qism

Amaliy ish






Amaliy mashg‘ulot


TURBOLOGO ilovasi orqali tasviriy san’at festivali logotipini yaratish

1. Ilova orqali (https://turbologo.ru/create-logo) logotip yaratishning birinchi bosqichida bo‘lajak tadbir nomi, slogani (shiori) hamda qaysi sohaga bag‘ishlangani ko‘rsatib o‘tiladi.





2. Keyingi sahifada bo‘lajak logotip uchun rang tanlanadi.



Yakuniy qism		3. Navbatdagi sahifada logotip uchun grafik tasvir tanlanadi. Buning uchun yaratilayotgan logotip qaysi sohaga taalluqli ekanini ko‘rsatib o‘tish talab etiladi. Taqdim etilgan grafik tasvirlardan 5 tagacha tanlash imkoniyati mavjud.  4. Taqdim etilgan variantlardan ma’quli tanlanadi.   5. Tanlagan variant skrinshot tarzida saqlab olinadi. **“Ijodiy ish” metodi** O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazmali baholanib, umumlashtiriladi. **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:** 1. Logotip deganda nimani tushunasiz? 2. Logotipga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat? 3. Logotipning vizual komponentlariga nimalar kiradi?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Maxsus ilovalardan foydalanib korxona uchun logotip va reklama slogani yaratish
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

3-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Tasviriy san’atda oqim va yo‘nalishlar. Impressionizm va postimpressionizm
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga tasviriy san’atdagi oqim va yo‘nalishlar haqida ma’lumot berish, ularda mashhur rassomlar asarlarini tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda tasviriy san’at asarlarini idrok etish ko‘nikmasini, badiiy estetik didni rivojlantirish, ularda yangicha qarashlarni tarbiyalab borish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda jahon va milliy tasviriy san’at asarlarini idrok etish ko‘nikmasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C –** o‘quvchi tasviriy san’atdagi oqim va yo‘nalishlarni biladi va ularni farqlaydi. **S –** o‘quvchi tasviriy san’atning oqim va yo‘nalishlarini ishlashda komponovkani to‘g‘ri bajaradi. **M –** tasvirning xomaki eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A –** tasvir eskizini ishlashda uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R –** tasviriy san’atning oqim va yo‘nalishlari asosida obyektning shaklini va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T –** o‘quvchi tasviriy san’atning oqim va yo‘nalishlari asosida turli mavzudagi kompozitsiyalarni tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Tasavvurimdagi ranglar” metodi “Taqdimot” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi 	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.   
	Sinf doskasining bezagi	 *Impressionizm oqimida tasvirlangan ishlardan namunalar* 
	Atamalar	Impressionizm, postimpressionizm

	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish. Ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun kerak bo‘ladigan o‘quv qurollarini tayyorlash; f) guruhlarga bo‘lish, jamoalarni shakllantirish. Doskaga sana, yangi mavzu yoziladi. Navbatchining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilar oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlar baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Masalan: 1. Logotip deganda nimani tushunasiz? 2. Logotipga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat? 3. Logotipning vizual komponentlariga nimalar kiradi? Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni   	**“Tasavvurimdagi ranglar” metodi** Guruhlar bilan ishlaymiz. Hamma guruhlarga bir xil rasm tarqatiladi. Bo‘yash bosqichigacha bo‘lgan manzara janridagi tasvir tarqatilishi kerak.  Guruhlarga vaqt beriladi. Ular belgilangan vaqt ichida bo‘yash bosqichini birga bajaradilar. Bo‘yash turi, rang tanlashda hech qanday cheklov yo‘q. Metodning maqsadi – o‘quvchi o‘ziga yoqadigan, o‘zi uchun ma’qul bo‘lgan fikrda qolishi va uni taqdimot qilib, fikrini to‘g‘ri tushuntira olishi. Muhokama o‘quvchilarni fikr yuritishga o‘rgatadi. Yangi mavzu fikr va goyalarni muhokama qilish bilan davom ettiriladi. Impressionizm (fransuzcha “impressionnisme” – *taassurot*) oqimi XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Yevropa, asosan Fransiyada yuzaga kelgan. Impressionizm tasviriy san’atning yirik oqimilaridan biri bo‘lib, u an’anaviy dogmatik akademik tasviriy san’atga zid ravishda yuzaga kelgan. 1874-yil 15-aprelda Parijdagi qahvaxonalarning birida “xo‘rlanganlar” (rasmiy tan olinmagan rassomlarni shunday nomlashgan) asarlari ko‘rgazmasi ochilgan. Klod Oskar Monening ko‘rgazmadagi “Quyosh chiqishi oldidagi taassurot” nomli asari “taassurotchilar” atamasining kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Dastlab bir guruh rassomlarning ijodini ta’riflash uchun ishlatilgan bu atama keyinchalik haykaltaroshlik, musiqa, adabiyot va san’atning boshqa turlariga nisbatan







ham qo‘llana boshlangan. Impressionist rassomlarning bosh g‘oyasi toza ranglardan foydalanish bo‘lgan. Rassomlarni tabiatning tez o‘zgaruvchan holatlari – tong, peshin, oqshom, nam va quruq havo, bulutli va quyoshli kun ko‘rinishlari, shaharning jo‘shqin va gavjum lavhalari qiziqtirardi. Naturaning o‘ziga qarab ochiq havoda (plenerda) rasm ishlash impressionistlarning asosiy ijodiy uslubiga aylangan.

Impressionist rassomlar



Pol Sezann



Klod Mone



Eduard Mane



Pyer Ogyust



Edgar Dega



Kamil Pissarro



Alfred Sisley

Yangi mavzuni mustahkamlash

Yakuniy qism

Amaliy ish

Impressionistlar mo‘yqalamdan tashqari maxsus bo‘yoq aralashtiruvchi moslama – **mastixin**dan foydalanib asarlar yaratadilar.









Amaliy mashg‘ulot

Impressionizmdan keyin tasviriy san’atning postimpressionizm oqimi yuzaga keldi. Bu oqim vakillari o‘z asarlarini realistik tasviriy san’at qonuniyatlari asosida yaratsalar-da, asosiy e’tiborni asar kompozitsiyasida ramziylik, falsafiy mazmunni aks ettirishga qaratganlar. Keyinchalik tasviriy san’atda puantilizm, neoimpressionizm, fovizm, kubizm kabi oqim va yo‘nalishlar yuzaga kelgan. Impressionistik san’at turi Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston san’atiga ham ta’sir o‘tkazdi. Xususan, Lev Bure, Oganes Tatevosyan, Pavel Benkov, Zinaida Kovalevskaya, Vladimir Burmakin, Yuriy Tarldikin, Anvar Mirsoatov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev, Shuhrat Abdurashidov, Yanis Salpinkidi, Abdumannon Yunusov, Dilorom Mamedova kabi o‘zbemo‘yqalamonlik rassomlar ijodida impressionizm elementlarini ko‘rishimiz mumkin.

Yangi mavzu amaliy mashg‘ulot bilan mustahkamlanadi. Guruhlarga A3 o‘lchamli qog‘ozga daraxtli manzara tasvirlash vazifasi beriladi.

Impressionizm uslubida ishlangan namunadan nusxa ko‘chirish.





Yakuniy qism		“Taqdimot” metodi asosida har bir guruh chizgan tasvirini taqdimot qiladi. O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazmali baholanib, umumlashtiriladi. **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:** 1. Impressionizm oqimi qachon va qayerda vujudga kelgan? 2. “Impressionizm” atamasi dastlab qaysi rassomning asariga nisbatan ishlatilgan? 3. Impressionist rassomlardan kimlarni bilasiz? 4. Tasviriy san’atning qanday oqim va yo‘nalishlarini bilasiz?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash Darslikdan tashqari qo‘shimcha vazifa Bu kimning asari va u qanday nomlanadi?	1. Darslikdagi impressionizmga oid illyustratsiyalarni tahlil qiling hamda o‘z taassurotlaringiz asosida mustaqil ish bajaring. 2. Impressionist rassomlar o‘z asarlarida qanday manzaralarni tasvirlagan? 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

4-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Puantilizm uslubida manzara ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga puantilizm uslubi haqida ma’lumot berish, ularda mashhur rassomlar asarlarini tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok etish ko‘nikmasi va estetik didni rivojlantirish, ularda yangicha qarashlarni tarbiyalab borish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda jahon va milliy tasviriy san’at asarlaridan nusxa ko‘chirish va mustaqil ishlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi tasviriy san’atning puantilizm uslubida ishlangan asarlarni tahlil qila oladi. **S –** o‘quvchi tasvir ishlashda komponovkani to‘g‘ri bajaradi. **M –** tasvirning xomaki eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – tasvir eskizini ishlashda uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – tasviriy san’atning puantilizm uslubida tasvir bajarishda obyektning shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi turli mavzuda puantilizm uslubida kompozitsiya tuza oladi.

<table>
<tr><td rowspan="6">Tashkiliy qism</td><td>Dars turi</td><td colspan="3">Aralash</td></tr>
<tr><td>Dars metodi</td><td colspan="3">“Tahlil” metodi
“Taqdimot” metodi
“Ijodiy ish” metodi</td></tr>
<tr><td>Darsga oid ko‘rgazmalar</td><td colspan="3">Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar</td></tr>
<tr><td>Dars jihozi
</td><td colspan="3">O‘qituvchi uchun: darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r.
O‘quvchilar uchun: rasm daftari yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.
  </td></tr>
<tr><td>Sinf doskasining bezagi</td><td></td><td>Puantilizm uslubida ishlangan tasvirlardan namunalar</td><td></td></tr>
<tr><td>Atamalar</td><td colspan="3">Puantilizm, neoimpressionizm</td></tr>
<tr><td colspan="4">DARSNING BORISHI</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Tashkiliy qism</td><td>Tashkiliy qism</td><td colspan="3">a) salomlashish;
b) davomatni aniqlash;
d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash;
e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun kerak bo‘lgan o‘quv qurollarini tayyorlash.
Doskaga sana, yangi mavzu yoziladi.
Navbatchining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.</td></tr>
<tr><td>Uy vazifasini so‘rash va baholash</td><td colspan="3">O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.</td></tr>
<tr><td>Avvalgi darsni mustahkamlash</td><td colspan="3">O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Masalan:
1. Impressionizm oqimi qachon va qayerda vujudga kelgan?
2. “Impressionizm” atamasi dastlab qaysi rassomning asariga nisbatan ishlatilgan?
3. Impressionist rassomlardan kimlarni bilasiz?
4. Tasviriy san’atning qanday oqim va yo‘nalishlarini bilasiz?
Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.</td></tr>
</table>

	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **Anvar Mirsoatov** (taxallusi Mirzo Anvar) – manzarachi rassom, rangtasvir ustasi, O‘zbekiston xalq rassomi  U Yevropa san’ati, fransuz impressionistlari, ayniqsa, neoimpressionistlar ijodini o‘rgandi.  Puantilizm uslubida bir qancha asarlar yaratdi.  Anvar Mirsoatov asarlari respublika va xorijiy (AQSH, Yaponiya, Angliya, Shvetsiya, Turkiya va boshqalar) mamlakatlar muzeylari va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadi. 	**“Tahlil” metodi** O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirishdan avval turli oqim va yo‘nalishlarda ishlangan asarlarni reproduksiya asosida yoki slayd ko‘rinishida namoyish qiladi. Har biri o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.   Tahlil asosida kartinalarning chizilish usuli, janri va mazmuni haqida o‘quvchilar fikri eshitiladi. Qo‘shimcha savollar bilan o‘quvchilar fikri to‘g‘ri yo‘naltirib boriladi. Fikrlar umumlashtiriladi va yangi mavzuga bog‘lanadi. O‘qituvchi tayyorlagan slaydning oxirida puantilizm uslubida ishlangan asar chuqurroq tahlil qilinadi. Kartinaning uslubidagi farq o‘rganiladi. Masalan, slaydni kattalashtirib, kartina nuqtalardan iborat ekanini tushuntirish mumkin. Yangi mavzu jahon va o‘zbek rassomlarining puantilizm uslubidagi asarlari namoyishi bilan tushuntiriladi. Puantilizm (fransuzcha *pointillisme, point* – “nuqta”) usulida toza ranglarni nuqta yoki to‘rtburchak shaklida surtish orqali tasvir hosil qilinadi. Puantilizm tasviriy san’atning mustaqil oqimi sifatida 19-asr oxirida Fransiyada paydo bo‘lgan. Pol Sinyak, Jorj Syora, Anri Edmon Kros kabi fransuz rassomlari puantilizm usulida ijod qilgan dastlabki rassomlar hisoblanadi. O‘zbekistonlik rassomlardan xalq rassomi Anvar Mirsoatov, Zuhriddin Islomshikov, Dilyus Mirsalimovlar puantilizm usulida bir qancha asarlar ishlashgan.  *Jorj Syora*  *Pol Sinyak*  *Anri Edmon Kros*











Yangi mavzuni mustahkamlash


Yakuniy qism

Amaliy ish






Amaliy mashg‘ulot



“Taqdimot” metodi asosida o‘qituvchi mavzuni amaliy ko‘rsatib berish maqsadida “Paxta tayoqchali” texnikasida chizib ko‘rsatib beradi. Mavzuni yaxshiroq tushuntirish maqsadida paxta tayoqchalarda manzara ishlash texnikasi bo‘yicha videolavha qo‘yib berish mumkin.

Doskada o‘qituvchi tayyorlab kelgan reproduksiyalardan ham foydalanish mumkin.






Darslikdagi iliq va sovuq ranglardan foydalanib ishlangan puantilizm uslubidagi tasvirlarni o‘quvchilar bilan tahlil qilamiz.

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun manzara janrida, puantilizm uslubida tasvir ishlanadi.

Yakuniy qism







Darslikda berilgan bosqichli ishlangan tasvirga qarab ishlashlari mumkin.

Amaliy ishni bajarishning birinchi bosqichida puantilizm uslubida chiziladigan rasmning ko‘rinishi belgilab olinadi hamda qalamda yengil yordamchi chiziqlar bilan manzara ko‘rinishi tasvirlab olinadi. Keyingi bosqichda ranglarni bir-biriga yaqin tuslarda surtib, tasvirning rangli ko‘rinishi hosil qilib boriladi. Dastlabki bosqichda yengil tarzda och ranglardan manzaraga tagzamin hosil qilib olish ham mumkin. Biroq bu rang manzara puantilizm uslubida ishlanganini bildirish uchun to‘sqinlik qilmasligi kerak. Bu jarayonda yuqoridagi illyustratsiyada tasvirlanganidek, och yuzalarga to‘q ranglar, to‘q yuzaga och ranglar surtish tavsiya etiladi. Faqat manzaradagi elementlar uzoq-yaqinligiga ko‘ra rang tanlash lozim. Shu tariqa manzarada havo perspektivasi ifodalanadi.









O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar.

O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Puantilizm uslubi qachon paydo bo‘lgan va bu yo‘nalishda ijod qilgan qaysi rassomlarni bilasiz?
2. “Puantilizm” atamasining ma’nosi nima?
3. Puantilizm uslubida ishlagan o‘zbek rassomlaridan kimlarni bilasiz?

Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash

Dars o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

Uyga vazifa:

Puantilizm uslubida manzara kompozitsiyasini mustaqil ishlash





Ish joylarini yig‘ishtirish

5-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Puantilizm uslubida natyurmort ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda puantilizm uslubida natyurmort kompozitsiyasini mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok etishni, estetik didni rivojlantirish va yangicha qarashlarni tarbiyalab borish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda jahon va milliy tasviriy san’at asarlarini tahlil qila olish va nusxa ko‘chirish texnikasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi tasviriy san’at turlari, janrlari, oqim va yo‘nalishlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi puantilizm uslubida natyurmort kompozitsiyasini to‘g‘ri tuza oladi. **M –** kompozitsiya chizish jarayonida perspektiva qoidalariga va nisbat o‘lchamlariga rioya qiladi. **A** – chizish jarayonida kompozitsiya elementlarini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **R** – o‘quvchi puantilizm uslubida natyurmort kompozitsiyasini bo‘yashda to‘g‘ri rang bera oladi. **T** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida yorug‘-soya qonuniyatiga amal qiladi.
	Dars turi	Yangi bilim beruvchi
	Dars metodi	“Tahlil” metodi “Charxpalak” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi 	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, paxtali tayoqchalar, mo‘yqalamlar, suv, palitra.   
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 


	Atamalar	Neoimpressionizm, puantilizm, abstraksionizm
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish va ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilar dars uchun kerakli bo‘lgan asbob-uskunalarini tayyorlab hozirlik ko‘radilar. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining axboroti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning uyda bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘tgan dars mavzusi “Tahlil” metodi orqali mustahkamlanadi. **“Tahlil” metodi** O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan turli reproduksiya asarlar ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Masalan: kartinada nima ifodalangani, tasviriy san’atning qaysi turi, janri, oqim va yo‘nalishida chizilganini aniqlash kabi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni   	**“Charxpalak” metodi** asosida. Sinf o‘quvchilari 4 tadan kichik guruhlarga bo‘linadi. Musiqa qo‘yiladi. Musiqa tugashiga qadar aylanma ravishda tasvir chizadilar. Musiqa tugashi bilan tasvir tahlil qilinadi. Tasvir mavzusini natyurmort asosida bajaradilar. Yana vaqt beriladi, barcha o‘quvchilar birgalikda puantilizm uslubida tasvirga rang beradilar (ya’ni nuqtali bo‘yash). Tayyor bo‘lgan tasvirlar xattaxtaga ilib qo‘yiladi, o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Puantilizm uslubida natyurmort ishlash manzara ishlashdan biroz qiyinroq. Chunki manzarada perspektiva qonuniyatiga ko‘ra detallar uzoqlashgani sari kichirayib, ko‘rinishining aniqligi kamayib boradi. Ranglar ham uzoqlashgan sari xiralashib, umumiy havorang tusga aylanib boradi. Natyurmort ishlashda esa perspektiva va ranglar u qadar o‘zgarmaydi. Puantilizm uslubida ishlangan quyidagi rasmni diqqat bilan kuzating. Bunda dastlab tasvir yuzasiga to‘qroq tusdagi rang berib olingan. Shundan so‘ng yumaloq shakldagi rang surtmalari berilgan. Bu usulda rang berishda to‘q tusdagi ranglar ustidan och rangdagi bo‘yoqlar surtish tartibi qo‘llangan. Akvarel bo‘yog‘i shaffof bo‘lgani uchun ustama-ust berilgan ranglar to‘qlashib boradi. Shuning uchun puantilizm uslubida natyurmort ishlashda guash bo‘yoqlaridan foydalanish lozim. Natyurmortda och ranglar oxirgi qatlam sifatida berilgan. U ikkinchi planda bo‘lgani uchun shunday usul qo‘llangan. Puantilizm uslubida natyurmort ishlashda dastlab birinchi qatlam sifatida och sidirg‘a rang berib olish mumkin. Ishning keyingi bosqichlarida har bir buyum va mevalarning rangiga mos ranglar yonma-yon surtilib, bosqichma-bosqich to‘qlashtirib boriladi. Vazifani bajarishning bu bosqichida natyurmort detallarining yorug‘-soya munosabatlariga alohida e’tibor qaratish zarur.

<table>
<tr><td rowspan="3">Asosiy qism</td><td></td><td>   </td></tr>
<tr><td>Amaliy ish  </td><td>Avval o‘quvchilar darslikda berilgan mavzu bo‘yicha amaliy ish bosqichlari bilan tanishadilar.
“Ijodiy ish” metodi    </td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td></td><td>Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:
1. Puantilizm uslubida rasm ishlashda qanday bo‘yoqlardan foydalaniladi?
2. Akvarel yoki guash bo‘yog‘ida puantilizm uslubida rasm ishlash nimasi bilan farq qiladi?
3. Puantilizm uslubida natyurmort ishlashda buyumlarning hajmini ifodalashda nimalarga e’tibor qaratish lozim?</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Mustaqil ravishda uy-ro‘zg‘or buyumlaridan sodda natyurmort tuzing, puantilizm uslubida ishlang.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

1-nazorat ishi

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Puantilizm uslubida manzara (yoki natyurmort) ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda puantilizm uslubida turli xil kompozitsiyalarni mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok etishni, estetik didni rivojlantirish, yangicha qarashlar va estetik madaniyatni tarbiyalab borish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda jahon va milliy tasviriy san’at asarlarini tahlil qila olish va nusxa ko‘chirish texnikasini rivojlantirish. O‘quvchilarni ijodiy izlanish orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrini aniq ifodalashga o‘rgatish, kreativ izlanuvchanlik malakasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C –** o‘quvch**i** tasviriy san’at turlari, janrlari, oqim va yo‘nalishlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi puantilizm uslubida manzara (yoki) natyurmort kompozitsiyasini to‘g‘ri tuza oladi. **M –** kompozitsiya chizish jarayonida perspektiva qoidalariga va o‘zaro nisbat o‘lchamlariga rioya qiladi. **A –** chizish jarayonida kompozitsiya elementlarini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **R –** o‘quvchi puantilizm uslubida natyurmort kompozitsiyasini bo‘yashda to‘g‘ri rang bera oladi. **T –** o‘quvchi bo‘yash jarayonida yorug‘-soya qonuniyatiga rioya qiladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Tasavvur” metodi ”Kim tez” metodi “Taqdimot” metodi “Bu juda qiziq” metodi Noan’anaviy usul va texnikada ishlash
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi 	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam va bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, paxtali tayoqchalar, mo‘yqalamlar, suv, palitra. 

	Sinf doskasining bezagi		*Mavzuga oid repro-duksiyalar*	
	Atamalar	Neoimpressionizm, puantilizm, abstraksionizm		
	DARSNING BORISHI			
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish va ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning dars uchun zarur bo‘lgan o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining axboroti tinglanadi.		
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning uy vazifalari baholanadi.		
	Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash 	O‘quvchilar diqqatini tortish va tasviriy san’atning oqim va yo‘nalishlari, ularning asoschilari haqida so‘rash (rang-shunoslik asoslari bilan birgalikda). **“Tasavvur”, “Kim tez” metodlari**ni qo‘llash. O‘qituvchi rassomlar asarini og‘zaki tasvirlaydi va o‘quvchilar bu tasvir nomi yoki asar muallifini aytadilar. Tez va to‘g‘ri javob berganlar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirib boriladi. O‘quvchilarning uyda bajargan amaliy ishlari baholanadi (o‘tilgan mavzular bo‘yicha rasmlar tekshiriladi, xato va kamchiliklar to‘g‘rilanadi).		
	Darsning maqsadli yoritilishi			
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni “Bu juda qiziq” metodi 	**1-nazorat ishi**. Puantilizm uslubida manzara (yoki natyurmort) ishlash. **Puantilizm uslubi haqida takrorlanadi va mavzu yuzasidan bilimlar mustahkamlanadi.** **“Bu qiziq” metodi** Puantilist rassomlar o‘z asarlarida faqat sof yorqin ranglardan foydalanganlar. Optik ranglar nazariyasi asosida tasvir chizganlar. Bu nazariyaga ko‘ra, turli rangdagi qo‘shni nuqtalar inson ko‘zlari tomonidan bitta rangga aralashtiriladi. Masalan, ma’lum masofadan qaraganda, bir-biriga yaqin joylashgan sariq va ko‘k nuqtalar ko‘zimizga yashil dog‘ sifatida ko‘rinadi. 1886-yilda impressionistlar J. Syora va P. Sinyak asarlari ko‘rgazmaga kelganlarni hayratga soldi. Bu asarlar mayda nuqtalardan iborat bo‘lib, uzoqdan qaraganda kuzatuvchiga ranglar aralash holda ko‘ringan. Bunday tasvirning yorug‘ va soyalari nuqtalarning zich yoki siyrak joylashuvi asosida ko‘rinadi.		

	Amaliy ish   	**“Noan’anaviy usul va texnikada ishlash” metodini** qo‘llash. Puantilizm uslubida barmoqlar bilan ishlash texnikasi:   Puantilizm uslubida paxtali tayoqchalar bilan ishlash texnikasi:   O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan slayd yoki ko‘rgazmalar bilan (dars turiga mos tasvirlarni doskaga ilib qo‘yish mumkin) yangi mavzu tushuntiriladi.
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	“Taqdimot” metodi 	Mavzu “Taqdimot” metodi orqali mustahkamlanadi.   O‘quvchilarni darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko‘ra o‘qituvchi baholab boradi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Puantilizm uslubida ixtiyoriy kompozitsiya ishlab kelish
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

6-dars


Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Kubizm uslubida natyurmort ishlash
	Dars maqsadi Ta'limiy	O'quvchilarga kubizm uslubi haqida ma'lumot berish, ularda mashhur rassomlar asarlarini tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O'quvchilarda tasviriy san'at asarlarini idrok etishni, badiiy estetik didni rivojlantirish va yangicha qarashlarni tarbiyalab borish
	Rivojlantiruvchi	O'quvchilarda jahon va milliy tasviriy san'at asarlarini idrok etish va kubizm uslubida mustaqil kompozitsiya ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish
	STEAM maqsadi	Mavzu **STEAM** dasturidan foydalanib tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. O'quvchilar bir necha xil texnik yo'nalish asosida tasvir bajarish va bo'yashni o'rganadilar.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	"Bir lahzali shovqin" metodi "Namoyish" metodi "Guruhlarda ishlash" metodi "Taqdimot" metodi
	Darsga oid ko'rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, to'garak ishlaridan namunalar
	Dars jihozi 	**O'qituvchi uchun:** xattaxta, namunali ishlar, molbert, guash bo'yoqlari, chizg'ich, mo'yqalamlar to'plami, A3 o'lchamli qog'oz palitra, suv. **O'quvchi uchun:** rasm daftari, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to'plami (T1,T2...Tn, M1, M2, Mn), qalamtarosh, o'chirg'ich, akvarel yoki guash bo'yog'i, maxsus mo'yqalam, suv, palitra, rangli qog'oz va yelim.
	Sinf doskasining bezagi 	*Kubizm uslubida bajarilgan ishlardan namunalar* 
	Atamalar	Kubizm, syurrealizm
	DARSNING BORISHI	
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) doskaga sana va mavzuni yozish. Darsga hozirlik ko'rish. Ish joylarini tayyorlash; e) sinf o'quvchilarini kichik guruhlarga ajratish.

Tashkiliy qism	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash  	**“Bir lahzali shovqin”** metodi asosida o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi. Bunda o‘qituvchi tomonidan o‘tilgan mavzular asosida 4 xil matn tuzib kelinadi. Butun sinfga matnlar tarqatiladi. Bu matnlar so‘zlari soni bir xil bo‘lishi kerak. O‘qituvchi ishorasi bilan barcha o‘quvchilar bir-birlariga qarab matnlarni baravariga o‘qiydilar. O‘qib bo‘linganidan so‘ng, chizma asosida qarshisidagi o‘quvchining matnidagi mavzuni qisqacha gapirib beradilar. 1-o‘quvchi ⇄ 2-o‘quvchi 3-o‘quvchi ⇄ 4-o‘quvchi Endi oldindagi o‘quvchilar orqadagi o‘quvchilar bilan matn almashadilar, yana shovqin hosil qilib o‘qiydilar. Yana chizma asosida, bir-biriga diagonal joylashgan o‘quvchilar matndagi mavzuni qisqacha gapirib beradilar. 1-o‘quvchi ⤫ 2-o‘quvchi 3-o‘quvchi ⤫ 4-o‘quvchi O‘quvchilarning qiziqishini yanada oshirish maqsadida notanish matn (yangi mavzu bo‘yicha) tarqatiladi. Yana chizma asosida shovqinli holat hosil qiladilar va bir-birlarining matnlaridan eslab qolganlarini qisqacha gapirib beradilar. Jarayon yangi mavzuga bog‘lanadi. Oldinigi mavzu takrorlab olinadi. O‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilar chizgan rasmlar baholanadi. O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni Amaliy ish 	**“Namoyish” metodi** O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan slayd va reproduksiya asarlari namoyish qilinib, dars mavzusi tushuntiriladi. Kubizm (fransuzcha “kub” so‘zidan) XX asr boshlarida yuzaga kelgan yo‘nalish bo‘lib, u “geometrik shakllardan foydalanish”, “asar yaratishda burchak uslubi bilan uch o‘lchamda tavsiflash” degan ma’noni anglatadi. Pol Sezan asarlaridagi shakl bilan tajribalar kubizmning shakllanishiga bevosita katta ta’sir ko‘rsatdi.  *Pol Sezan*  

Asosiy qism













Keyinchalik Pablo Pikasso uning asarlaridan ilhomlanib, kubizm yo‘nalishidagi birinchi asari – “Avignyun qizlari” kartinasini yaratdi.


XX asr boshlarida Fransiyada yuzaga kelgan ushbu uslubda ijod qilgan dastlabki rassomlar sifatida J. Brak, P. Pikasso, F. Lete, R. Beloni tilga olinadi.

Ko‘pgina manbalarda Pol Sezan, Jorj Brak, Pablo Pikasso kubizm asoschilari sifatida e’tirof etiladi.



Pablo Pikasso





Jorj Brak



Kubistlar obyekt ifodalagan eng oddiy geometrik shakllarni ko‘rishga intildilar.

Narsalar haqidagi g‘oyalarni yanada to‘liqroq ifoda etish uchun ular an’anaviy nuqtayi nazarni optik illyuziya sifatida rad etishdi.

Shaklni parchalash va bir nechta rasm turlarini bir rasm ichida birlashtirish orqali obyektga hamma narsani qamrab oluvchi obraz berishga intildilar.

Bunda rassom butun tasvirni geometrik shakllarga “bo‘laklash” orqali buyum haqidagi tasavvurni kengaytirishga intiladi.






S – science (tabiiy fanlar)
“Guruhlarda ishlash” metodi








Asosiy qism		O‘qituvchi tayyorlab kelgan kartochkalar guruhlarga tarqatiladi. Berilgan vaqt mobaynida guruhlar tasvirlarga qarab tabiiy fanlar bilan bog‘liqlikni topadilar. Guruhlar topshiriqni tez va to‘g‘ri bajarishiga qarab baholanadi.
	Amaliy ish     	**T – technology (texnologiya)** Amaliy ish jarayoni: Guruhlarga turli shablonlar beriladi. Shablonlar kompozitsiyasi jamoa bo‘lib ishlanadi. Origami usulida kubizm yo‘nalishida kompozitsiya ishlanadi.  **E – engineering (muhandislik)** “**Loyihalash**” metodi Har bir guruhga kubizm yo‘nalishida o‘zi yashayotgan shahardagi biror bino tasvirini ishlash topshiriladi. Berilgan topshiriq guruhlarda bir xil bo‘lib qolmasligi nazorat qilinadi. Avval bino eskizi chiziladi, so‘ng unga rangli qog‘ozlar yopishtiriladi.   **“Taqdimot” metodi** Guruhlar tayyorlagan kompozitsiyalarini taqdimot qiladilar. **A – art (san’at)** O‘quvchilar kubizm uslubida tasvir bajaradilar.   **M – math. (matematika)** Nisbatlar asosida kubizm uslubidagi kompozitsiyani to‘g‘ri bajarish tushuntiriladi.




Kubizm uslubida natyurmort tasvirini geometrik shakllarga bo‘lib olishda turli usullar – gorizontal va vertikal, diagonal chiziqlar o‘tkazish, aylanalar chizish orqali har xil shakllar hosil qilish mumkin. Muhimi, har bir geometrik shakl buyumning shakli, yorug‘ va soya qismlarini ifodalash uchun mos bo‘lishi lozim.






Yangi mavzuni mustahkamlash


Yakuniy qism





Amaliy mashg‘ulot


Kubizm uslubida natyurmort ishlashning yana bir xususiyati unda dekorativ elementlardan ham foydalanishdir. Kubizm uslubida natyurmort ishlashda buyumlarning shakliga e’tibor bergan holda turli yo‘nalishdagi chiziqlar yordamida geometrik shakllar hosil qilish, ularga kontrast ranglar berish kabi usullardan foydalanish mumkin.
















Yakuniy qism		  Mavzu asosida savol-javob o‘tkaziladi, faol guruh rag‘batlantiriladi. 1. “Kubizm” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima? 2. Tasviriy san’atning kubizm yo‘nalishi qachon va qayerda vujudga kelgan? 3. Kubizm uslubida dastlabki tasviriy san’at asarlarini yaratgan rassomlardan kimlarni bilasiz? O‘quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Mustaqil ravishda kubizm uslubida natyurmort ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	


7-dars

	Dars mavzusi	Grafik dasturlar yordamida kitob muqovasi dizaynini ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda grafik dasturlar yordamida tasvir bajarish ko‘nikmasini mustahkamlash. Turli dasturlar haqida ma’lumot berish va amalda bajara olish qobiliyatini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarning jamiyatda bo‘layotgan yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini va tasvir bajarishdagi yangi dasturlarga qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘naltirib borish

Tashkiliy qism	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda grafik dasturlarda mustaqil ravishda tasvir ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi: 	**C –** o‘quvchi grafik dastur turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi kompyuterda tasvirni komponovka qila oladi. **M –** dastur oynasidagi yordamchi elementlar bilan berilgan mavzu eskizini bajara oladi. **A** – o‘quvchi tasvirni ishlashda elementlarni ketma-ketlikda to‘g‘ri tanlay oladi. **R** – tasvirni bajarishda “Bosh menyu”, “Standart panel”, “Xususiyatlar paneli”, “Asboblar paneli”ni to‘g‘ri ishlata oladi. **T** – o‘quvchi “Ranglar palitrasi” asosida rangli kompozitsiya eskizini tuza oladi.
	Dars turi	Aralash (suhbat asosida amaliy mashg‘ulot)
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid videorolik, slaydlar
	Dars jihozi (maktabning AKT sinfxonasidan foydalaniladi)	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, video va slayd namoyishi uchun multimedia ekrani, internet (wi-fi) tarmog‘i **O‘quvchilar uchun:** darslik, kompyuter, internet (wi-fi) tarmog‘i
	Sinf doskasining bezagi	 *CorelDRAW dasturida ishlangan tasvirlardan namunalar* 
	Atamalar	CorelDRAW, vektor, panellar
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur bo‘lgan o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tgan dars haqida so‘raladi. Masalan: 1.“Kubizm” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima? 2. Tasviriy san’atning kubizm yo‘nalishi qachon va qayerda vujudga kelgan? 3. Kubizm uslubida dastlabki tasviriy san’at asarlarini yaratgan rassomlardan kimlarni bilasiz? Avvalgi dars mustahkamlanib, yangi mavzuga bog‘lab o‘tiladi.


	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni    	**“Namoyish” metodi** O‘qituvchi tayyorlab kelgan, yangi mavzu asosidagi slayd yoki videorolik namoyish qilinadi. Birinchi navbatda o‘qituvchi elektron doskada CorelDraw dasturini kompyuterlarga qanday yuklab olishni tushuntiradi. Yangi oyna ochiladi, maydon yaratiladi va panellar yordamida ishlash tushuntirib boriladi. Zamonaviy kitob grafikasiga xos xususiyatlardan biri tasvirni grafik dasturlar yordamida ishlashdir. Shunday dasturlardan biri CorelDRAW vektor grafik muharriri hisoblanadi. Bu dasturda ko‘plab effektlar to‘plami mavjud. Dastur interfeysining qulayligi tufayli qisqa vaqtda uning asosiy imkoniyatlari haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Vektorli tasvir deb faqat yaqqol ajratilgan nuqta (tugun)lar va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlardan tashkil topgan tasvirga aytiladi. Vektor grafikasida tasvir vektor deb nomlanuvchi chiziqlar asosida qurilib, ularga turli parametrlar – rang, chiziq qalinligi va joylashuvi kabi xususiyatlarni berish imkoniyati kitob bezovchi rassom uchun qulaylik yaratadi. Vektorli tasvir o‘lchami o‘zgartirilganda ham o‘z sifatini saqlab qoladi hamda alohida obyektlarni tahrirlash imkonini beradi. CorelDRAW dasturining ustunliklaridan biri uning qulay va oson sozlanuvchi interfeysidir. Dastur oynasi ko‘pgina yordamchi elementlardan tashkil topgan. Dasturni kompyuterga o‘rnatganda quyidagi belgi ko‘rinadi. Mazkur belgi ustiga sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish orqali dasturga kiriladi.  *CorelDRAW dasturi oynasining umumiy ko‘rinishi* Kitob grafikasi bo‘yicha kitob muqovasi eskizini ishlashda “Bosh menyu”, “Standart panel”, “Xususiyatlar paneli”, “Asboblar paneli”, “Ranglar palitrasi” kabi elementlardan foydalaniladi. Bu panellardan qanday foydalanish elektron doskada tushuntirib beriladi.
	Amaliy ish	**“Ijodiy ish” metodi** O‘qituvchi darslikda berilgan “CorelDRAW dasturida 7-sinf “Tasviriy san’at” darsligi muqovasi dizaynini loyihalash” mavzusini amaliy ko‘rsatib tushuntiradi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birga ketma-ketlikda bajaradilar.






Muqovaning umumiy o'lchamini belgilash

Asboblar panelidagi kvadrat shaklidan foydalanib ixtiyoriy kvadrat chiziladi. Xususiyatlar panelida o'lcham qo'yish funksiyasiga kirib, kerakli o'lcham (418x300 mm) qo'yiladi.







Tasvir hosil qilinadigan yuzani belgilash

Ushbu amalni qaytarib, 378x260 mm o'lcham belgilanadi. Hosil bo'lgan birinchi kvadratni sichqoncha yordamida belgilab, klaviaturadan "Shift" tugmasini bosib turgan holatda ikkinchi kvadrat chizig'i ustiga sichqonchani olib borib, chap tugmasi bosiladi. Natijada ikkala kvadrat belgilanadi. So'ng klaviaturadan "C" va "E" ("Center" – markaz) harflari ketma-ket bosilsa, katta o'lchamdagi kvadrat markazida kichik o'lchamdagi kvadrat avtomatik aniqlikda joylashadi.



Katta o'lchamdagi kvadrat kitob muqovasi hisoblanadi. Kvadrat markazidan vertikal chiziq o'tkazib, teng ikkiga ajratiladi. Markazdan ikki tomonga 15 cm dan teng masofa qoldiriladi. Kvadratning o'ng tomoni kitob muqovasining old qismi, chap tomoni esa orqa qismi bo'ladi. Kichik kvadrat kitob muqovasidagi yozuvlar va rasmlarni chiroyli joylashtirish uchun chegara vazifasini bajaradi.







Kitob muqovasining old va orqa tomonlarini belgilash










		Kitob muqovasining old va orqa tomonlarini belgilash. Keyingi bosqichlarda kitob muqovasini bo‘yash, rasm qo‘yish, turli effektlarni qo‘llash, yozuv shriftlari bilan ishlash jarayonlari bajariladi.  *Muqova uchun rang va raqam tanlash*  *Kitob muqovasining yakuniy varianti*
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism		**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:** 1. CorelDraw qanday dastur? 2. Vektor nima? 3. Vektorli grafika bugungi kunda qaysi sohalarda keng qo‘llanmoqda? 4. CorelDraw dasturida kitob muqovasi qanday ketma-ketlikda ishlanadi? O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilarning bajargan amaliy ishlari baholanib, umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	CorelDraw dasturida kitob muqovasi variantini ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

8-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Kitob illyustratsiyasi
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga kitob grafikasi san’ati, uning turli badiiy-grafik bezak elementlari haqida tushuncha berish, ulardan namunalar o‘rganish va tahlil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda kitobga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg‘usini o‘stirish, insoniyat tarixida kitobning o‘ziga xos o‘rnini tushuntirib berish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning kitob grafikasi elementlari haqida olgan bilimlarini rivojlantirish, shu sohaga tegishli tasvirlarni ishlash va ularga rang berish malakasini oshirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi kitobat san’ati haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. **S –** o‘quvchi kitobat san’atining turli badiiy-grafik elementlarini bajara oladi. **M –** o‘quvchi illyustratsiya elementlarini nisbat qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o‘quvchi illyustratsiyani ishlash jarayonida uning elementlarni bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi illyustratsiya shakli va rangini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **T** – o‘quvchi tasvirning badiiy bezagini bera oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Klaster” metodi “Atamalar bahsi” metodi “Bu juda qiziq” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i (guash), suv idish, mo‘yqalam, palitra
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Muqova, super muqova, forzas, titul varag‘i, shmutstitul, illyustratsiya, muqaddima, xotima, bosh harf
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish va ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Oldingi dars yuzasidan berilgan uy vazifasi tekshiriladi va baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘tgan dars savol-javob yoki test savollari orqali mustahkamlab olinadi. Mavzular o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni “Namoyish” metodi  “Klaster” metodi   Abduqahhor Mahkamov 1947-yilda tug‘ilgan. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik kolleji hamda hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o‘qigan. 1982–1992-yillarda Abduqahhor Mahkamov Cho‘lpon nomidagi nashriyotda bosh rassom sifatida faoliyat ko‘rsatib, bolalar uchun badiiy bezakli kitoblar nashriga salmoqli hissa qo‘shgan.	**Kitob illyustratsiyasi** O‘quvchilarga “Namoyish” metodi orqali kitobat san’ati haqida malumot beriladi. Insonning butun umri davomida eng ko‘p hamrohi bo‘ladigan narsa bu – kitobdir. U bizga bilim beradi, dam olishda, bo‘sh vaqtni ko‘ngildagidek o‘tkazishda yordamga keladi. Bir so‘z bilan aytganda, kitob insonning ma’naviyatini oshiradi. **Kitobat san’ati** – Sharq madaniyatining eng qadimiy va nodir turlaridan biri. Kitob Sharqda qadimdan izzat-ikromda bo‘lgan. Unda Vatan va millat tarixi, ilm-fan sirlari, kishilarning falsafiy va estetik qarashlari, turmush tarzi, orzu-umidlari o‘z aksini topgan. Sharq kitoblarini sharqona donolik, ma’naviy barkamollik timsoli sifatida e’tirof etadilar.  O‘qituvchi kitobat san’atining badiiy-grafik elementlariga izoh beradi. **Illyustratsiya** lotincha “illustratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yoritish”, “ko‘rgazmali tasvirlash” ma’nosini anglatadi. Illyustratsiyalar dastlabki qo‘lyozma kitoblarda Yunoniston, Rimda, keyinchalik esa Qadimgi Misr, Xitoy va O‘rta Osiyoda yaratilgan. O‘rta Osiyoda yaratilgan qo‘lyozma asarlarga ishlangan illyustratsiyalar miniatyura shaklida bo‘lgan.   **Illyustratsiya** rassomning kompozitsion mushohadasi, tasviriy mahoratini to‘la namoyon etish uchun imkon yaratib beruvchi badiiy-grafik elementdir.

	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Rassomning ko‘pgina asarlari O‘zbekiston davlat san’at muzeyida, AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlar san’at ixlosmandlarining shaxsiy kolleksiyalarida saqlanadi. Abduqahhor Mahkamovning “Vatan tarixi”, “Buyuk ipak yo‘li” nomi ostidagi turkum grafik asarlari O‘zbekiston tasviriy san’atining nodir namunalari sifatida e’tirof etiladi. “Jahon xalqlari ertaklari” turkumidagi illyustratsiyalarida rassom o‘zining ijodiy mahoratini ko‘rsatgan.  “Rasmlarda tarixiy lavhalar”	Kitobat san’ati tarixidan ma’lumki, bir asarga bir nechta rassom turli yillarda qayta-qayta murojaat etib, har safar o‘ziga xos yangilik kiritishi mumkin. Kitob nashr etish texnologiyalari, grafika san’ati rivoj topib, illyustratsiya yaratishning xilma-xil usul va texnikalari kashf etildi. Kitob bezovchi rassomlar illyustratsiya ishlashning gravyura, linogravyura, ksilografiya, ofort kabi texnikalaridan foydalanganlar.   Kitoblarga ishlanadigan illyustratsiyalar o‘z vazifasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Eng ko‘p illyustratsiyalar adabiy asarlarga ishlanadi. Bu turdagi illyustratsiyalar ham manbasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: tarixiy va zamonaviy manbalarga ishlangan illyustratsiyalar. Tarixiy illyustratsiyalardan namunalar:   Zamonaviy rassomlar tomonidan tarixiy mavzularga ishlangan illyustratsiyalar ham tarixiy voqeliklar talqiniga oid bo‘ladi. Kitob bezovchi rassom Abduqahhor Mahkamovning “Rasmlarda tarixiy lavhalar” kitobiga ishlagan illyustratsiyalari shunday ishlar sirasiga kiradi. **Eslatma:** darsliklar, izohli lug‘at va ensiklopediyalarga ishlangan tasvirlar ham kitob illyustratsiyalari hisoblanadi. Ular asosan ilmiy va texnikaviy mazmun kasb etadi.
	Amaliy ish 	Eskizlar, badiiy asar syujeti asosida illyustratsiya ishlash. O‘quvchilarga amaliy ish bosqichlari ko‘rsatilib, tushuntirib beriladi.

	“Ijodiy ish” metodi  	   
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	“Atamalar bahsi” metodi 	O‘quvchilarga kitobat san’atining badiiy-grafik elementlari nomi, ya’ni mavzuga oid atamalar yozilgan kartochkalar beriladi. Kartochka olgan o‘quvchi undagi atamaga izoh beradi. **Mustahkamlash uchun umumiy savollar:** 1. “Illyustratsiya” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? 2. O‘zbekistonlik kitob bezovchi rassomlardan kimlarni bilasiz? 3. Kitob illyustratsiyalari qanday turlarga bo‘linadi?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Dars umumlashtiriladi, faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

2-nazorat ishi

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Nazorat ishi. Adabiyot darslarida o‘rganilgan mavzulardan biriga illyustratsiya ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga berilgan mavzu bo‘yicha illyustratsiya ishlash usullarini o‘rgatish va ularda mavzu bo‘yicha tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	Badiiy asar orqali o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirish, ularni ish joylarini to‘g‘ri tashkil qilish va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda tasvirni bo‘yash malakasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C –** o‘quvchi kompozitsiya turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha badiiy asarga illyustratsiyani to‘g‘ri chiza oladi. **M –** o‘quvchi illyustratsiya chizish jarayonida perspektiva qoidalari va o‘zaro nisbat o‘lchamlariga rioya qiladi.

Tashkiliy qism		**A –** o‘quvchi chizish jarayonida tasvir elementlarini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **R** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida tasvir elementlariga to‘g‘ri rang bera oladi. **T** – o‘quvchi bo‘yash jarayonida yorug‘-soya qonuniyatiga amal qiladi.
	Dars turi	Aralash, integratsiya (adabiyot fani bilan)
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Mening loyiham” metodi “Atamalar bahsi” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalam, suv, palitra
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar*
	Atamalar	Illyustratsiya, komponovka, forzas, miniatyura
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish va ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Oldingi dars yuzasidan berilgan uy vazifasi tekshiriladi va baholanadi. Baholar izohlanadi. Topshiriqni namunali bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. 1. Kitobat san’atining badiiy-grafik elementlarini ayting. 2. Illyustratsiya nima? Javoblar tinglanadi va umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
	Yangi mavzu bayoni **Integratsiya darsi**	**Integratsiya darsining mazmun-mohiyati** Tasviriy san’at darslarida badiiy asarga illyustratsiya ishlash o‘quvchilarning ma’naviy bilimlarini shakllantiradi. Bunday darslarni adabiyot fani bilan bog‘liqlikda o‘tish maqsadga muvofiqdir. Illyustratsiya ishlash jarayonida badiiy asar tahlilidan maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, ulardagi kitobxonlik qobiliyatlarini o‘stirishdir.

Asosiy qism



“Namoyish” metodi



O‘qituvchiga eslatma:

O‘quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o‘stirish orqali ta’lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifodalangan voqealarga munosabat uyg‘otadi.

O‘quvchi mutolaa qilgan asari uchun illyustratsiya ishlash jarayonida asarni tahlil qiladi, aqlni charxlaydi va asar zamiridagi ma’noni chuqur o‘rganishga kirishadi.

O‘qituvchi yangi mavzuni “Namoyish” metodi orqali slaydlar yordamida bayon qiladi.

3-nazorat ishi. Adabiyot darslarida o‘rganilgan mavzulardan biriga illyustratsiya ishlash

O‘qituvchi:

O‘quvchilar, siz bilan o‘tgan darsimizda kitobat san’ati va uning badiiy-grafik elementlari, illyustratsiya haqida suhbatlashdik va shu mavzu yuzasidan amaliy ish bajarishni o‘rgandik.

Illyustratsiyalarning ta’sirli chiqishi va badiiy asar g‘oyasi muallif xohlaganday ifodalanishi uchun badiiy asarni bir necha bor o‘qib chiqish va chuqur mulohazalar asosida uning eng kulminatsion nuqtalariga illyustratsiyalar yaratish tavsiya etiladi. Badiiy asardagi qahramon obrazini gavdalantirishda unga berilgan ta’riflar, uning asardagi xatti-harakatlari, ichki kechinmalarini o‘rganish kerak. Shu asosida uning xarakter xususiyatlari yuzi va jismoniy ko‘rinishida o‘z aksini topishi kerak. Kitobxon badiiy asarni o‘qib, illyustratsiyasida o‘zining obrazini topa olishi lozim.

Badiiy asarda barcha qismlar, ya’ni g‘oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Syujet asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi.

Amaliy ish



“Mening loyiham” metodi



“Mehr va Suhayl”

Amaliy ishda o‘quvchilar adabiyot darslarida o‘tilgan mavzular asosida illyustratsiya ishlaydilar.

“Mening loyiham” metodi

O‘quvchilar mustaqil ravishda o‘zlari mutolaa qilgan asarlarga illyustratsiya ishlaydilar. Illyustratsiya ishlashdan avval bir nechta eskiz yaratadilar va eng ma’qul variantini davom ettiradilar.

Masalan, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi, Saida Zunnunovaning “Mening Vatanim” she’ri, Mirmuhsinning “Me’mor” romani, Alisher Navoiyning “Mehr va Suhayl” (“Sab’ayi sayyor”), Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” kabi asarlarga illustratsiya ishlash mumkin.

Eslatma: miniatyura usulida illyustratsiya ishlash qoidalari:

1.Yaqindagi narsalar qog‘oz pastiga, uzoqdagi narsalar qog‘ozning yuqori qismiga chiziladi.

2. Narsa va odamning rasmini chizishda yaqindagi va uzoqdagi o‘lchovlar o‘zgarmaydi.

3. Perspektiva qoidalariga amal qilinmaydi.





Amaliy ish so‘ngida o‘quvchilarning ishlari tahlil qilinadi va baholanadi.

	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	“Atamalar bahsi” metodi 	O‘qituvchi o‘quvchilarga kartochkalar tarqatadi. Kartochkada mavzuga oid atamalar yozilgan bo‘ladi: muqova, supermuqova, forzas, titul varag‘i, shmutstitul, illyustratsiya, muqaddima, xotima, bosh harf. Kartochka olgan o‘quvchi undagi atamani izohlab beradi. Yangi mavzu umumlashtiriladi. Dars davomida faol bo‘lgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. O‘quvchilar baholanadi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Ixtiyoriy badiiy asarga illyustratsiya ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

9-mavzu

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Shriftli-grafik kompozitsiya		
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga kitobat san’atining badiiy-grafik elementlari haqida tushuncha berish. Har xil shrift turlarida yozish bosqichlarini o‘rgatish		
	Tarbiyaviy	Grafik kompozitsiya asosida o‘quvchilarning bilimlarini oshirish, shu yo‘nalishda tasvir ishlash amaliy malakasi va texnikasini o‘rgatish		
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda badiiy shriftlardan mustaqil kompozitsiya hosil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish		
	STEAM maqsadi 	Mavzu **STEAM** dasturidan foydalanib tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. Bir necha xil texnik yo‘nalish asosida tasvir bajarish va bo‘yashni o‘rganadilar.		
	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Maxfiy konvert” metodi “Modellashtirish” metodi “Taqdimot” metodi “Simmetriya” metodi		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, to‘garak ishlaridan namunalar		
	Dars jihozi 	**O‘qituvchi uchun:** doska, namunali ishlar, molbert, guash yoki tush bo‘yoqlari, mo‘yqalamlar to‘plami, A3 o‘lchamli qog‘oz, suv. **O‘quvchi uchun:** rasm daftari, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, chizg‘ich, rangli qalam va flomasterlar.		
	Sinf doskasining bezagi		*Shriftli-grafik kompozitsiya usulida bajarilgan ishlardan namunalar*	

	Atamalar	Shrift, grafit qalam
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) doskaga mavzuni yozib, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘tilgan mavzuni takrorlash: 1. Illyustratsiya qanday ma’noni anglatadi? 2. O‘zbekistonlik kitob bezovchi rassomlardan kimlarni bilasiz? 3. Kitob illyustratsiyalari qanday turlarga bo‘linadi? O‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilarning ishlari baholanadi. O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **“Bu qiziq! “metodi** Sharqda kitob bosib chiqarish paydo bo‘lgunga qadar kitoblar qo‘lyozma shaklda tayyorlangan. Nusxa ko‘paytirish bilan xattotlar shug‘ullangan. Ular guruh bo‘lib saroylarda, amaldorlar huzurida kitob nusxalarini tayyorlashgan. Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Hisraviy, Munis Xorazmiy va Ahmad Donish o‘z davrining mashhur xattotlari bo‘lgan. Bizgacha yetib kelgan manbalarga ko‘ra, Abu Ali Ibn Sino ham ustozlarining qo‘lyozma asarlarini ko‘chirib beruvchi xattot bo‘lgan ekan. Keyinchalik soha rivojiga musavvir Kamoliddin Behzod va Tabriz maktabi musavvirlari katta hissa qo‘shgan.	**S – science (tabiiy fanlar)** **“Guruhlarda ishlash” metodi** asosida **“Maxfiy konvert”** metodi asosida yangi mavzuga kirib boramiz. Katta konvertga o‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan kartochkalar (turli usullarda yozib, kesilgan harflar) guruhlarga tarqatiladi. O‘quvchilarga biror matn yoki so‘z aytiladi. Berilgan vaqt mobaynida guruhlardan kartochkalardagi harflar orqali matnni chiroyli qilib yozish talab etiladi.  Kichik konvertga turli mamlakatlardagi binolar rasmi solib qo‘yiladi. Guruhlar shu mamlakatga mos shrift tanlab, davlat yoki binoning nomini yozadilar. Bu metodda guruhlar orasida maxfiylik bo‘lishi talab etiladi. Guruh tez va to‘g‘ri bajarishiga qarab baholab boriladi. “Kalligrafiya” yunoncha so‘z bo‘lib (“kallos” – *chiroyli, go‘zallik,* “grapho” – *yozish*), “chiroyli yozish” degan ma’noni bildiradi. Har bir hududning o‘ziga xos kalligrafiyasi mavjud: Yevropa kalligrafiya san’ati, sharq kalligrafiyasi (xitoy va yaponiya kalligrafiyasi), arab kalligrafiyasi, hind va gruzin kalligrafiya san’ati va hokazolar. Har bir hududning qadimiy kitoblarida kalligrafiya san’ati namunalarini uchratishimiz mumkin. Arab kalligrafiyasi asosan xattotlik va kitobat san’atidan iborat. “Xattot” so‘zi arab tilida “husnixat yozuvchi” degan ma’noni bildiradi. Kitob va qo‘lyozmalardan tashqari buyumlar va me’moriy inshootlarga ham bezak berishda xattotlik san’ati katta rol o‘ynagan. Zamonaviy kalligrafiyadan kalligrammalar chizishda foydalaniladi. Kalligramma deb so‘zlar yoki matnlar bilan yaratilgan tasvirga aytiladi.

Asosiy qism

Bizgacha yetib kelgan “Boburnoma”, “Xamsa”, “Zafarnoma” kabi bir nechta mashhur kitoblarda ko‘rishimiz mumkinki, xattotlarning o‘ziga xos kalligrafiya usullari sharq kitobat san’atini yuksaklikka olib chiqqan.



Yevropada taxminan bundan 800 yil avval kalligrafiya ta’lim sohasiga fan sifatida kiritilgan. Bolalarga o‘qishdan oldin, 3 yoshdan boshlab chiroyli yozishni o‘rgatish shart bo‘lgan.

Hozirgi kunda butun dunyoda harflarga bezak berishda lettering usuli qo‘llanadi.

Lettering inglizcha “letter” so‘zidan olingan bo‘lib, “harf”, “belgi” degan ma’noni anglatadi. Letteringda harflarni badiiy shriftlarga aylantirib yoziladi. Bunda harflarning bezagini cheksiz kashf etish mumkin.







Shrift (nemischa *schrift* – *schreiben* – “yozmoq”) – yagona stilistik va kompozitsion tuzilishga ega, ma’lum o‘lcham va naqshli belgilar to‘plamini tashkil etuvchi harf va belgilarning grafik chizmasi.

Shrift kompozitsiyasi bu – shriftli grafik asarning kompozitsion qurilishi yoki tuzilishi bo‘lib, bunda barcha asosiy qismlarning qiziqarli joylashishi va o‘zaro bog‘lanishi tushuniladi. Shriftli kompozitsiyaning elementlari quyidagilardir: alohida shrift belgilari (harflar, raqamlar, ularning elementlari, tinish belgilari), so‘zlar, so‘z birikmalari, matnning alohida satrlari. Shrift asosida asosiy kompozitsiya qonuniyatlari (ritm, kontrast, bo‘shliq), shuningdek, estetik tamoyillar (harf obrazi, uslub) o‘rganiladi. Shriftli kompozitsiyalar ham bir nechta turlarga bo‘linadi.









Amaliy ish

STEAM

T – technology (texnologiya)

Amaliy ish: “Shablon texnika”sida ishlash

Guruhlarga turli shablonlar (geometrik shaklda) beriladi. Shablonlar va badiiy shriftlar bilan kalligramma kompozitsiyasini jamoa bo‘lib ishlaydilar. Avval sodda shakllarga, so‘ng badiiy tasvir ichlariga kalligrammaning chiziqli tasvirini ishlaydilar.





Asosiy qism





E – engineering (muhandislik)

“Loyihalash” metodi

Har bir guruhga turli shahardagi binolar tasviri asosida (binolar nomi bino ichiga) qiziqarli shriftlar bilan yozish topshiriladi. Berilgan topshiriq ijrosi guruhlar orasida bir xil bo‘lib qolmasligi nazorat qilinadi.









A – art; san’at

Kalligrammalar eskizini avval qalamda tasvirlab olamiz. Keyin tasvirdagi matn va fon bo‘yaladi.







Bundan tashqari, nafaqat bitta fonda, balki rangtasvir kompozitsiyasi bilan aralash ishlatishimiz mumkin.

M – math (matematika)

Nisbatlar asosida kompozitsiyani to‘g‘ri bajarish tushuntiriladi. O‘qituvchi mavzuning matematik joylashtirilishini alohida doskada chizib ko‘rsatib beradi.

Bu ko‘rinishni o‘quvchi yaxshi o‘zlashtirib olsa, turli egri chiziqli tasvirlar ichiga bemalol kalligramma chiza oladi.

“Taqdimot” metodi

Guruh a’zolari tayyorlagan shriftli tasvirlar yoki kalligrammalar taqdimot qilinadi.

	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism		Mavzu asosida savol-javob qilish, faol guruhni rag‘batlantirish. O‘tilgan mavzu yuzasidan nazorat savollari: 1. Shrift deganda nimani tushunasiz? 2. Shriftli kompozitsiya nima? 3. Shriftli kompozitsiyaning qanday turlarini bilasiz? 4. “Kalligramma” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? Barcha javoblar umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash  	Harflardan so‘z ma’nosini anglatuvchi obraz yaratish. Har xil kattalik va turli uslubdagi shriftlardan me’moriy obida obrazini yaratish 
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

10-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Kollaj texnikasida tasvir ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda kollaj texnikasida tasvir bajarish ko‘nikmasini shakllantirish. Turli materiallar, jurnal va gazetalar sahifalaridagi tasvirlardan foydalanib kompozitsiya ishlash
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, tasviriy san’atning turli uslub va yo‘nalishlariga o‘quvchilarning qiziqishini oshirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda kollaj texnikasida mustaqil ravishda tasvir ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi:  	**C –** o‘quvchi kollaj turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi tasvirni to‘g‘ri komponovka qilib, ishlay oladi. **M –** berilgan mavzu asosida tasvir eskizini to‘g‘ri tanlay oladi. **A** – tasvir ishlashda mavzuga mos turli materiallarni to‘g‘ri tanlay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi berilgan mavzu asosida qiziqarli kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash (suhbat asosida amaliy mashg‘ulot)

Tashkiliy qism	Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Qiziqarli klaster” metodi “Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, A3 o‘lchamli qog‘oz, rangli qalam va bo‘yoqlar to‘plami, rangli gazeta va jurnal, yelim va qaychi. **O‘quvchilar uchun:** qalam, A3 o‘lchamli qog‘oz, rangli qalam va bo‘yoqlar to‘plami, rangli qog‘oz, gazeta va jurnal, yelim va qaychi, o‘chirg‘ich, rasm daftari.  
	Sinf doskasining bezagi	 *Kollaj texnikasida ishlangan tasvirlardan namunalar* 
	Atamalar	Kollaj, kvilling, dekupaj, skrapbuking
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur bo‘lgan o‘quv qurollarini tayyorlash; f) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga bo‘lish va nomlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. Masalan: 1. Shrift deganda nimani tushunasiz? 2. Shriftli kompozitsiya nima? 3. Shriftli kompozitsiyaning qanday turlarini bilasiz? 4. “Kalligramma” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? Avvalgi mavzu mustahkamlanib, yangi mavzuga bog‘lanadi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
	Yangi mavzu bayoni	**“Guruhlarda ishlash” metodi** Yangi mavzuni shu metodda boshqa metodlar bilan bog‘lab o‘tiladi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, nomlanadi (kollaj turlari asosida). Har bir guruhga mavzu bo‘yicha tarqatmalar tarqatiladi. Rangli jurnal va gazetalar stolga yoyib qo‘yiladi.

Asosiy qism



“Qiziqarli klaster” metodi

Bu metodda avvaliga tasviriy san’at turlari nomidan klaster tuzamiz. Har bir guruhga turli shakldagi klaster namunasi tarqatiladi, guruhlar tasvir yoki so‘zlarni jurnal yoki gazetalardan kesib olib yopishtiradilar.







Kollaj (fransuzcha *kollaj* – “yelimlash” so‘zidan olingan) – bir-biriga o‘xshamagan tekstura elementlari (gazeta parchalari, mato bo‘laklari, fotosuratlar)ni birlashtirib, kompozitsiya yaratish usuli.









Kollajdan mustaqil san’at turi sifatida faqat XX asrda rassomlar (kubistlar, futuristlar) o‘z asarlarida (gazeta parchalari, devor qog‘ozi, fotosuratlarda) foydalana boshlaganlar.





1910–1912-yillarda kollaj texnikasini birinchi bo‘lib Jorj Brak va Pablo Pikasso qo‘llagan deb hisoblanadi.









Asosiy qism



Asosiy kollaj uslublari:
manzaraviy, vegetativ, dekorativ, shakl-chiziqli






Zamonaviy kollaj san'ati ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Dekupaj bezak texnikasining mohiyati obyektni naqsh yoki bezakli qog'oz parchalari bilan qoplash va lokni qo'llashdir. Dekupaj san'ati yordamida siz eski buyumlarni zamonaviy tarzda bezashingiz mumkin.







Skrapbuking – mato, qog'oz, munchoqlar, tabiiy materiallar va shu kabilardan foydalangan holda oilaviy albomlar, kitoblar, tabriknomalarni bezash usuli.




Kvilling – o'rama qog'ozlardan uch o'lchamli yoki tekis kompozitsiyalar yaratish san'ati.






Asosiy qism		Fotosuratlar kollaj san’atining eng qiziqarli turi hisoblanadi. Rasmlarni tasodifiy yoki ma’lum bir tartibda joylashtirib, fotokollaj texnikasida biror-bir voqea tasvirlanadi.   Fotosuratlardan tashqari kollajda yozuvlar, rasmlar, dekorativ bezaklar bo‘lishi mumkin. Tasviriy san’atning kollaj texnikasi bugungi kunga kelib, kino sanoati (kino, afisha kollaj), teatr (bezatish), reklamalar (josterlar, belgilar, videolar)da keng qo‘llanmoqda.     
	Amaliy ish	**“Namoyish” metodi** O‘qituvchi tayyorlagan slayd yoki videolavha namoyish qilinadi. Doskada tasvir bajarish bosqichlari tushuntirib beriladi. **Amaliy ish** 1. Kollaj yaratishning birinchi bosqichida eskiz tayyorlab olinadi. Eskizda tasvir g‘oyasi, obrazning mayda detallari qog‘ozga tushirib olinadi. 2. Yaratayotgan obrazingizni rangli yechimi umumlashgan holatda bo‘yab chiqing. Masalan, odamning yuz va kaft qismi sariq rangda bo‘lishi mumkin. Kiyimi va boshqa bezaklari ranglari ham belgilab olinadi. 3. Keraksiz jurnal va gazetalar sahifalaridan kollaj kompozitsiyangiz uchun kerak bo‘lgan ranglardagi bo‘laklar kesib olinadi va eskizning mos qismlariga yopishtirib chiqiladi. Shu tarzda kompozitsiya tugallanadi.

<table>
<tr>
<td rowspan="4">Asosiy qism</td>
<td></td>
<td>





“Ijodiy ish” metodi
O‘quvchilar tasvir bajarishda turli materiallardan (rangli jurnal, kataloglar, mato va hokazo) foydalanib kollaj texnikasida ijodiy kompozitsiya yaratadilar.



</td>
</tr>
<tr>
<td></td>
<td></td>
</tr>
<tr>
<td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td>
</tr>
<tr>
<td rowspan="3">Yakuniy qism</td>
<td></td>
<td>Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:
1. Kollaj qanday san’at turi, uning qanday turlarini bilasiz?
2. Dekupaj nimani anglatadi?
3. Skrapbuking san’atining ijodiy imkoniyatlari qanday?
4. Kvilling san’atida nimalardan asosiy ijodiy material sifatida foydalaniladi?
Guruhlar bajargan ishlarini taqdim qiladilar.
O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazma asosida baholanib, umumlashtiriladi.</td>
</tr>
<tr>
<td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td>
<td>Darslikda berilgan tasvirni ishlab kelish</td>
</tr>
<tr>
<td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td>
</tr>
</table>

11-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Haykaltaroshlikda portret
	Dars maqsadi Ta'limiy	O'quvchilarga haykaltaroshlikda portret haqida ma'lumot berish va mavzu yuzasidan amaliy ko'nikmalarni hosil qilish
	Tarbiyaviy	O'quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularni atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan e'tiborlarini oshirish, shuningdek, ularda o'lchash, chamalash va modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish
	Rivojlantiruvchi	O'quvchilarda berilgan mavzu bo'yicha haykal ishlash malakasini rivojlantirish. Ularda tasvirni tekislikka to'g'ri joylashtirish va ish jarayonida ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o'quvchi haykaltaroshlik turlarini ajrata oladi. **S –** o'quvchi berilgan mavzu bo'yicha tekis yuzaga bo'rtma haykal ishlay oladi. **M –** o'quvchi tasvir elementlarini nisbat qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o'quvchi tasvir ishlash jarayonida uning elementlarini bir-biriga bog'lay oladi. **R** – o'quvchi tasvir shakli va rangini to'g'ri ifodalay oladi. **T** – o'quvchi tasvirning badiiy bezagini bera oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	"Namoyish" metodi "Klaster" metodi "Atamalar bahsi" metodi "Bu juda qiziq" metodi
	Darsga oid ko'rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o'quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami, qalamtarosh, o'chirg'ich, plastilin (maxsus loy), steklar to'plami
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Portret, byust, relyef, gorelyef, barelyef
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko'rish, ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so'rash va baholash	Avvalgi dars yuzasidan berilgan uy vazifasi tekshiriladi va baholanadi.

	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilarning II chorak davomida olgan bilimlari savol-javob yoki test savollari orqali mustahkamlab olinadi. Mavzular o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **“Namoyish” metodi**  **Ilhom Jabborov** (1945-yilda tug‘ilgan) Ilhom Jabborov – haykaltarosh, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi. Professor I. Jabborov asarlarida an’anaviy realistik haykaltaroshlik uslubiga xos xususiyatlar, milliy mavzu va ta’sirchan obrazlarni ifodalash o‘z aksini topgan. Dastgohli va mahobatli asarlari umumlashtirma va ramziylik yo‘lida yaratilgan. U “Amir Temur” (Toshkent, Samarqand, Shahrisabz), Farg‘onadagi “Al-Farg‘oniy”, Toshkentdagi “Furqat”, Urganchdagi “Jaloliddin Manguberdi”, Toshkentdagi “Ona”, Urgutdagi “Navoiy” kabi haykallar muallifi.	**Haykaltaroshlikda portret** Yangi mavzu “Namoyish” metodi orqali bayon qilinadi. O‘qituvchi mavzuga oid slaydlar, reproduksiyalar asosida yangi mavzuni tushuntiradi. **Haykaltaroshlik** san’ati ko‘rinishiga qarab, dumaloq va qavariq (relyef) haykallar yaratish turiga bo‘linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan ko‘rish mumkin, inson obrazining bosh qismi beligacha tasvirlansa, bunday haykallar **byust** deb ataladi.   Relyef (qavariq) haykallar esa yuzaga bo‘rttirib ishlangani uchun faqat bir tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘ladi.   Relyeflar o‘z o‘rnida gorelyef va barelyef, kontrrelyeflarga bo‘linadi.   **Barelyeflar** yuzaga nisbatan kam bo‘rttirib tasvirlanadi, ularga tanga va taqinchoqlarni misol qilib keltirish mumkin.  

Asosiy qism

Portret haykaltaroshlik san’atining asosiy janrlaridan biridir. Portretga qo‘yiladigan birinchi talab – o‘xshashlik (tasvirlanayotgan inson va haykalning o‘zaro o‘xshashligi).

Lekin o‘xshashlik tashqi sifatlar bilan kifoyalanmaydi. Haykaltarosh tasvirlanayotgan insonning ruhiy holatini (qayg‘u, quvonch, tushkunlik va boshqa holatlarning ifodasi), xarakterli xususiyatlarini ochib berishi lozim.

Amaliy ish







Eslatma


Haykaltaroshlik o‘quv ko‘rgazma (byust) namunalari:



David byusti



Venera byusti



Diskotar byusti

Amaliy ishdan avval o‘quvchilarga portret-haykal ishlash bo‘yicha videorolik namoyish qilinadi.

https://youtu.be/WxZThsvWPyk

https://youtu.be/PObZyG27wkU

So‘ngra darslikdagi amaliy ish bosqichlari ko‘rsatib beriladi:







Figure 1+ haykaltaroshlik darslarida foydalaniladigan ish qurollari (o‘quvchilarga haykaltaroshlik ish qurollari bo‘yicha tushuncha beriladi).

Portret ishlashda boshning yuz qismi bo‘yindan oldinga chiqariladi. Boshning umumiy holatini topib bo‘lgach, yuzning mayda detallari ishlanadi.



Keyingi bosqichda quloqlar va labga qo‘shimcha hajm beriladi. Buning uchun boshqa plastilin bo‘laklaridan foydalaniladi. Alohida plastilin bo‘laklaridan nafis burama sochlar tasvirlanadi. Ko‘z qismini ishlashda kichik o‘lchamdagi plastilindan sharlar yasab olib, ko‘z olmasi ichiga joylashtirib, stek yordamida yuqori va pastki qovoqlarga ishlov beriladi. So‘nggi bosqichda portretning qosh qismi hamda soch buramalari ishlanadi.

<table>
<tr>
<td rowspan="5">Yakuniy qism</td>
<td>
Appolon byusti</td>
<td>O‘quvchilarga yordam sifatida tarqatma materiallar berish mumkin.
</td>
</tr>
<tr>
<td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td>
</tr>
<tr>
<td>“Bu juda qiziq” metodi


“Klaster” metodi
</td>
<td>Haykaltaroshlikka oid qiziqarli ma’lumotlar
Dunyoning turli mamlakatlarida o‘zbek allomalarining haykallari o‘rnatilgan. Tokio (Yaponiya), Minsk (Belarus) va Moskva (Rossiya) shaharlarida Alisher Navoiy, Qohirada (Misr) Ahmad al-Farg‘oniy, Rigada (Latviya) Mirzo Ulug‘bek, Kortrakt (Belgiya) va Ryuey-Melmezon (Fransiya) shaharlarida Ibn Sino haykallari bor.


Mustahkamlash uchun savollar:
1. Tasviriy san’atning haykaltaroshlik turida qanday janrlar bor?
2. Haykaltaroshlikda portret nima va u qanday turlarga bo‘linadi?
3. Portret ishlashda qanday talablarga amal qilinadi?
4. Byust deganda nimani tushunasiz?</td>
</tr>
<tr>
<td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td>
<td>Dars umumlashtiriladi, faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Plastilin yoki loydan gorelyef usulida odam portretining bo‘rtma tasvirini ishlash</td>
</tr>
<tr>
<td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td>
</tr>
</table>

12-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Haykaltaroshlik materiallaridan dekorativ buyumlar yasash
	Dars maqsadi Ta'limiy	O'quvchilarga haykaltaroshlik materiallaridan dekorativ buyumlarni yasash usullarini o'rgatish va ularda mavzu yuzasidan amaliy ko'nikmalarni hosil qilish
	Tarbiyaviy	O'quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini oshirish, shuningdek, ularda o'lchash, chamalash va modellashtirish qobiliyatlarini shakllantirish
	Rivojlantiruvchi	O'quvchilarda berilgan mavzu bo'yicha haykal ishlash malakasini rivojlantirish. Ularda tasvirni tekis yuzaga to'g'ri joylashtirish va ishlash jarayonida ish qurollaridan to'g'ri foydalanish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirish
	CSMART maqsadi: 	**C –** o'quvchi haykaltaroshlik turlarini ajrata oladi. **S –** o'quvchi berilgan mavzu bo'yicha tekis yuzaga bo'rtma haykal ishlay oladi. **M –** o'quvchi tasvir elementlarini nisbat qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o'quvchi tasvir ishlash jarayonida uning elementlarini bir-biriga bog'lay oladi. **R** – o'quvchi tasvir shakli va rangini to'g'ri ifodalay oladi. **T** – o'quvchi tasvirning badiiy bezagini bera oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	"Namoyish" metodi "Klaster" metodi "Atamalar bahsi" metodi "Bu juda qiziq" metodi
	Darsga oid ko'rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o'quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to'plami, qalamtarosh, o'chirg'ich, plastilin, steklar to'plami
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Dekorativ buyumlar, plastik materiallar, sovuq farfor
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko'rish, ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.

	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Oldingi dars yuzasidan berilgan uy vazifasi tekshiriladi va baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘tgan dars mavzusi, ya’ni o‘quvchilarning II chorak davomida olgan bilimlari savol-javob yoki test savollari orqali mustahkamlab olinadi. Mavzular o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **“Namoyish” metodi**   	**Haykaltaroshlik materiallaridan dekorativ buyumlar yasash** O‘quvchilarga “Namoyish” metodi orqali haykaltaroshlik materiallari haqida ma’lumot beriladi. Haykaltaroshlikda o‘quv vazifalari yumshoq materiallardan foydalanib bajariladi. Haykaltaroshlikning yumshoq materiallari – sovuq farfor, sovuq chinnidan foydalanish bir qator qulayliklarga ega. Plastik material sifatida ulardan toza ranglar hosil qilish imkoniyati mavjud. Plastik material quyidagi tartibda tayyorlanadi: 3 oshqoshiq PVA № 801 markali yelim, 2 oshqoshiq pista yog‘i, 1 oshqoshiq glitserin, 1/3 choyqoshiq limon kislotasi va 4,5 oshqoshiq jo‘xori kraxmali aralashtiriladi. Natijada xamirga o‘xshash plastik massa hosil bo‘ladi. Bu massaga xuddi xamir kabi ishlov berib, pishitiladi. Keyingi bosqichda yasaladigan buyumning hajmi, bo‘laklarining katta-kichikligiga qarab mayda zuvalachalarga ajratiladi, guash bo‘yog‘i qo‘shish orqali rangli bo‘lakchalar hosil qilinadi. Bu qorishmani sellofanga o‘rab saqlansa, ancha vaqtgacha o‘zining plastik xususiyatini yo‘qotmaydi. O‘quvchilarga “Namoyish” metodi orqali sovuq farfor xamirini tayyorlash jarayoni ko‘rsatib beriladi. Video havolasi: https://youtu.be/UfFoz-mll5k  
	Amaliy ish 	Haykaltaroshlikda dekorativ buyumlar yasashda kulolchilik loyidan ham foydalaniladi. Kulolchilik loyi o‘zining plastik xususiyatlariga ko‘ra, dekorativ buyumlar yasash uchun qulay material hisoblanadi. So‘ngra darslikdagi amaliy ish bosqichlari ko‘rsatib beriladi. **I bosqich** **II bosqich**   Birinchi va ikkinchi bosqichda, yuqoridagi rasmlarda ko‘rsatilgandek, kompozitsiyaning shakllariga mos ravishda bo‘lakchalar tayyorlab olinadi.

		III bosqich **IV bosqich**   So‘ng ular ko‘rinishiga mos shakllarga keltiriladi. **V bosqich** **VI bosqich**   Shakllarni bir-biriga yopishtirib, qalamdonning yaxlit kompozitsiyasi shakllantirib olinadi va oxirgi bezagi beriladi.
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	**“Bu juda qiziq” metodi** 	***Haykaltaroshlikka oid qiziqarli ma’lumotlar*** Dekorativ buyumlar yasash borasida o‘ziga xos maktab yaratgan o‘zbekistonlik usta Hamrobibi Rahimovaning asarlari Luvr (Fransiya), Jahon keramika muzeyi (Italiya), Ermitaj (Rossiya) kabi nufuzli muzeylarda saqlanadi. Mustahkamlash uchun savollar: 1. Sovuq farfor yoki chinni xamir uchun plastik material tayyorlashda qanday mahsulotlar kerak bo‘ladi? 2. Plastik material bo‘lakchalariga rang berish uchun qanday bo‘yoqdan foydalaniladi? 3. Plastik materiallardan har xil shakllar hosil qilish uchun qanday usullar qo‘llanadi?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Dars umumlashtiriladi, faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Plastilin yoki loydan gorelyef usulida odam portretining bo‘rtma tasvirini ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	


13-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Landshaft dizayni uchun funksional-dekorativ haykalcha yasash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga landshaft dizayni uchun funksional-dekorativ haykal ishlash usullarini o‘rgatish va mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhit, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini oshirish, shuningdek, ularda o‘lchash, chamalash va modellashtirish qobiliyatlarini shakllantirish

Tashkiliy qism	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda berilgan mavzu bo‘yicha haykal ishlash malakasini rivojlantirish. Ularda tasvirni tekislik yuzasiga to‘g‘ri joylashtirish va ish jarayonida ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirish
	CSMART maqsadi 	**C –** o‘quvchi haykaltaroshlik turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi berilgan mavzu bo‘yicha tekis yuzaga bo‘rtma haykal ishlay oladi. **M –** o‘quvchi tasvir elementlarini nisbat qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvir ishlash jarayonida uning elementlarini bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi tasvirning badiiy bezagini bera oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Klaster” metodi “Atamalar bahsi” metodi “Bu juda qiziq” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, plastilin, steklar to‘plami
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Landshaft, funksional haykal
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Oldingi darsda berilgan uy vazifasi tekshiriladi va baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘tgan dars mavzusi, ya’ni o‘quvchilarning II chorak davomida olgan bilimlari savol-javob yoki test savollari orqali mustahkamlab olinadi. Mavzular o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **“Namoyish” metodi**	**Landshaft dizayni uchun funksional-dekorativ haykal ishlash** O‘quvchilarga “Namoyish” metodi orqali haykaltaroshlik materiallari haqida ma’lumot beriladi. Funksional haykal biror-bir muhitni estetik jihatdan bezashi, muayyan funksional vazifa bajarishi kerak. Funksional-dekorativ haykallar deganda turli xil obrazlardagi yoritqichlar, mebellar, favvoralar, soyabonlar, bolalar maydonchasidagi sirpanchiq kabilar tushuniladi.









Bog‘ landshafti yoki interyer uchun dekorativ-funksional haykalni soddalashtirilgan inson qiyofasidagi guldon shaklida yasash mumkin. Buning uchun qog‘oz, qalam, haykaltaroshlikda ishlatiladigan loy yoki plastilin kerak bo‘ladi.

Dastlab ishning eskizi chizib olinadi. Bunda, birinchi navbatda, yasaladigan haykal qanday funksiya bajarishi va qayerda joylashishi aniqlab olinadi.







Keyingi bosqichda haykalning badiiy yechimi qog‘ozga tushiriladi. Haykalning shakli, plastik yechimi, funksiyasi, landshaftdagi o‘rni aniqlab olingach, yaratilgan eskiz asosida haykalcha namunasi ishlanadi.









Haykalchani yasash jarayonida texnik xavfsizlik, gigiyena qoidalari hamda materialdan tejamkorlik bilan foydalanishga e’tibor qaratish zarur.

<table>
<tr><td rowspan="3">Asosiy qism</td><td>Amaliy ish

“Loyihalash” metodi



</td><td>Amaliy ish jarayonida sinf o‘quvchilarini guruhlarga bo‘lib, bitta mavzu yuzasidan ijodiy yondashgan holda landshaft uchun funksional-dekorativ buyumlarni turli xil ko‘rinishda yasash mumkin. Masalan, bog‘ landshafti uchun oqqush yoki qo‘ziqorin shaklidagi gultuvak yasash.
Har bir guruh o‘zining loyihasi uchun avval eskiz chizib oladi.
  
 
“Bu juda qiziq” metodi
O‘quvchilarga bog‘ landshafti uchun dekorativ buyumlar yasashning boshqa usuli “Namoyish” metodi orqali videorolik ko‘rinishida taqdim qilinadi.
  </td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td>“Bu juda qiziq” metodi</td><td>Haykaltaroshlikka oid qiziqarli ma’lumotlar
Dekorativ buyumlar yasash borasida o‘ziga xos maktab yaratgan o‘zbekistonlik usta Hamrobibi Rahimovaning asarlari Luvr (Fransiya), Jahon keramika muzeyi (Italiya), Ermitaj (Rossiya) kabi nufuzli muzeylarda saqlanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:
1. Sovuq farfor yoki chinni xamir uchun plastik material tayyorlashda qanday mahsulotlar kerak bo‘ladi?
2. Plastik material bo‘lakchalariga rang berish uchun qanday bo‘yoqdan foydalaniladi?
3. Plastik materiallardan har xil shakllar hosil qilish uchun qanday usullar qo‘llanadi?</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Dars umumlashtiriladi, faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Plastilin yoki loydan gorelyef usulida odam portretining bo‘rtma tasvirini ishlash</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

14-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Haykaltaroshlikda dekorativ panno yasash. Relyef		
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga dekorativ panno haqida tushuncha berish. Haykaltaroshlikning dekorativ panno uslubida tasvir yasash bosqichlarini o‘rgatish		
	Tarbiyaviy	Haykaltaroshlik bilimlari orqali o‘quvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalash, kreativlikka yo‘naltirish		
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning mavzu asosida mustaqil kompozitsiya hosil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish		
	STEAM maqsadi 	Mavzu **STEAM** dasturidan foydalanib tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. Oquvchilar bir necha xil texnik yo‘nalish asosida tasvir bajarish va bo‘yashni o‘rganadilar.		
	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	“Sayohat” metodi “Namoyish” metodi “Guruhlarda ishlash” metodi “Taqdimot” metodi “Konfronto” metodi		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, to‘garak ishlaridan namunalar		
	Dars jihozi 	**O‘qituvchi uchun:** doska, slayd uchun texnik vosita. **O‘quvchi uchun:** qalam, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, karton, oddiy yoki havo plastilini, stik, qaychi, yelim, turli materiallar.  		
	Sinf doskasining bezagi 		*Haykaltaroshlikda panno uslubida bajarilgan ishlardan namunalar*	
	Atamalar	Panno, relyef, barelyef, gorelyef, kontrrelyef		
	DARSNING BORISHI			
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) doskaga mavzuni yozish, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash.		

Tashkiliy qism	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilarga o‘tgan dars yuzasidan savollar beriladi. **“Guruhlarda ishlash” metodi** 1. Funksional haykaltaroshlik haykaltaroshlikning boshqa turlaridan nimasi bilan farq qiladi? 2. Funksional haykaltaroshlik namunalari qanday vazifalarni bajaradi? O‘tilgan dars bo‘yicha o‘quvchilarning uy vazifalari baholanadi. O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni Amaliy ish    	**Haykaltaroshlikda dekorativ panno yasash. Relyef** **S – science (tabiiy fanlar)** **“Sayohat” metodi** Dars “Virtual sayohat” metodi asosida o‘tiladi. Bugungi sayohatni “Yo‘l xaritasi”dan boshlaymiz. Har bir guruhga konvertlar tarqatiladi. Har bir konvertga turli transport rasmlari solingan. Bugun biz Toshkent metrosini tanlaymiz va Toshkent bo‘ylab yerosti sayohatini boshlaymiz.  **1-vazifa.** Konvertda turli bekatlar nomi yozilgan. Turgan joyimizdan boshlab berilgan bekat nomlarini ketma-ketlikda joylashtirib chiqamiz. O‘qituvchi tomonidan topshiriq tekshirilib, baholab boriladi. **2-vazifa.** Rasmlarga qarab bezak namunalari qaysi bekatga tegishli ekanini topish. **3-vazifa.** Haykaltaroshlikka mansub tasvirlarga mos bekatni topish. Jamoa bo‘lib, tez bajarishga e’tibor qaratiladi. Guruhlar berilgan vaqt mobaynida topshiriqlarni tez va to‘g‘ri bajarishiga qarab baholab boriladi.   

Asosiy qism







Yangi mavzu tushuntiriladi.

Relyef (fransuzcha, “tekislik yuzasidagi bo‘rtma tasvir”) haykaltaroshlik turi bo‘lib, tekislikka bo‘rttirib yoki o‘yib ishlanadi. Relyef uch turga bo‘linadi: chuqurlashtirilgan (kontrrelyef), barelyef va gorelyef. Chuqurlashtirilgan relyef tekislik sathiga nisbatan o‘yilgan holda ishlanadi. Relyefning bu turi Qadimgi Misrda keng qo‘llangan. Kontrrelyef bilan amaliy san’at asarlari va ulkan ehromlar devori yuzalari, ustunlari bezatilgan.

Barelyef (fransuzcha, “past bo‘rtma”) namunalarini Toshkentdagi “G‘alaba bog‘i”, “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida, Toshkent metropoliteni bekatlari interyerlarida ko‘rish mumkin. Barelyef kompozitsiyalarida tasvir tekislikdan bo‘rtgan holda ishlanlansa-da, umumiy tarzda tekislik yuzasidan ajratilmagan holda ifodalanadi.

Gorelyef (fransuzcha, “baland bo‘rtma”)da tasvirlanayotgan obrazlar umumiy hajmining yarmidan ko‘prog‘i bo‘rtgan holda ifodalanadi.

Metro ichidan olingan tasvirlar alohida tahlil qilinadi va yangi mavzuga bog‘lanadi.





Amaliy ish




T – technology (texnologiya)

Amaliy ish jarayoni:

Guruhlarga turli shablonlar beriladi. Ular bu shablonlardan turli materiallar bilan panno kompozitsiyasini jamoa bo‘lib ishlaydilar.













Asosiy qism



E – engineering (muhandislik)

Loyihalash metodi

Barelyef ko‘rinishida dekorativ panno yasashdan oldin kompozitsiya g‘oyasini qog‘ozga tushirib olish lozim. Keyingi bosqichda kompozitsiya ishlash uchun plastilindan 10x15 cm kattalikdagi tekis plast yasab, uning ustiga qog‘ozdagi kompozitsiyani joylashtirib, qalam bilan tasvir hosil qilinadi. Plastilin yuzasiga tushgan tasvirga hajm beriladi.








Dekorativ pannoni yasash jarayonida tasvir ustiga loyni bosqichma-bosqich qo‘yish orqali hajm to‘ldiriladi. Ushbu jarayonda tasvirdagi shaklning aniqligiga ahamiyat qaratish lozim. Ish jarayonida bo‘rtmaning alohida qismlari qalinligi va plastikasiga e’tibor berish kerak.

Har bir guruhga siluet usuli asosida o‘z shahrining biror binosini tasvirlash topshiriladi. Berilgan topshiriq natijasi guruhlar orasida bir xil bo‘lib qolmasligi nazorat qilinadi.



“Taqdimot” metodi


Guruhlar tayyorlagan siluetini taqdimot qiladilar.





A – art (san’at)

Panno usulini tasviriy san’atning turli janrlarida uchratishimiz mumkin.










Bu usulni nafaqat bitta fonda, balki rangtasvir kompozitsiyasi bilan aralash ishlatish ham mumkin.

		“Konfronto” metodi O‘qituvchi tomonidan guruhlarning tasvirlari taqqoslab tahlil qilinadi. **M – math (matematika)** Nisbatlar asosida panno usulidagi kompozitsiyani to‘g‘ri bajarish tushuntiriladi.  
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	 	Mavzu asosida savol-javob qilinadi, faol guruhlar rag‘batlantiriladi. 1. “Relyef” atamasi qanday ma’noni anglatadi? 2. Relyef qanday turlarga bo‘linadi? 3. Barelyef va gorelyefning farqini izohlang. 4. Kontrrelyef boshqa turdagi relyeflardan qaysi jihati bilan farqlanadi?  
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Barelyef usulida mustaqil kompozitsiya ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

15-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	O‘zbekiston amaliy bezak san’atida ramziy shakllar
	Dars maqsadi: Ta’limiy	O‘quvchilarga amaliy bezak san’atidagi ramziy shakllar va ularning mazmun-mohiyati haqida ma’lumot berish va ularda tushuncha hosil qilish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarga mavzuga oid milliy an’analarimiz haqida tushuncha berish va ularga hurmat bilan qarash tuyg‘ularini singdirish. O‘quvchilarni sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilgan holda ishlashga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda amaliy bezak san’ati va uning namunalari nomoddiy madaniy merosga kiritilgani haqidagi bilimlarni rivojlantirish
	CSMART maqsadi:	**C –** o‘quvchi amaliy bezak san’ati turlarini ajrata oladi. **S –** o‘quvchi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklini to‘g‘ri chizib, uni qismlarga ajrata oladi. **M –** o‘quvchi naqsh elementlarini kompozitsiya va ritm qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi.

Tashkiliy qism		**A –** o‘quvchi naqsh ishlash jarayonida novda va elementlarni bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi naqshni bo‘yash jarayonida ranglardan to‘g‘ri foydalanadi. **T** – o‘quvchi naqshga tarh bezagini bera oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Namoyish” metodi “Klaster” metodi “Atamalar bahsi” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	Darslik, rasm daftari, qattiq va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, suv, maxsus mo‘yqalamlar, palitra
	Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
	Atamalar	Ritm, simmetriya, stilizatsiya
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining axborotini tinglanadi. Bugungi kun yangiliklari haqida suhbatlashiladi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘tgan dars yuzasidan berilgan uy vazifasi tekshiriladi va baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	Avvalgi dars mavzusi, ya’ni o‘quvchilarning I chorak davomida olgan bilimlari savol-javob yoki test savollari orqali mustahkamlab olinadi. Mavzular o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni  **“Namoyish” metodi** 	**O‘zbekiston amaliy bezak san’atida ramziy shakllar** Har bir millatning o‘z amaliy san’ati bor. Xalq amaliy san’ati deganda ajdodlarimiz asrlar davomida yaratib kelgan hamda ustalarimiz tomonidan bugun ham yasalayotgan milliy hunarmandchilik buyumlari va amaliy san’at asarlarini tushunamiz. **Yangi mavzu bayoni slaydlar orqali namoyish qilinadi.** O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati madaniy merosimizning muhim qismlaridan biri sifatida e’zozlab kelinadi. O‘zbek amaliy bezak san’atining kelib chiqishi insoniyatning ibtidoiy jamoa davriga to‘g‘ri keladi. Amaliy bezak san’atining asosini naqsh tashkil qiladi. Naqqoshlik har bir mamlakatda o‘ziga xos muhit, geografik o‘rni, o‘lkaning xususiyatlariga ko‘ra rivoj topgan. O‘zbek xalqining naqshlarida anor, bodom, gullar, qalampir kabilarning ramziy tasvirlari naqsh elementlari sifatida qo‘llangan.

Asosiy qism


“Klaster” metodi





Usta Shirin Murodov (1879–1957)

Buxoro shahrida ganch o‘ymakori oilasida tug‘ilgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy a’zosi. Davlat mukofotining laureati, bir qancha orden va medallar bilan taqdirlangan. Buxoro, Samarqanddagi qadimiy me’moriy obidalarni ta’mirlashda, Buxorodagi Sitorayi Mohi Xosa, Toshkentdagi Muqimiy nomidagi davlat opera va balet akademik katta teatri binosining qurilishida ishtirok etgan.



Usta Toshpo‘lat Arslonqulov (1882–1962)

Ganch o‘ymakori, naqqosh, O‘zbekiston xalq rassomi. Davlat mukofotining laureati, bir necha orden va medallar bilan taqdirlangan. Bir qator madaniy-maishiy va ma’muriy binolarni, O‘zbek drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi davlat opera va balet akademik katta teatri binolarini bezashda ishtirok etgan.






– Qani, bilimdonlar, amaliy bezak san’ati turlarini sanab bering-chi.




– Qani, ayting-chi, amaliy bezak san’atida ramz nima?

Ramz arabcha “ishora qilmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, tabiatni, voqelikni, hayotdagi quvonch va tashvishlarni, do‘st va dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naqsh elementlari, chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir.

O‘zbek milliy naqshlarida quyidagicha ramzlar mavjud.

RAMZ (nomi)	SHAKLI	MA’NOSI
Nuqta	.	Hayotning boshlanishi, Tangrining yagonaligi, hayotning tugaganligi va boshqa ramzlar
To‘g‘ri chiziq	———	Hayotdagi to‘g‘ri yo‘l, hayotning ravonligi
Teng yonli uchburchak		Yaxlit bo‘lingan bo‘lak, ayriliq, olam
Romb		Ishonch, ayol, ona yer, serfarzandlik
Aylana		Olam, baxt, quyosh, insonlarni yovuz niyatdan qaytarish, mukammallik, abadiylik (ya’ni olam doimiydir, lekin inson umri o‘tkinchi)
Yarim aylana		Baxt
Kvadrat		Dunyoning, olamning cheksizligi, quyosh farzandi, abadiylik, yorug‘lik, mustahkamlik, borliq yer-suv, olov va havodan iborat ekanligi, mukammallik, tenglik, go‘zallik
Kurtak		To‘qchilik, bahor, uyg‘onish, Navro‘z

Asosiy qism



Qodirjon Haydarov (1899–1983)

Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Usta, yog‘och o‘ymakori O‘zbekiston Xalq rassomi, davlat mukofotlarining laureati. Asarlari O‘zbekiston tarixi muzeyida, Xalq amaliy san’ati muzeyida saqlanadi. U Tarix muzeyi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi ko‘rgazma zalining o‘ymakor eshiklarini ishlagan.


“Bu juda qiziq” metodi



O‘zbek milliy amaliy san’ati durdonalari YUNESKOning “Insoniyatning nomoddiy madaniy me’rosi” ro‘yxatiga kiritilgan.





Bog‘lam		Baxt bog‘lanishi
Barg		Bahorgi uyg‘onish, Navro‘z
Qalampir		Har xil yomonliklar va yomon ko‘zlardan asrash
Novda		Boylik, farovonlik
Shoxbarg		Bahorgi uyg‘onish

Nomoddiy madaniy meros tushunchasi


Amaliy bezak san’atining barcha turlari YUNESKO tashkilotining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi reyestriga kiritilgan. Nomoddiy madaniy meros o‘zining noyobligi emas, balki uni amalda qo‘llayotgan jamiyat uchun ahamiyatli ekani bilan qiymatga ega. Demak, kulolchilik, kandakorlik, miskarlik hunarmandchiligi ham nomoddiy madaniy meros qatoriga kiradi va kulolchilik, kandakorlik, miskarlik buyumlari tayyorlanishining texnologik jarayonini ham o‘z ichiga oladi.

Nomoddiy madaniy meros orqali biz o‘z tariximiz, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy hunarmandchilik san’atimiz va qadimgi madaniyatimiz yuqori saviyada bo‘lganini bilib olishimiz mumkin. Bu san’at namunalarini yasashda ota-bobolarimiz bevosita geografiya, fizika, kimyo fanlariga oid bilimlariga suyanganlar. Masalan, kulolchilikda oddiy ko‘za yasash uchun kulol maxsus tuproqdan loy tayyorlaydi, bu tuproqda Mendeleyev davriy sistemasidagi moddalar borligini biladi. Maxsus tuproq qayerda, qaysi tog‘ yonbag‘rida borligini biladi. Ko‘zani pishirish jarayonida issiqlik ko‘p yoki kam berilsa, mahsulot talabga javob bermasligini ham biladi. Shuning uchun ham har bir hunarning o‘ziga yarasha texnologiyalari bo‘lgan va yillar mobaynida sayqal topgan.

O‘quvchilarga amaliy bezak san’ati turlarining texnologiyalari jarayoni haqidagi videorolik namoyish etiladi.


Shakl va mazmun mutanosibligi, ayniqsa, badiiy kulolchilik, kandakorlik, miskarlikda alohida ahamiyat kasb etadi.

<table>
<tr><td rowspan="4">Asosiy qism</td><td>Amaliy ish</td><td>Amaliy ishdan avval o‘quvchilar darslikda berilgan amaliy bezak san’atidagi ramzlar jadvali bilan tanishadilar.


O‘quvchilarga yordam sifatida tarqatma materiallar berish mumkin.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Yakuniy qism</td><td>“Atamalar bahsi” metodi</td><td>
</td></tr>
<tr><td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td><td>Darslikda berilgan jadvaldagi ramziy naqsh elementlarini chizish va ularning ma’nosini yod olish</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td></tr>
</table>

16-dars

Tashkiliy qism

Dars mavzusi	Islimiy naqsh ishlash
Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga amaliy bezak san’atining naqqoshlik turi haqida tushuncha berish va ularda mustaqil naqsh kompozitsiyasi ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish
Tarbiyaviy	O‘quvchilarda estetik madaniyatni tarbiyalash, milliy madaniy merosimiz tarixini, uni avaylab-asrashni o‘rgatish
Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarni nomoddiy madaniy merosga kiritilgan amaliy bezak san’ati va uning namunalarini tahlil qilishga o‘rgatib, ularning badiiy fikr doirasini rivojlantirish
CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi amaliy bezak san’ati turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi naqsh shaklini to‘g‘ri chizib, uni qismlarga ajrata oladi. **M** – o‘quvchi naqsh elementlarini kompozitsiya va ritm qoidalariga rioya qilgan holda ishlay oladi. **A** – o‘quvchi naqsh ishlash jarayonida novda va elementlarni bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi naqshni bo‘yash jarayonida ranglardan to‘g‘ri foydalanadi. **T** – o‘quvchi naqshga tarh bezagini bera oladi.
Dars turi	Aralash
Dars metodi	“Namoyish” metodi “Ikki qo‘l texnikasi” metodi “Kim tez?” metodi “Kichik guruhlar bilan ishlash” metodi
Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, guash bo‘yog‘i va mo‘yqalam, doska, bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari yoki A4 o‘lchamli qog‘oz, qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalamlar, suv, palitra.
Sinf doskasining bezagi	 *Mavzuga oid reproduksiyalar* 
Atamalar	Ritm, simmetriya, stilizatsiya

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	Oldingi dars mavzusi yuzasidan berilgan amaliy ish tekshiriladi va o‘quvchilar baholanadi.
	Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash  	O‘quvchilarning diqqatini qaratish va tasvir bajarishning qiziqarli usulida: “**Ikki qo‘l texnikasi”**, **“Kim tez”** metodlarini qo‘llash.  Tez va to‘g‘ri tasvir chizganlar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirib boriladi. **O‘tilgan dars mavzusini takrorlash:** 1. Milliy naqsh elementlari qanday ma’nolarni anglatadi? 2. Qaysi ramziy shakl ishonch, ona yer, serfarzandlik ma’nolarini bildiradi? 3. Amaliy san’atning rivojlanishiga qanday omillar ta’sir qilgan? 4. O‘zbek milliy naqsh elementlari sifatida qanday ramziy shakllardan foydalaniladi? 5. “Ramz” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? O‘quvchilarning uyda bajargan amaliy ishlari baholanadi. O‘tilgan mavzular bo‘yicha rasmlar tekshiriladi, xato va kamchiliklar to‘g‘rilanadi. Mavzu o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
	Yangi mavzu bayoni	**Islimiy naqsh ishlash** Avvalgi darsda amaliy san’at turlari haqida o‘rgandingiz. Amaliy san’atning barcha turlari asosi naqqoshlik san’ati namunalari bilan bezatiladi. Xonliklar davrida binolar, peshtoqlar, ustunlarga turli bezaklar berilishi natijasida xalq ustalarining o‘ziga xos uslublari paydo bo‘ldi va o‘zbek naqqoshlik maktablari vujudga keldi. Bular Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent va Farg‘ona maktablaridir. Har bir naqqoshlik maktabi o‘zining alohida kompozitsiyasi, ish uslubi, rang koloriti bilan ajralib turadi.


Asosiy qism

“Namoyish” metodi





Islimiy naqsh



Girihli naqsh



Murakkab naqsh

Naqsh kompozitsiyasi 3 xil usulda chiziladi:


1. Islimiy naqshli.
2. Girih naqshli.
3. Islimiy va girih naqshli.



Islimiy – o‘simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan naqsh turi. Naqsh asosini tanob, band, barg, butalar tashkil etadi. Islimiy naqshning xillari ko‘p, u qaysi shakl bilan to‘ldirilsa, naqsh shu shakl nomi bilan ataladi: islimiy barg, islimiy bargak, islimiy bofta, islimiy gul, islimiy zanjira, islimiy madohil, islimiy mehrob va shu kabi yuzdan ortiq sodda va murakkab turlari mavjud.

Tanob arabcha, “chilvir”, “arqon” degan ma’noni anglatadi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negiz va naqshga shakl beruvchi chiziq “tanob” deyiladi. Agar kompozitsiyada tanoblar kesib o‘tuvchi rangli naqshlarda ishlatilsa, albatta ikkalasi ikki xil rangga bo‘yaladi. Tanoblar bir-birini kesib o‘tmay, aksincha, parallel bo‘lsa, bunday naqsh “qo‘sh tanobli islimiy” deb ataladi. Agar tugallangan mustaqil kompozitsiya bo‘lsa, “qo‘sh tanobli namoyon” deyiladi. Islimiy naqsh chizish uning elementlarini o‘rganishdan boshlanadi.

Oddiy naqsh namunalaridan 10 ta gul naqshini nusxa ko‘chirib chizishni o‘rganish orqali mustaqil kompozitsiya tuza olish malakasini egallash mumkin.

1-gul: bodom islimi. 2-gul: pechaksimon islimi. 3-gul: bargli islimi. 4-gul: bargli raftor islimi. 5-gul: aylana islimi. 6-gul: mehrob islimi. 7-gul: boftali islimi. 8-gul: qo‘sh mehrob islimi. 9-gul: patnis islimi. 10-gul: shkuftli islimi.



<table>
<tr>
<td rowspan="4"></td>
<td>Amaliy ish

1-bosqich

2-bosqich

3-bosqich

4-bosqich</td>
<td>Mustaqil ravishda islimiy naqsh kompozitsiyasini ishlash
Mavzu bo‘yicha “Kichik guruhlarda ishlash” metodidan foydalanish mumkin.
1-bosqich. Islimiy naqsh kompozitsiyasini ishlash uchun qalamda qog‘oz varag‘i (rasm daftari)ga 10x20 cm li o‘lcham chizib olinadi.

2-bosqich. Chizib olingan o‘lcham markazidan boshlab, birinchi navbatda, tanob tortib chiziladi. Tanobni bir-biri bilan bog‘lash maqsadida shukufta (bog‘lam) chiziladi. Keyingi bosqichda novdalar chizib olinadi, so‘ngra ularning yo‘nalishiga moslab gullar joylab chiqiladi.

3-bosqich. Chizilgan islimiy naqsh kompozitsiyasiga rang beriladi. Bunda oldin bo‘yaladigan yuzalarni guruhlarga ajratib olish lozim.
Birinchi navbatda naqshning asosi bo‘yab olinadi. Keyin ikkinchi darajali qismlari bosqichma-bosqich bo‘yaladi.

4-bosqich. Bu bosqichda pardozlash ishlari amalga oshiriladi. Keyin gul va barglarga siyohqalam tortiladi. So‘ngra ularga targ‘il tortilib, oq bandlar (tanoblar) ustidan oq guash surtib chiqiladi.
O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan slayd yoki ko‘rgazmalar bilan (dars turiga mos tasvirlarni doskaga ilib qo‘yish mumkin) yangi mavzu tushuntiriladi.</td>
</tr>
<tr>
<td colspan="2">Yangi mavzuni mustahkamlash</td>
</tr>
<tr>
<td rowspan="3">Yakuniy qism</td>
<td>“Taqdimot” metodi
</td>
<td>Guruhlarning ishi “Taqdimot metodi” orqali baholanadi.
Guruhlarga savollar tarqatiladi:
1. Naqshning bu turi nima uchun “islimiy” deyiladi?
2. Shakliga ko‘ra islimiy naqshlarning qanday turlari bor?
3. “Tanob” so‘zi nimani anglatadi?
4. 1-, 2-raqamli mo‘yqalamlar naqsh kompozitsiyasining qaysi jarayonlarida va nima uchun ishlatiladi? O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan baholab boriladi.</td>
</tr>
<tr>
<td>Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash</td>
<td>Ixtiyoriy ravishda islimiy naqsh kompozitsiyasini ishlash</td>
</tr>
<tr>
<td colspan="2">Ish joylarini yig‘ishtirish</td>
</tr>
</table>

17-mavzu

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Dizayn san’ati. Dizayn san’atining turlari		
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarda dizayn san’ati va uning turlari haqidagi bilimlarni shakllantirish, badiiy fikr doirasini kengaytirib, ularni eskiz va kompozitsiya tuzishga o‘rgatish, san’atdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishga hamda estetik munosabat bildirishga o‘rgatish		
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash va ularning kreativ fikrlashini oshirish, dizayn san’ati bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda estetik madaniyatni shakllantirish		
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarni ijodiy izlanish orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrini aniq ifodalashga o‘rgatish, kreativ izlanuvchanlik malakasini rivojlantirish		
	CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi dizayn san’atining turlarini ajrata oladi. **S** – o‘quvchi dizayn eskizini ishlashda komponovkani to‘g‘ri bajara oladi. **M** – o‘quvchi yordamchi chiziq bilan dizayn mavzusidagi tasvirning xomaki tasvirini ishlay oladi. **A** – o‘quvchi dizayn eskizini ishlashda uning elementlarni bir-biriga bog‘lay oladi. **R** – o‘quvchi dizayn eskizi shaklini va rangini to‘g‘ri tasvirlay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir mavzusi asosida kompozitsiya tuza oladi.		
	Dars turi	Aralash		
	Dars metodi	“Rang psixologiyasi” metodi “Kim tez?” metodi “Kichik guruhlar bilan ishlash” metodi		
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Darslik, tarqatma materiallar va ko‘rgazmalar, tasviriy san’at ashyolari, slayd, AKTdan foydalanish		
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari, A3 o‘lchamli qog‘oz, rangli qog‘ozlar to‘plami, yelim va qaychi, qalam, o‘chirg‘ich, yelim, qaychi, rangli qalamlar, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.		
	Sinf doskasining bezagi		*Mavzuga oid namunalar*	

	Atamalar	Sanoat industrial dizayni, grafik dizayn, veb dizayn, inson imiji dizayni, landshaft dizayni, atrof-muhit va maishiy hayot dizayni, art-dizayn.
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	**Tashkiliy qism** 	**Dars bosqichlari** 1. Tashkiliy qism. O‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash. Ularning darsga tayyorgarligini nazorat qilish. Darsning mavzusini yozib, e’lon qilish. 2. **“Rang psixologiyasi testi” metodi**ni qo‘llash. Avvalgi darsni takrorlash. 3. Yangi mavzu bayoni. **“Kichik guruhlar bilan ishlash”** metodini qo‘llash. 4. Yangi mavzuni mustahkamlash. **“Taqdimot”** metodidan foydalanamiz. Undan guruhlarni baholashda ham foydalanish mumkin. 5. O‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish. 6. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.
	O‘tgan darsni takrorlash va uyga vazifani so‘rash	O‘quvchilarning diqqatini qaratish va tasviriy san’atning rangshunoslik asoslari bilan birgalikda **“Rang psixologiyasi”** metodini qo‘llash. O‘tilgan darslar bo‘yicha rasmlar tekshiriladi, xato va kamchiliklar to‘g‘irilanadi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi dars bayoni   Sanoat dizayni	**Dizayn san’ati. Dizayn san’atining turlari** **Dizayn** inglizcha so‘z bo‘lib, “loyihalash”, “chizma chizish” degan ma’noni bildiradi. Dizayn san’ati XIX asr boshlarida Evropada fan sifatida o‘rgana boshlangan. Dizayn badiiy loyihalash va atrof-muhitning estetik-konstruktiv shaklini o‘zgartirishdir. Hozirgi kunga kelib dizayn san’atining bir necha turlari mavjud: 1. Sanoat industrial dizayni. 2. Grafik dizayn. 3. Veb dizayn (kompyuter dizayni). 4. Inson imiji dizayni. 5. Lanshaft dizayni. 6. Atrof-muhit va maishiy hayot dizayni. 7. Art-dizayn. **Dizayn san’atining maqsadi** – biror-bir narsani badiiy va estetik jihatdan qulay va foydali qilib loyihalash va ishlab chiqarish. Dizayn san’atining vazifalari: go‘zal va foydali, ishlatishga qulay, ishlab chiqarishdagi oddiy, ko‘p adadli, tarqatish uchun qulay, tashqi o‘rami yoki tashqi ko‘rinishi bejirim bo‘lishi kerak. **1. Sanoat dizayni** – ishlab chiqarish jihozlarining konstruksiyasi, transport, maishiy texnika vositalari, idishlar, mebel jihozlar va shu kabilarning yangi namunalari. **Ishlab chiqarishda badiiy va yangi ko‘rinishlarni hosil qilish** Yangi narsa yaratish – bu ijodiy jarayonda bir necha insonlar qatnashishi va mehnat qilishi orqali paydo bo‘ladi. Ularga olimlar, muhandislar va dizaynerlar kiradi.

Asosiy qism



Grafik dizayn







2. Grafik dizayn – badiiy bezak elementlari va badiiy harflar, badiiy tasvirlar orqali grafik tasvir yaratish.

Bu jarayonda bir yoki bir nechta belgi orqali ham dizayn kompozitsiyasini yoki uslubini yaratish mumkin.

Masalan:




yoki

Buning ichiga kitob grafikasini ham qo‘shish mumkin.

Kitob dizayni – kitobning yangicha va turli badiiy bezakli loyihasini yaratishdir.

Asosiy qism





3. Veb dizayn (kompyuter dizayni).

Bu dizayn turida kompyuter grafikasi yordamida turli kompozitsiyalar yaratiladi.





4. Inson imiji dizayni.

Kiyimlar dizayni – kiyimni modellashtirish.





Moda (frans. – “me’yor”, “usul”) bizning dunyoqarashimiz ko‘zgusi bo‘lib, madaniy turmushimizda muayyan estetik did va me’yoriy ko‘rinishning ma’lum vaqtgacha qaror topishi ifodasidir. Garmoniya – estetik mezon, unga erishish uchun kompozitsiya qoidalariga rioya qilish kerak. Moda yaratish tenglik, o‘xshashlik va kontrast; simmetriya va asimmetriya; proporsiyalar, ritm, kompozitsiyaviy markaz; rang kabi vositalar majmuidir. Kompozitsiya qurishning asosiy prinsipi uning barcha elementlari munosabatlarining o‘zaro kelishuvidir. Bu munosabatlar uch xil prinsip asosida bo‘lishi mumkin: kontrast, o‘xshashlik va tenglik.

Insonlar asrlar davomida erkin harakatlanish uchun liboslarni qulaylashtirishga, ularning elastik xususiyatlarini oshirishga harakat qilishgan.

Asosiy qism



5. Landshaft dizayni.

Bunda atrof-muhitni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari bajariladi.





Fitodizayn esa tabiatdagi yirik yoki kichik hajmdagi gullar, ularning quritilgan namunalaridan tuzilgan kompozitsiyadir.







6. Atrof-muhit va maishiy hayot dizayni.

Bu dizayn turining maqsadi inson hayoti uchun go‘zallik va qulaylik yartishdan iborat.

Bunga arxitektura san’atini misol qilishimiz mumkin.







Bu usulda interyer va eksteryer kompozitsiyalari, ya’ni bino ichi yoki tashqi ko‘rinishi dizayni, har xil uslublarda, masalan, milliy uslubda, yevropa uslubida, klassik va zamonaviy uslublarda dizayn kompozitsiyalari yaratiladi.

Me’moriy dizayn asosidagi shaharsozlik binolarining yangicha ko‘rinishiga misol keltirilgan:







Asosiy qism		**7. Art-dizayn.** Bu dizayn turining maqsadi o‘ziga xos uslubda badiiy ko‘rinishni yaratishdir.    O‘qituvchi tayyorlagan slayd yoki ko‘rgazmalari bilan (har bir dizayn turiga mos tasvirlarni doskaga ilib qo‘yish mumkin) yangi mavzuni tushuntiradi.
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	Darsni mustahkamlash Amaliy ish	**“Kichik guruhlar bilan ishlash” metodidan foydalanib amaliy mashg‘ulot o‘tkazish** Har bir guruhga dizayn turlari bo‘lib beriladi. Amaliy mashg‘ulot “Kim tez?” metodi asosida olib boriladi. 1-guruh: kiyimlar dizayni 2-guruh: mashinalar dizayni 3-guruh: interyer dizayni 4-guruh: grafik dizayn Har bir guruh o‘z taqdimotini o‘tkazadi. **“Taqdimot”** metodidan foydalanamiz. Guruhlarni o‘zaro baholashdan ham foydalanish mumkin. **Yangi mavzu yuzasidan savollar:** 1. “Dizayn” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? 2. Dizayn san’ati qachon paydo bo‘lgan va eng yirik dizayn maktablaridan qaysilarini bilasiz? 3. Dizayn san’ati turlariga misollar keltiring. 4. Arxitektura dizayni, reklama va libos dizayni deganda nimalarni tushunasiz?
	O‘quvchilarni izohli baholash Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan baholab boriladi. O‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish. Ijodiy ish. O‘tilgan mavzu bo‘yicha dizayn turlaridan biriga eskiz ishlash.
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

18-dars

Tashkiliy qism



Dars mavzusi	Arxitekturada kompozitsiya. Interyer dizayni
Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga arxitektura san’ati haqida ma’lumot berish, uning turlarini tahlil qila olish. Kollaj uslubida interyer dizaynini mustaqil bajara olish ko‘nikmalarini shakllantirish
Tarbiyaviy	Tasviriy san’atning yangi yo‘nalishlarini badiiy idrok etish, estetik didni rivojlantirish va yangicha qarashlarni tarbiyalab borish
Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda tasviriy san’atning yangi yo‘nalishlarida mustaqil kompozitsiya ishlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish
CSMART maqsadi 	**C** – o‘quvchi arxitektura uslubida ishlangan tasvir eskizlarini tahlil qila oladi. **S** – o‘quvchi arxitekturada interyer dizaynini ishlashda kompanovkani to‘g‘ri tanlay oladi. **M** – tasvirning xomaki eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – tasvir eskizini ishlashda perspektiva elementlarini to‘g‘ri bajaradi. **R** – tasvir shakli va rangini mavzuga mos ravishda to‘g‘ri tanlay oladi. **T** – o‘quvchi interyer dizayni mavzusiga kompozitsiya tuza oladi.
Dars turi	Aralash
Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Moodboard” metodi “Taqdimot” metodi “Ijodiy ish” metodi
Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid tasvirlar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
Dars jihozi 	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari, A3 o‘lchamli qog‘oz, rangli qog‘ozlar to‘plami, rangli gazeta va jurnal, yelim va qaychi, qalam, o‘chirg‘ich, rangli qalamlar, qalamtarosh, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.  
Sinf doskasining bezagi		*Interyer dizayni uslubidagi ishlardan namunalar*	

	Atamalar	Interyer, moodboard, kollaj, perspektiva
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash; f) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga bo‘lish. Doskaga sana, yangi mavzu yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan oldingi mavzular yuzasidan savollar so‘raladi. **“Guruhlarda ishlash” metodi** 1. **“**Dizayn” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? 2. Dizayn san’ati qachon paydo bo‘lgan va eng yirik dizayn maktablaridan qaysilarini bilasiz? 3. Dizayn san’ati turlariga misol keltiring. Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni  	O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi. Interyer arxitektura va dizayn sintezi bo‘lib, xona muhiti hamda undagi buyum va jihozlarning o‘zaro mutanosibligi dizayn loyihasi asosida rejalashtiriladi. Binoning arxitekturaviy yechimi, qaysi uslubda qurilgani interyer dizaynini belgilab beradi. Masalan, biror-bir arxitekturaviy uslubda qurilgan bino uchun o‘sha bino uslubiga mos interyer yaratish, jihozlash talab etiladi. Buni biz *hay-tek* va *klassik* uslubda qurilgan bino va uning interyerlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Interyer qanday maqsadda yaratilgani, vazifasi, unda joylashgan jihoz va buyumlar asosida xona dizayni ishlanadi. Shuning uchun ofis va jamoat tashkilotlari, teatr va kinoteatrlar, vokzal va shifoxonalar, ta’lim muassasalari, turarjoylar interyeri bir-biridan farq qiladi. Mavzu tushuntirilgandan so‘ng, guruhlar stollari ustiga qo‘yilgan A3 o‘lchamli qog‘ozga “Moodboard” metodi asosida tasvir ishlaydilar. **“Moodboard” metodi** “Moodboard” inglizcha so‘z bo‘lib, “kayfiyat doskasi” degan ma’noni bildiradi. “Moodboard” metodi kollaj texnikasining bir qismi hisoblanadi. U jamoa bo‘lib bajariladi. Bu metod biror-bir mavzuni ishlab chiqish bosqichida oldindan ko‘rish sifatida yuzaga kelgan. Barcha elementlar bir maydonda kollaj shaklida joylashtiriladi. Moodboard o‘quvchiga uslub va yo‘nalish bo‘yicha qaror qabul qilish, to‘g‘ri tanlash va ortiqcha narsalarni kesib tashlashga yordam beradi. Bir nechta vizual tasvirlarni birlashtirgan holda dizayner yangi loyiha yaratadi. Shunday qilib, dizaynda moodboard ham estetik, ham amaliy ahamiyatga ega. Rangli gazeta va jurnallardan kesib olingan tasvirlar avval joylashtirib chiqiladi, keyin yelimlab yopishtiriladi. Kollaj texnikasi asosida xona interyerining xomaki loyihasi tayyorlanadi.


Asosiy qism	  	  **“Taqdimot” metodi** asosida har bir guruh moodboard usulidagi kollaj kompozitsiyasining eskizi taqdimotini qiladi. Tasvir eskizidagi yutuq va kamchiliklar barcha guruhlar bilan ko‘rib chiqiladi va fikrlar bildiriladi.
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	Amaliy ish  	**“Ijodiy ish” metodi** Kollaj kompozitsiyasidagi ishlarini A3 o‘lchamli qog‘ozga bajaradilar. Eskizni tayyorlab olganlaridan so‘ng, jamoa bo‘lib bo‘yaydilar. Jamoa a’zolari bo‘yash uchun tasvirlarni bo‘lishib oladilar. Bu tasvir tez tayyor bo‘lishiga yordam beradi.   Darslikda berilgan bosqichli tasvirga qarab ishlashlari ham mumkin. O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazmali tarzda baholanadi va umumlashtiriladi. **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:** 1. Interyer deganda nimani tushunasiz? 2. Bino interyeri dizaynini yaratishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim? 3. Interyer uslubi deganda nimani tushunasiz?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash 	Ixtiyoriy xonaning “Moodboard” metodi asosidagi kollaj kompozitsiyasini tayyorlab kelish  
	Ish joylarini yig‘ishtirish	


18-mavzu

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Arxitekturada kompozitsiya. Interyer dizayni
	Dars maqsadi Ta'limiy	O'quvchilarga arxitektura san'ati haqida ma'lumot berish, uning turlarini tahlil qila olish. Kollaj uslubida inteyer dizaynini mustaqil bajara olish ko'nikmalarini shakllantirish
	Tarbiyaviy	Tasviriy san'atning yangi yo'nalishlarini badiiy idrok etish, estetik didni rivojlantirish va yangicha qarashlarini tarbiyalab borish
	Rivojlantiruvchi	O'quvchilarda tasviriy san'atning yangi yo'nalishlarida mustaqil kompozitsiya ishlay olish ko'nikmasini rivojlantirish. O'quvchilarni ijodiy izlanish orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrini aniq ifodalashga o'rgatish, kreativ izlanuvchanlik malakasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C** – o'quvchi arxitektura uslubida ishlangan tasvir eskizlarini tahlil qila oladi. **S** – o'quvchi arxitekturada interyer dizaynini ishlashda kompozitsiyani to'g'ri tanlay oladi. **M** – yordamchi chiziq bilan tasvirning xomaki eskizini ishlay oladi. **A** – tasvir eskizini ishlashda perspektiva elementlarini to'g'ri bajaradi. **R** – tasvir shaklini va rangini mavzuga mos ravishda to'g'ri tanlay oladi. **T** – o'quvchi interyer dizayni mavzusiga kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	"Tasavvur" metodi "Kim tez?" metodi "Noan'anaviy usul va texnikada ishlash" metodi "Ijodiy ish" metodi
	Darsga oid ko'rgazmalar	Mavzuga oid tasvirlar, slaydlar, o'quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O'qituvchi uchun:** darslik, metodik qo'llanma, ko'rgazmali materiallar, texnika vositalari. **O'quvchilar uchun:** rasm daftari, A3 o'lchamli qog'oz, rangli qog'ozlar to'plami, qalam, o'chirg'ich, yelim, qaychi, rangli qalamlar, qalamtarosh, akvarel, guash bo'yog'i, maxsus mo'yqalamlar, suv, palitra.
	Sinf doskasining bezagi	 *Interyer dizayni uslubidagi ishlardan namunalar* 
	Atamalar	Arxitektura, interyer, perspektiva
	DARSNING BORISHI	
		I. Tashkiliy qism. a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko'rish, ish joylarini tayyorlash; e) o'quvchilarning dars uchun zarur o'quv qurollarini tayyorlash.

Tashkiliy qism		Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi. **Dars bosqichlari** 1. Tashkiliy qism. 2. “Tasavvur” metodini qo‘llash. O‘tilgan darsni takrorlash. 3. Yangi mavzu bayoni. “Kim tez?” metodidan foydalanish. 4. Yangi darsni mustahkamlash. “Noan’anaviy usul va texnikada ishlash” metodini qo‘llash. “Ijodiy ish” metodidan foydalanamiz. O‘quvchlarni o‘zaro baholashdan ham foydalanish mumkin. 5. O‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish. 6. Uyga vazifa.
	O‘tilgan mavzu asosida savollar: 	1. Interyer deganda nimani tushunasiz? 2. Bino interyeri dizaynini yaratishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim? 3. Interyer uslubi deganda nimani tushunasiz? O‘quvchilarning uyda bajargan amaliy ishlari baholanadi. O‘tilgan mavzular bo‘yicha rasmlar tekshiriladi, xato va kamchiliklar to‘g‘rilanadi.
	Avvalgi darsni takrorlash va uy vazifasini so‘rash	O‘quvchilar diqqatini qaratish, tasviriy san’at va arxitektura san’ati turlari haqida so‘rash. **“Tasavvur” metodini** qo‘llash. O‘qituvchi rassomlar asarini tasavvuri asosida tasvirlaydi va qolgan o‘quvchilar bu asar kimga tegishli ekani yoki asar nomini aytadilar. To‘g‘ri javob berganlar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirib boriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni  	Badiiy loyihalash deganda ramziy belgilar, qadoqlash qutilari, yodgorlik buyumlari, turli kostyumlar, reklamalar, mebel, yoritish asboblari, bolalar o‘yini kompleksi, interyer va eksteryerning badiiy eskiz va maketlarini bajarish nazarda tutiladi. **Interyer** – me’morlikda bino va inshoot (turarjoy, jamoat va sanoat)larning badiiy bezatilgan va jihozlangan ichkari qismi. Vazifasiga ko‘ra interyerning me’moriy yechimi (ko‘rinishi, hajmi, shakli, bezaklari va h.k)ga jihozlar xususiyati (mebel jihozlari va boshqalar)ga, binoning qanday maqsadga mo‘ljallanganiga, o‘zaro mos yaratilishiga bog‘liq. Yurtimizdagi Sitorai Mohi Xosa, Navoiy teatri, Istiqlol san’at saroyi, Oliy majlis binosini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. **Interyer** tasviriy san’atda mustaqil janr sifatida mavjuddir. Tarixiy, maishiy va zamonaviy mavzudagi badiiy asarlarda interyer fon tariqasida ham ishlatilishi mumkin. Interyer orqali xonadon sohibining didi haqida yoki zavod sexining jihozlanishiga qarab ilmiy taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
		Tasvirni bajarish bosqichlari: 1. Qog‘oz yuzasiga ufq chizig‘i chiziladi. 2. Ufq chizig‘ining o‘rtasiga nuqta belgilab olinadi. 3. Tasvirning oldingi devorlari chiziq bilan tasvirlanadi.

Yakuniy qism





4. Devor chizig‘ining uchlari ufq chizig‘idagi nuqta bilan birlashtiriladi.

5. Orqa devorni chizib, uyning chuqurlik hajmi hosil qilinadi.


6. Deraza va eshiklari chiziladi.

7. Uy jihozlari joylashtiriladi.

Mavzuning amaliy mashg‘uloti sifatida xona interyeri dizaynini yaratishda qog‘oz markaziga to‘g‘ri to‘rtburchak chizib olinadi. Shakl ichidan bir nuqtani belgilab, to‘g‘ri to‘rtburchakning barcha burchaklarini belgilangan nuqta bilan tutashtiruvchi chiziq o‘tkazilgach, ular xona interyeri devorlari perspektivasini hosil qiladi. Keyingi bosqichda markazdagi nuqtadan xona devorlari tomon yordamchi chiziqlarni o‘tkazib, ularga vertikal ravishda xona jihozlari balandligi belgilab olinadi.

Diagonal chiziqlar yordamida predmetlarning perspektiv qisqarishi tasvirlanadi.

Barcha jihozlarni joylashtirib bo‘lgach, detallar bo‘yaladi.





Chizib bo‘lingan tasvirni ranglashga o‘tamiz.

Xonani bo‘yash ishlarida ikki xil texnikadan foydalanish mumkin: “Nam qog‘oz” texnikasi va “Sachratib ishlash” texnikasi.






Yakuniy qism	Amaliy mashg‘ulot Xona interyeri dizayni ikki usulda kompozitsiya qilinadi:  Klassik usulda  Hay-tek usulida **“Noan’anaviy usul va texnikada ishlash”** metodini qo‘llash  Mavzuni mustahkamlash	O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan ko‘rgazmalar bilan (dars turiga mos tasvirlarni doskaga ilib qo‘yish mumkin) yangi mavzu tushuntiriladi. **“Ijodiy ish” metodi**dan foydalanamiz. Darslikdan bosqichl tasvir ishlashni o‘rganamiz:    
O‘quvchilarni izohli baholash Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan baholab boriladi. Faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Ijodiy ish. O‘z xonangizni kompozitsion jihatdan qayta qurish va jihozlash bo‘yicha interyer dizayni eskizini ishlang.	
Ish joylarini yig‘ishtirish		

19-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Arxitekturada kompozitsiya. Eksteryer dizayni
	Dars maqsadi Ta'limiy	O‘quvchilarga arxitektura san'atining eksteryer turi haqida ma'lumot berish va ularda bu turda mustaqil kompozitsiya bajara olish ko‘nikmalarini shakllantirish
	Tarbiyaviy	Tasviriy san'atning yangi yo‘nalishlarini badiiy idrok etish, estetik didni rivojlantirish va yangicha qarashlarni tarbiyalab borish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda dizayn san'atining yangi yo‘nalishlarida mustaqil kompozitsiya ishlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi arxitektura uslubida ishlangan tasvir eskizini tahlil qila oladi. **S** – o‘quvchi arxitekturada eksteryer dizaynini ishlashda komponovkani to‘g‘ri tanlay oladi. **M** – tasvirning xomaki eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – tasvir eskizini ishlashda perspektiva elementlarini to‘g‘ri bajaradi. **R** – tasvir shakli va rangini mavzuga mos ravishda to‘g‘ri tanlay oladi. **T** – o‘quvchi eksteryer dizayni mavzusida kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Ranglar” metodi “Namoyish” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid tasvirlar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi 	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari, chizg‘ich, rangli qalamlar, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.    
	Sinf doskasining bezagi	 *Eksteryer dizayni uslubidagi ishlardan namunalar* 

	Atamalar	Eksteryer, gotika, barokko, rokoko, roman
	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash; f) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga bo‘lish. Doskaga sana, yangi mavzu yoziladi. Navbatchining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. **“Guruhlarda ishlash” metodi** 1. Interyer deganda nimani tushunasiz? 2. Bino interyeri dizaynini yaratishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim? 3. Interyer uslubi deganda nimani tushunasiz? Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni   	**“Ranglar” metodi** asosida yangi mavzu tushuntiriladi.  Berilgan vaqt (5–7 daqiqa) ichida doskaga osib qo‘yilgan to‘rt xil olma shaklidan birini chizib, bo‘yashi kerak. Chizilgan tasvirni berilgan ranglari bilan tahlil qilamiz, ranglarning bugungi mavzuga daxldorligi tushuntirilib, yangi mavzuga bog‘lanadi. O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi. Tasviriy san’atda *eksteryer* deganda me’moriy inshootlar va ularning tashqi ko‘rinishi tushuniladi. Eksteryer dizaynini yaratishning birinchi bosqichida chiziladigan bino nima uchun mo‘ljallanganini aniqlab olish lozim: turarjoy binosi, ko‘p qavatli savdo markazi, sport majmuasi va h.k. Arxitektura inshooti eksteryeri dizaynini yaratishda ushbu bino joylashgan muhit, u yerdagi boshqa arxitektura obyektlarini inobatga olish talab etiladi. Masalan, tarixiy shaharlar muhitida zamonaviy dizayn yechimidagi binoni loyihalash muhitning o‘ziga xosligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yoki aksincha, zamonaviy shaharlar muhitida o‘rta asrlarga oid dizayn yechimidagi arxitektura inshootlarini joylashtirish muhitning zamonaviyligiga birmuncha mos kelmaydi.

Asosiy qism





Zamonaviy shahar muhiti uchun moslashtirilgan hay-tek uslubidagi dizayn yechimiga ega masjidlar bunga misoldir.

Arxitektura san'ati qadimiy va zamonaviy turlarga bo'linadi: gotika, roman, barokko, rokoko. Bundan tashqari, arxitekturadagi badiiy uslub va yo'nalishlar biror-bir tarixiy davrga oid bo'ladi. Bu talablar mamlakat an'analari, tabiiy iqlim sharoiti, siyosiy-iqtisodiy sharoitlar asosida yuzaga keladi. Masalan, Qadimgi Yunon va Rim arxitekturasi badiiy an'analari elementlarini klassik uslubdagi zamonaviy arxitektura inshootlari eksteryerlarida uchratish mumkin.

"**Namoyish" metodi** asosida o'qituvchi tomonidan tayyorlangan bino eksteryerini chizish bosqichlari videorolik yoki slayd asosida tushuntiriladi.

Har bir guruh turli geometrik shakllar asosida bino eskizini rasm daftariga chizadilar. So'ng A3 o'lchamli yoki vatman qog'ozga yaxlit bino tasviri hosil qilinadi. Har bir guruh o'zining kompozitsiyasini taqdim qiladi. Tasvir eskizidagi yutuq va kamchiliklar barcha guruhlar bilan ko'rib chiqiladi va fikrlar bildiriladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash

Yakuniy qism

Amaliy ish









Amaliy mashg'ulot

"Ijodiy ish" metodi

Bino eksteryerini tasvirlash uchun dastlab osmon va yer tutashgan chiziq (gorizont chizig'i) chizib olinadi.



Yakuniy qism		 Keyingi bosqichda uyni qaysi holatda tasvirlashni belgilab olish lozim. Tasvirlanayotgan bino eksteryeri to‘g‘ridan yoki yarim yonbosh rakursda bo‘lishi mumkin. Yarim yonbosh shaklda tasvirlashda ikki tomonlama perspektiva qisqarishi nuqtalari belgilab olinadi. O‘quvchilar eskizni tayyorlab olganlaridan so‘ng, jamoa bo‘lib bo‘yaydilar. Jamoa a’zolari bo‘yash uchun tasvirlarni bo‘lishib oladilar. Bu tasvirning tez tayyor bo‘lishiga yordam beradi.
		
		Darslikdagi bosqichli tasvirga qarab ishlashlari ham mumkin. O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazmali tarzda baholanib, umumlashtiriladi. **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:** 1. Eksteryer deganda nimani tushunasiz? 2. Bino eksteryeri dizaynini yaratishda nimalarga ahamiyat qaratish kerak? 3. Bino eksteryeri dizaynining an’anaviy va zamonaviy usullari deganda nimani tushunasiz?
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Mustaqil ravishda bino eksteryeri kompozitsiyasiga oid eskiz variantlarini ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

20-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	Arxitektura muhitida graffiti kompozitsiyasi
	Dars maqsadi Ta'limiy	O‘quvchilarga graffiti haqida tushuncha berish. Rangtasvirda graffiti uslubida mustaqil kompozitsiya ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni estetik va badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning atrof-muhitga, jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan kuzatuvchanliklarini o‘stirish. Tasviriy san'atning yangicha yo‘nalishlariga o‘quvchilar qiziqishini oshirish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning zamonaviy usullar yordamida mustaqil tasvir ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish
	CSMART maqsadi 	**C** – o‘quvchi tasvir ishlashda yangi vositalarni ishlata oladi. **S –** o‘quvchi turli yuzalarga tasvirni to‘g‘ri komponovka qilib ishlay oladi. **M –** o‘quvchi tasvir eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A –** o‘quvchi tasvir ishlashda yorug‘-soya qoidalariga rioya qiladi. **R** – o‘quvchi tasvir shaklini va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir asosida kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Charxpalak” metodi “Applikatsiya” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari, molbert, markerlar, A3 o‘lchamli qog‘oz, guash bo‘yog‘i, mo‘yqalam, bo‘r. **O‘quvchilar uchun:** turli qattiqlikdagi va yumshoq grafit qalamlar to‘plami, mum qalamchalari, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.
	Sinf doskasining bezagi	 *Graffiti usulida ishlangan tasvirlardan foto namunalar* 
	Atamalar	3D tasvir, freska, madonnarilar

	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning amaliy mashg‘ulot uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisining davomat haqidagi ma’lumoti tinglanadi.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning oldingi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi darsni mustahkamlash	O‘quvchilardan o‘tilgan mavzular haqida so‘raladi. “3 soniya” yoki “Mening savolim” metodi qo‘llanadi. 1. Eksteryer deganda nimani tushunasiz? 2. Bino eksteryeri dizaynini yaratishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim? 3. Bino eksteryerining an’anaviy va zamonaviy usullari deganda nimani tushunasiz? Barcha javoblar umumlashtiriladi. Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Dars yangi mavzuga bog‘lanadi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni Taniqli kinofilmlarga ishlangan graffitilar	**Strit art** (inglizcha “street art” – *ko‘cha san’ati*) devoriy rasmlar, jamoat joylari va boshqa turli xil obyektlardagi tasvirlar, graffiti, ko‘cha installyatsiyalari, stikerlar, posterlar, shuningdek, murallarni o‘z ichiga oladi.     **Graffiti** (italyancha “graffiti” – *tirnalgan*) – devor yuzasiga bo‘yoqlar yordamida chizilgan, tirnalgan rasm yoki matndan iborat devoriy tasvir. Graffiti asosan shahar muhitida qo‘llanadigan san’at turi hisoblanadi. Birinchi graffiti san’ati namunalari antik davr me’moriy yodgorliklari va amaliy san’at buyumlarida topilgan. Ularda satirik xarakterdagi yozuvlar, karikatura tasvirlari ifodalangan. Qadimgi rimliklar graffitilarni devor yuzalari hamda haykaltaroshlik namunalariga ishlaganlar. Qadimgi graffitilar mohiyati jihatidan zamonaviy graffitilardan tubdan farq qilgan. Ularda asosan siyosiy ma’lumotlar, e’lonlar o‘rin olgan. Zamonaviy graffiti san’atining bir nechta turlari, uslublari va yo‘nalishlari mavjud. Ulardan asosiylari “Writing”, “Clean Advertising”, “Tagging” deb nomlanadi.   

Asosiy qism



“Clean Advertising” graffiti san’atining nisbatan yangi yo‘nalishi bo‘lib, u asosan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq. Graffitining bu turida biror-bir korxona mahsuloti tashviqotiga qaratilgan reklama kompozitsiyasi arxitektura inshootlari devorida tasvirlanadi.



“Tagging” – graffitining ushbu turida ko‘p hollarda kalligrafiya va turli yozuv uslublaridan foydalangan holda matnli kompozitsiya yaratiladi.



Writing graffiti san’atining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda graffiti yaratish texnikasi, uslubi cheklanmagan. Rassom o‘ziga ma’qul bo‘lgan uslubda ishlashi, turli materiallardan foydalanishi mumkin. Masalan, aerozolli bo‘yoqlar, devoriy markerlar, tayyor trafaretlar, mo‘yqalam va h.k.



Abdurahmon *(Inkuzart). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdurayim Abduvahobov xotirasiga bag‘ishlangan mural*


3D graffiti – mazkur uslubda yaratilgan graffiti tasvirlari o‘ziga xos bajarish texnikasi tufayli hajmli ko‘rinadi. Shu kabi optik illyuziyaga ega kompozitsiyalar nafaqat devor, balki asfalt yuzalariga ham ishlanadi. Ko‘cha san’atida graffiti asarlari bilan bir qatorda murallarni ham uchratish mumkin. Graffiti va muralning farqli jihati, mural (lotincha “murus”, – “devor”) juda katta hajmdagi bino devorlariga ishlanadi.

O‘zbekiston sportchilariga bag‘ishlangan graffitilar. “Rasmda kim tasvirlangan?” savoli bilan tasvirlardagi sportchilarni o‘quvchilar qanchalik bilishlarini tekshirib ko‘rish mumkin.











O‘zbekistonda ham zamonaviy “ko‘cha freskalari” paydo bo‘ldi, ular shahar muhitini loyihalashda yangi imkoniyatlar yaratdi. Bugun bu usulning turli ko‘rinishlarini ko‘chalar-da, bo‘sh devorlarda va boshqa shahar obyektlarida manzaralarning yorqin tasviri shaklida ko‘rishimiz mumkin.

	Amaliy ish 	Yangi mavzuda **“Ijodiy ish” metodi**dan foydalanamiz. Graffiti usulida devoriy kompozitsiyani sketch usulida ishlash bosqichlarini ko‘rib chiqamiz. Mazkur uslubda bajarilgan ish **sketch** deb ataladi va u oldindan, qog‘ozga ishlangan bo‘lishi ham mumkin. 
	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism		O‘quvchilar o‘ylagan kompozitsiyalari eskizini sketch usulida chizadilar.  O‘quvchilar bajargan ishlarini taqdim qiladilar. O‘quvchilar bajargan amaliy ishlar doskada ko‘rgazmali baholanib, umumlashtiriladi. Yangi mavzu mustahkamlanadi. 1. “Strit art” qanday san’at turi, uning qaysi turlarini bilasiz? 2. “Graffiti” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? 3. Graffiti va mural bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? Barcha javoblar umumlashtiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Mahallangizdagi estetik jihatdan qarovsiz bo‘lgan devor yuzasiga “Do‘stlik”, “Ona yurtim”, “Baxtli bolalik” mavzularida graffiti kompozitsiyasi yaratish
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

4-nazorat ishi

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	“Sport musobaqalari” mavzusida devoriy tasvir – graffiti uchun kompozitsiya ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga arxitektura san’ati haqida ma’lumot berish, uning turlarini tahlil qila olish. Kollaj uslubida interyer dizaynini mustaqil bajara olish bilimlarini shakllantirish
	Tarbiyaviy	Tasviriy san’atning yangi yo‘nalishlarini badiiy idrok etish, estetik didni rivojlantirish va yangicha qarashlarni tarbiyalab borish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarda tasviriy san’atning yangi yo‘nalishlarida mustaqil kompozitsiya ishlay olish ko‘nikmasini rivojlantirish. O‘quvchilarni ijodiy izlanish orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrini aniq ifodalashga o‘rgatish, kreativ izlanuvchalik malakasini rivojlantirish
	CSMART maqsadi: 	**C** – o‘quvchi tasvir ishlashda yangicha o‘quv vosita turlarini ishlata oladi. **S** – o‘quvchi turli yuzalarga tasvirni to‘g‘ri komponovka qilib ishlay oladi. **M** – o‘quvchi tasvir eskizini yordamchi chiziq bilan ishlay oladi. **A** – o‘quvchi tasvirni ishlashda yorug‘-soya qoidalariga rioya qiladi. **R** – o‘quvchi tasvir shakli va rangini to‘g‘ri ifodalay oladi. **T** – o‘quvchi tasvir asosida kompozitsiya tuza oladi.
	Dars turi	Aralash dars turi
	Dars metodi	“Qiziqarli sanalar” metodi “Tasavvur” metodi “Ijodiy ish” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid tasvirlar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari. **O‘quvchilar uchun:** rasm daftari, A3 o‘lchamli qog‘oz, rangli qog‘ozlar to‘plami, yelim va qaychi, qalam, o‘chirg‘ich, rangli qalamlar, qalamtarosh, akvarel, guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.
	Sinf doskasining bezagi	 *“Sport musobaqalari” mavzusida devoriy tasvir – graffiti usulidagi ishlardan fotonamunalar* 
	Atamalar	Strit art, graffito
	DARSNING BORISHI	
	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning dars uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash. Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi.

Tashkiliy qism	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi dars yuzasidan bajargan amaliy ishlari baholanadi.
	Avvalgi dars mavzusini mustahkamlash **“Qiziqarli sanalar” metodi** 	O‘quvchilarning diqqatini qaratish, tasviriy san’atning arxitektura yo‘nalishi haqida olingan bilimlarni takrorlash maqsadida **“Qiziqarli sanalar” metodi** qo‘llanadi. O‘qituvchi doskaga bir nechta sanalarni yozib qo‘yadi, bu sanalar o‘tilgan mavzular bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Ular tasviriy san’at turi, janri, turli uslub va yo‘nalishlari, asarlarning yaratilgan yillarini bildirishi mumkin. Bu metodda aniq bir mavzu asosidagi sanalardan ham foydalanish mumkin. Mavzu asosida muhim sanalar tanlanadi. Masalan, sport sohasidagi muhim sanalar asosida o‘quvchilarning diqqatini jamlash va yangi mavzuni tushuntirish uchun bu metoddan foydalanamiz. To‘g‘ri javob berganlar o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirib boriladi.
	Darsni maqsadli tashkil qilish	
Asosiy qism	Yangi mavzu bayoni **“Tasavvur” metodi** 	**“Tasavvur” metodidan foydalanish** Bu metodda o‘quvchi voqea-hodisani xayolan tasavvur qila olishi va xotirasiga muhrlashi talab etiladi. Eslab qolgan tasvirini qog‘ozga tushirishi kerak. Avvalgi darsda o‘tilgan graffiti usulidagi devoriy tasvir uchun sport musobaqalari tanlanib, o‘quvchi tasavvuridagi eskiz chiziladi. Buning uchun o‘quvchilar sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha musobaqalarni ko‘z oldilariga keltiradilar va qog‘ozga tushiradilar. Tasavvurlaridagi obrazlarni qog‘ozda chizadilar. Graffiti tasviri eskizlar asosida chiziladi. Shu sababli bugungi darsda nazorat ishi asosida “sport musobaqalari” mavzusida eskiz ishlanadi.  

	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism	Amaliy ish 	**Tasvirni chizish bosqichlari:** Tasvirni chizish bosqichlarida mavzuning chiziqli tasvirining to‘ldiruvchi elementlarini ham chizib olamiz (fon, atrofdagi qo‘shimcha tasvirlar).  Sinf doskasida o‘qituvchi tasvir ishlash bosqichlarini ko‘rsatib beradi. **“Ijodiy ish” metodi**dan foydalanamiz. O‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan tasvir chizish bosqichlari orqali graffiti kompozitsiyasining eskizini chizib olamiz. Rangshunoslik asosida tasvirning ranglari tanlanib, bo‘yaladi.   Tasvirni siluet usulida bajarish ham mumkin. O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan baholab boriladi.

	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi va rag‘batlantiriladi. “Sport musobaqalari” mavzusida devoriy tasvir – graffiti kompozitsiyasi uchun eskiz ishlash.
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

21-dars

Tashkiliy qism	Dars mavzusi	“Orzumdagi shahar” mavzusida me’moriy kompozitsiya ishlash
	Dars maqsadi Ta’limiy	O‘quvchilarga me’moriy kompozitsiya haqida tushuncha berish va ishni mustaqil bajara olish ko‘nikmalarini shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarda estetik didni tarbiyalash, zamonaviy me’moriy binolarni kuzatish va ularning ko‘rinishlarini to‘g‘ri talqin qila olishga o‘rgatish
	Rivojlantiruvchi	O‘quvchilarning mustaqil me’moriy kompozitsiya chizish yoki yasash ko‘nikmalarini rivojlantirish
	STEAM maqsadi	Mavzu **STEAM** dasturidan foydalanib tashkil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida turli metodlardan foydalaniladi. O‘quvchilar berilgan vazifani bir necha xil texnik yo‘nalish asosida tasvirlash va bo‘yashni o‘rganadilar.
	Dars turi	Aralash
	Dars metodi	“Guruhlarda ishlash” metodi “Xotira” metodi “Tasvirni aniqlang” metodi “Modellashtirish” metodi “Taqdimot” metodi
	Darsga oid ko‘rgazmalar	Mavzuga oid reproduksiyalar, slaydlar, qog‘ozli maketlardan namunalar
	Dars jihozi	**O‘qituvchi uchun:** doska, namunali ishlar, molbert, guash, chizg‘ich, mo‘yqalamlar to‘plami, A3 o‘lchamdagi qog‘oz, palitra, suv. **O‘quvchi uchu\n:** rasm daftari, turli qattiqlikdagi grafit qalamlar to‘plami, qalamtarosh, o‘chirg‘ich, akvarel yoki guash bo‘yog‘i, maxsus mo‘yqalam, suv, palitra, rangli qog‘oz va yelim.
	Sinf doskasining bezagi 	 *Zamonaviy binolar tasviri* 
	Atamalar	Abstrakt, maket, grafit qalam

	DARSNING BORISHI	
Tashkiliy qism	Tashkiliy qism	a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) doskaga mavzuni yozish, darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) sinf o‘quvchilarini kichik guruhlarga ajratish va guruhlarni nomlash.
	Uy vazifasini so‘rash va baholash	O‘quvchilarning avvalgi mavzu bo‘yicha amaliy ishlari baholanadi.
	“Tasvirni aniqlang” metodi Buning teng yarmini hayolan hosil qiladilar  	**S – science (tabiiy fanlar)** **“Guruhlarda ishlash” metodi** asosida o‘tilgan mavzu takrorlab olinadi. O‘tilgan darsni takrorlash uchun savol-javob o‘tkaziladi. 1. Strit art qanday san’at turi, uning qaysi turlarini bilasiz? 2. “Graffiti” so‘zi qanday ma’noni anglatadi? 3. Graffiti va mural bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? Guruhlarning javoblari tinglanadi. Avvalgi dars mustahkamlanadi va o‘quvchilarning uyda bajarib kelgan ishlari baholanadi. Guruhlarning diqqatini jamlash uchun turli metodlardan foydalanib dars o‘tiladi. **T – technology (texnologiya)** **“Tasvirni aniqlang” metodi** O‘zbekistondagi ko‘zga ko‘ringan zamonaviy yoki qadimiy binolarining yarmi, chorak ko‘rinishi taqdim etiladi. Bu rasmlarning qiziqarli tomoni – chala chizilgan bo‘lishi mumkin. Guruhlar bu tasvirlarda nima ifodalanganini aniqlaydilar. Tasvirlar binoning bir bo‘lagi ham bo‘lishi mumkin. Topshiriqni bajarish uchun ma’lum vaqt beriladi.
		Guruhlar javobi to‘liq tasvirlar bilan solishtirilib, javoblar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani aniqlanadi. Savollar yoki didaktik materiallar o‘tilgan darsni takrorlash va yangi mavzuga bog‘lab o‘tish asosida tuzilishi ham mumkin. Topshiriqlarni tez va to‘g‘ri bajarishiga qarab guruhlar baholab boriladi. O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi. Guruhlar umumiy baholanadi.
	Darsning maqsadli yoritilishi	
	Yangi mavzu bayoni **“Xotira” metodi** Bu metodda guruhlar bilan ishlanadi. Bunda o‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tasvir ko‘rsatiladi va ta’rif beriladi. Guruhlar doskadagi tasvirni diqqat bilan kuzatadilar.	**A – art (san’at)** **“Orzumdagi shahar” mavzusida me’moriy kompozitsiya ishlash** Inson hamisha nimalarnidir orzu qilib yashaydi. Bu orzular uni yangilikka intilishga undaydi. Bu istak, birinchi navbatda, yashash sharoitimizda o‘z aksini topadi. Shu tariqa har xil loyihalar yaratib, orzu-istaklarimizni tasvirlashga intilamiz. Bu intilishlar natijasida yurtimiz yangicha qiyofa kasb etib bormoqda. Bunda, albatta, yangi loyihalar ijodkorlari – me’morlar, dizaynerlar, rassomlar,


Asosiy qism

So‘ng tasvir berkitib qo‘yiladi. Guruhlarga shu tasvirning nusxalari tarqatiladi. Guruhlarga ma’lum vaqt beriladi. Vaqt tugagach, o‘quvchilar doskadagi tasvir haqida to‘g‘ri ma’lumot berishlari lozim. Metod yakunida nusxalar doskadagi tasvir bilan solishtiriladi. Tasvir mavzuga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, me’moriy san’at turlari – gotika, barokko, rokoko, modern uslublari asosida.






amaliy san’at ustalari va quruvchilar ijodiy mehnatining o‘z o‘rni bor. Milliy me’moriy an’analar asosida qurilgan binolarga Toshkent shahridagi machitlar, Islom sivilizatsiyasi markazi kabi inshootlarni kiritish mumkin.



Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda sharqona an’analar asosida qurilgan qadimiy me’moriy obidalarda gumbaz, minora, peshtoq, ravoq kabi qismlar bo‘lgan.

Qadimiy me’morchilikda eshik va derazalar, taxmonlar ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Bunday elementlardan zamonaviy me’morchilikda ham foydalanib kelinmoqda.





Me’morchilikning rivojlanishida milliy an’analardan tashqari dunyo arxitekturasida kuzatilayotgan yangiliklar ham muhim rol o‘ynaydi. Yaqin yillarda bunyod etilgan “Humo arena” *(88-rasm),* “Bunyodkor”, “O‘zbekiston” sport arenalari, Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ va milliy kutubxona, “International”, “Hyatt Reagency” kabi mehmonxonalar, O‘zbekiston Milliy banki, banklar assotsiatsiyasi *(87-rasm)* binolari zamonaviy shahrimiz ko‘rinishining o‘ziga xos me’moriy bezagidir. Shuningdek, viloyatlarda ham bir qator zamonaviy inshootlar bunyod etilmoqda.



Asosiy qism




O‘quvchining vazifasi tasvir haqidagi ma’lumotni eslab qolish. Barcha guruh javoblari eshitiladi.
Doskada har bir tasvirning tavsifi ko‘rsatiladi. Guruhlar baholanadi.



Guruhlarning diqqatini jamlash uchun dars turli metodlardan foydalanib olib boriladi.

Amaliy ish



E – engineering (muhandislik)
“Modellashtirish” metodi


“Orzumdagi shahar” mavzusida me’moriy kompozitsiya ishlashga kirishishdan avval shaharning umumiy ko‘rinishi, undagi binolarning tuzilishi, ayniqsa, perspektiv qisqarishlarni belgilab olish lozim. Perspektiv qisqarishda bino, yo‘l, daraxtlar, yo‘ldagi odamlar, avtomobillar uzoqlashgan sari kichrayib borishini yodda tutish lozim. Mavzu bo‘yicha kompozitsiya ishlashda quyidagilarga e’tibor qaratish muhim: binoning qanday maqsadda foydalanishga mo‘ljallangani, ko‘chada qanday ko‘rinishdagi inshootlar bo‘lishi, ko‘cha va uning atrofida qanday qo‘shimcha obyektlar mavjudligi va shu kabilar.



M – math (matematika)


Turli geometrik jismlardan kompozitsiya ishlash mumkin. Abstrakt usulda binolar chizish mumkin.











	Yangi mavzuni mustahkamlash	
Yakuniy qism		**“Taqdimot” metodi** Guruhlar o‘zlari tayyorlagan kompozitsion ko‘rinishni taqdimot qiladilar. Bu kompozitsiyani qayerlarda ishlatish mumkinligini guruh bilan kelishgan holda izohlaydilar. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beriladi. Mavzu asosida savol-javob qilinadi, faol guruh rag‘batlantiriladi.
	Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash	Zamonaviy binolar loyihasi eskizini ishlash
	Ish joylarini yig‘ishtirish	

22-dars

Dars mavzusi
Fotografiyada kompozitsiya

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga fotografiya san’ati haqida ma’lumot berish, turlarini tahlil qila olish. Fotografiyada mustaqil kompozitsiya bajara olish bilimlarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: tasviriy san’atning turli yo‘nalishlarini badiiy idrok etish, estetik didni rivojlantirish va yangicha qarashlarni tarbiyalab borish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarni ijodiy izlanish orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlash, fikrini aniq ifodalashga o‘rgatish, kreativ izlanuvchanlik malakasini rivojlantirish.

CSMART maqsadi:
C – o‘quvchi fotografiya kompozitsiyasida ishlangan tasvirlarni tahlil qila oladi.
S – o‘quvchi fotosurat olishda komponovkani to‘g‘ri tanlay oladi.
M – tasvirning xomaki eskizini to‘g‘ri ifodalay oladi.
A – tasvir eskizida fotografiya elementlarni to‘g‘ri bajaradi.
R – tasvir shakli va rangini mavzuga mos ravishda to‘g‘ri tanlay oladi.
T – o‘quvchi ixtiyoriy mavzuda fotografiyada kompozitsiya tuza oladi.

Dars turi
Aralash

Dars metodi:

“Namoyish”, “Kollaj”, “Ijodiy ish” metodlaridan foydalanish

Darsga oid ko‘rgazmalar
Mavzuga oid tasvirlar, slaydlar, o‘quvchilar ishlaridan namunalar

Dars jihozi

O‘qituvchi uchun: darslik, metodik qo‘llanma, ko‘rgazmali materiallar, texnika vositalari: kompyuter, smartfon, videoproyektor.

O‘quvchilar uchun: shablon tushirilgan A4 o‘lchamli qog‘oz, rangli qog‘ozlar to‘plami, yelim, qaychi, qalam, rangli qalamlar, qalamtarosh, akvarel bo‘yog‘i, chizg‘ich, maxsus mo‘yqalamlar, suv, palitra.



Sinf doskasining bezagi

Fotografiya kompozitsiyasida tasvirlangan ishlardan namunalar





Dars bosqichlari:

1. Tashkiliy qism. 2. Avvalgi darsni takrorlash. 3. Yangi mavzuning bayoni. **“Namoyish” metodi**dan foydalanish. 4. Yangi darsni mustahkamlash. **“Kollaj” metodini** qo‘llash. **“Ijodiy ish” metodi**dan foydalanish. O‘quvchlarni o‘zaro baholashdan ham foydalanish mumkin. 5.O‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish. 6. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism

a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) darsga hozirlik ko‘rish, ish joylarini tayyorlash; e) o‘quvchilarning dars uchun zarur o‘quv qurollarini tayyorlash.

Doskaga sana yoziladi. Sinf navbatchisi axboroti tinglanadi.

II. Avvalgi darsni takrorlash va uyga vazifani so‘rash

Oldingi dars asosida savollar:

1. Interyer va eksteryer deganda nimani tushunasiz?
2. Arxitektura san’ati turlarini ayting.
3. Kompozitsiya qaysi san’at turlarida ishlatiladi?

O‘quvchilarning uyda bajargan amaliy ishlari baholanadi (avvalgi mavzular bo‘yicha rasmlar tekshiriladi, xato va kamchiliklar to‘g‘rilanadi).

III. Yangi mavzu bayoni

“Namoyish” metodi asosida mavzu tushuntiriladi.

O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan slayd yoki videorolik o‘quvchilarga qo‘yib beriladi.







Optikada yorug‘lik rasmini ixtiro qilish uchun zarur shart-sharoitlar ko‘p asrlar oldin shakllangan bo‘lsa, kimyoda ular faqat XVIII asrda, kimyo fan sifatida yetarlicha rivojlanishga erishganida mumkin bo‘ldi. Yorug‘lik tasvirini kimyoviy aniqlash bo‘yicha turli mamlakat olimlari va ixtirochilari tomonidan bir qancha tajribalar o‘tkazilgan. Eng yaxshi natijaga hozirda dunyoga mashhur fransuz ixtirochisi Jozef Nisefor erishdi.

Lui-Jak Mande Dager (1787–1851) va ingliz fizigi Uilyam Foks Genri Talbot (1800–1877)lar ham fotografiya ixtirochilari sanaladi.




Fotografiya san’ati fotograf-rassomning ijodiy qarashlarini aks ettiruvchi, fotosurat yaratish texnologiyasiga asoslangan san’at turi hisoblanadi. Fotografiya san’atining bir nechta janrlari mavjud. Ular rasmga tushirilayotgan predmet yoki obyekt mohiyatidan kelib chiqqan holda manzara, portret yoki turli xil vaziyat, kundalik hayot sahnalari kabi janrlarga ajratiladi. Fotografiyaning barcha janrlarida tasviriy san’atning kompozitsiya qoidalariga, jumladan, tasvir yaratishning vizual vositalari tizimi sifatida kompozitsiya, perspektiva, tasvir tonalligi va yorug‘lik qoidalariga amal qilinadi.




Fotografiya san’atida ham kompozitsiya qurishning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olish talab etiladi. Masalan, suratga olishdan avval obyektlarni kompozitsion muvozanatini saqlagan holda kadrga to‘g‘ri joylashtirish (komponovka), vertikal, gorizontal, diagonal chiziqlarga asosan kadrni qurish fototasvirning ta’sirchanligini oshiradi.


Komponovka suratga olishning birinchi bosqichi bo‘lib, kadrda figuralarni bir-biriga, kadr markaziga nisbatan to‘g‘ri joylashtirishni anglatadi.

Fotokompozitsiya turli ko‘rinishda bajariladi.

Vertikal, gorizontal, diagonal va shunga o‘xshash turli ko‘rinishlarda:











Qiziqarli syujet tanlash

Tabiatning har qanday qiziqarli holati syujetga aylanishi mumkin. Masalan, hayvonot olamidagi munosabatlar, tabiat hodisalari, yomg‘ir, tuman, chaqmoq, bolalar ishtirokidagi qiziqarli sahnalar.

Yorug‘lik va tus, yo‘naltirilgan yorug‘lik – obyektga yoritkichlar orqali yorug‘lik, soyalar va ba’zi hollarda yarqirash effektini berish.





Tarqalgan yorug‘lik – obyektning barcha sirtlarini bir xilda va teng ravishda yoritadigan yorug‘lik. Uy sharoitida suratga olish uchun eng maqbul va oddiy yorug‘lik manbai derazadan tushadigan yorug‘likdir.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Tus – tasvirdagi ranglarning och-to‘qligi, to‘yinganligini anglatuvchi tushuncha. Tasvirning tonalligi undagi och-to‘q maydonlarning nisbati bilan baholanadi.






Perspektiva. Fotografiyada perspektivaning bir nechta turi qo‘llanadi. Ulardan eng asosiysi – **chiziqli perspektiva**. Perspektivaning mazkur turida obyektlar kuzatuvchidan uzoqlashgani sari ularning o‘lchami ham o‘zgarib boradi. Buni kadrdan uzoqlashib borayotgan yo‘l misolida ko‘rishingiz mumkin. Fotosuratning rangliligi tasvirning ko‘rinishiga, harakatga, pozaga, shuningdek, uning alohida elementlari dinamikasiga xos bo‘lgan ma’noni idrok etishni biroz sekinlashtiradi. Monoxrom (oq-qora) variantda esa yuz shakli, xususiyatlari aniqroq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu esa fotosuratda taqdim etilgan tasvirni ancha yaxshi “o‘qish” imkonini beradi.






Amaliy mashg‘ulot

“Kollaj” metodini qo‘llash

O‘quvchilar olib kelgan turli rasmlar to‘plami, oilaviy fotoalbomlardan foydalanamiz. Ular “Mening yaqin insonim” mavzusida fotokollaj yaratadilar. Buning uchun A3 yoki A4 o‘lchamli kollaj shablonlaridan foydalanib eskiz tayyorlaydilar. Shablonning eskizini o‘zlari chizg‘ich va rangli bo‘yoqlardan foydalanib tayyorlasalar ham bo‘ladi. Tayyorlab olingan shablonga yopishtirib kollaj kompozitsiyasini hosil qiladilar.




www.idum.uz saytidan yuklab olindi


Ramkaga solingan fotosuratlardan foydalanib ham kollaj kompozitsiyasini qurish mumkin.



O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan ko‘rgazmalar bilan (dars turiga mos tasvirlarni doskaga ilib qo‘yish mumkin) yangi mavzu tushuntiriladi.

IV. Darsni mustahkamlash

Kollaj asosida shablon tayyorlab olingandan so‘ng, **“Ijodiy ish” metodi**dan foydalanib chiroyli kompozitsiya yaratiladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fotografiya san’atining qanday janrlarini bilasiz?
2. Foto san’atining tasviriy vositalari nimalardan iborat?
3. Ifodali kadr olishning asosiy shartlari qanday?

Barcha javoblar umumlashtiriladi.

V. O‘quvchilarni izohli baholash. O‘quvchilar darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan baholab boriladi.

VI. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.
O‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish.

Uyga vazifa

Smartfon fotokamerasi yordamida “Mening do‘stim”, “Kundalik hayotimdan bir lavha”, “Mening mahallam” mavzularida fotoetyud suratga olish. Suratga olishda o‘rganilgan qonun-qoidalarni qo‘llash

Tasviriy san’at darslarida muzeylar haqida ma’lumot berish

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni o‘zbek rassomlari va haykaltaroshlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq. Bunda “San’at muzeylariga sayohat” metodi samarali natija beradi. Chunki bir vaqtning o‘zida o‘quvchilar ham san’at muzeyi bilan, ham rassomlar va ularning asarlari bilan tanishadilar. Natijada o‘quvchilarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi.

“San’at muzeyiga sayohat” darslarini onlayn va oflayn tarzda o‘tkazish mumkin.

Dunyo muzeylari

Muzey – (muzeyon) yunoncha so‘z bo‘lib, *afsonaviy san’at, fan ma’budalari va ilhom parilari uyi* ma’nosini anglatadi.

Muzeylarda asosan tasviriy va dekorativ amaliy san’at asarlari to‘planadi, saqlanadi, namoyish etiladi va ta’mirlanadi. Barcha mamlakatlarda xususiy davlat va muzeylari mavjud. Londondagi Britaniya muzeyi dunyoda birinchi bo‘lib davlat muzeyi huquqini olgan. Dastlabki muzeylar Yevropada tashkil etilgan.

Britaniya muzeyi

Britaniya muzeyi dunyoning eng yirik muzeylaridan biri bo‘lib, London shahrida joylashgan. Muzey binosi 1823–1847-yillarda me’mor R. Smerk tomonidan klassitsizm uslubida qurilgan.



Muzeyda ibtidoiy jamoa yodgorliklardan tortib hozirgi zamon rassomlarining asarlarigacha o‘rin olgan. Muzeyda qadimgi yevropalik san’atkorlarning asarlari saqlanadi. Qadimgi yunonistonlik Fidiy va uning shogirdlari yaratgan asarlar, qadimgi Misrda yaratilgan ishlar ham bor. Muzey xonalarida Angliya sayohatchilarining Afrika, Osiyo, Amerika, Okeaniyadan olib kelgan etnografik buyumlari ham namoyish etiladi. Shuningdek, bu muzeyda ajoyib rasm va miniatyuralar bilan bezatilgan, kamyob qo‘lyozma kitoblar ham saqlanadi.



Luvr muzeyi

Luvr muzeyi Fransiyaning Parij shahrida joylashgan. Bu bino o‘rta asrlarda qo‘rg‘on, keyinchalik saroy sifatida foydalanilgan. Yillar davomida qirollar o‘zgarib, Napoleon davrida bu bino madaniyat maskani – muzeyga aylantirilgan. 1793-yilda birinchi bor bu muzey omma uchun o‘z eshiklarini ochgan. Hozirgi kunga kelib Luvr Parijning eng mashhur diqqatga sazovor joylaridan biri. Luvr sayyohlarga, avvalambor, bir vaqtlar fransuz qirollarining maskani bo‘lib xizmat qilgan muhtasham me’moriy yodgorlik sifatida emas, balki butun dunyodan san’at ixlosmandlarini o‘ziga tortadigan dunyodagi eng mashhur muzey sifatida tanilgan. Muzeyda 400 000 dan ortiq eksponatlar mavjud bo‘lib, shundan 35 000 tasi namoyish etilgan. To‘plamlar sakkizta bo‘limga bo‘lingan – Sharq antikvarlari, Misr antikvarlari, Yunon, Etrusk va Rim, Islom san’ati, haykaltaroshlik, rangtasvir, san’at buyumlari va grafika san’ati. Denon qanoti muzeyning eng ko‘p tashrif buyuriladigan qismi bo‘lib, u yerda italyan rasmlari to‘plami, shu jumladan, “Mona Liza” saqlanadi.

Metropolitan san’at muzeyi

Metropolitan san’at muzeyi Nyu York san’at ixlosmandlari tomonidan 1870-yilda ochilgan va bugungi kunda u G‘arbiy yarimshardagi eng yirik san’at asarlari to‘plamiga ega.



Muzeyning hozirgi binosi Italiya Uyg‘onish davriga xos stilizatsiya qilingan. Metropolitan san’at muzeyining asosiy diqqatga sazovor jihati Misr san’ati zallari, amerikalik ustalarning rasmlari va haykallari, qurol-yarog‘ va zirhlar, zamonaviy san’at, yunon va rim san’ati, yevropalik rassomlarning rasmlaridir. Muzey eksponatlari kolleksionerlarning sovg‘alari bilan ham boyitilgan. Bankir Bend Altman muzeyga Rembrandt “Avtoportreti”, Dyurer, Velaskes, Bottichelli, Titian kabi rassomlarning durdona asarlarini taqdim etdi. Bu muzeydagi gollandiyalik Vermeerning “Uxlayotgan qiz” asari *dunyoning hozirgi zamondagi eng mashhur asari hisoblanadi.* 1929-yilda “Shakar magnati”ning bevasi Luiza Xameyre o‘z kolleksiyasini muzeyga vasiyat qildi. Sovg‘alar orasida El Grekoning “Kardinal portreti” kabi durdona asari, F. Goyaning “Balkonda Mahi”, Rembrandt tomonidan chizilgan gravyuralar, Mane, Mone, Degas, Sezanning asarlari bor edi. Muzeyda to‘plangan ulkan xazinalar katalogi uning dunyo muzeylari orasidagi obro‘-e’tiborini oshirdi.

Ispaniyaning Prado muzeyi

Prado muzeyi binosi Xuan de Villanueva tomonidan Charlz III uchun tabiiy tarix muzeyi sifatida qurilgan. Prado keyinchalik, 1819-yilda, Ferdinand VII hukmronligi davrida qirollik asarlari kolleksiyasiga ega bo‘lgan muzeylardan biriga aylandi.



Hozirgi kunga kelib Prado dunyodagi eng yirik muzeylardan biri ekaniga shubha yo‘q. Unda Velaskes, Goya, El Greko, Rafael, Titian, Bottichelli, Karavadjio, Veronese, Fra Anjeliko, Bosch, Rubens, Dyurer, Rembrandt va Brueghel kabi rassomlarning dunyoga mashhur 9000 dan ortiq san’at asarlari namoyish etib kelinadi . Bu yerda turli davrlarga (XII – XIX asrlar) mansub bo‘lgan, qirollik tomonidan qo‘lga kiritilgan, sotib olingan yoki sovg‘a qilingan, taniqli ispan, golland, italyan, fransuz, nemis rassomlarning asarlarini ko‘rish mumkin.

Ermitaj

Ermitaj Rossiyadagi jahon ahamiyatiga ega muzey majmuasi bo‘lib, uning birinchi binolari imperator Yelizaveta davrida tashkil etilgan. U ham dunyoning eng yirik muzeylaridan biri hisoblanadi. Muzey 1764-yilda tashkil topgan, lekin muzey sifatida 1852-yilda ochilgan. Ermitaj “birlashgan joy” ma’nosini bildiradi. Muzey kolleksiyasida 2 mln 700 mingdan ortiq asarlar mavjud.



U olti bo‘limdan tashkil topgan:

1. Ibtidoiy madaniyat tarixi. 2. Qadimgi dunyo. 3. Sharq madaniyati va san’ati tarixi. 4. Rus madaniyati tarixi. 5. G‘arbiy Yevropa san’ati tarixi. 6. Numizmatika (tanga, medallar) tarixi.

Muzeyda rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dekorativ-amaliy san’atga oid yuzlab eksponatlar bor. Unda Leonardo da Vinchi, Rafael, Titsian, Velaskes, Goyya, Rubens, Rembrandt, N. Pussen, O. Renuar, A. Matiss, P. Pikasso, Mikelanjelo, O. Roden kabi dunyoga mashhur rassom va haykaltaroshlarning bebaho asarlari saqlanadi.

Drezden galereyasi

Drezden galereyasi Germaniyaning Drezden shahrida joylashgan. Bu muzey binosi 1847–1854-yillarda me’mor Kxenel tomonidan maxsus bunyod etilgan.



Lekin galereya 1860-yilda ochilgan. Uning dastlabki eksponatlari Rafael Santining “Sikstin Madonnasi” (250 yildan beri insonlarni quvontiradi), Jordjonening “Uyqudagi Venera” asarlari edi. Shuningdek, muzeyda Rembrandt, A. Dyurer, Titsian kabi ijodkorlarning ko‘plab asarlari bor. Keyinchalik muzey Yevropa rassomlari va haykaltaroshlarining asarlari bilan boyitib borildi.

Hozirgi kunga kelib galereya o‘z qadimiy ko‘rinishini saqlab qolgan eng go‘zal maskanlardan biri hisoblanadi.

Tretyakov galereyasi

Tretyakov galereyasiga moskvalik rus savdogari P. M. Tretyakov asos solgan. U o‘zi va ukasi S. M. Tretyakov to‘plagan san’at asarlari hisobiga 1893-yilda mazkur muzeyni tashkil etgan.



P. Tretyakov o‘zi yashayotgan uyi yoniga muzey uchun maxsus bino qurdirgan. Muzeyning ochilishi arafasida Tretyakov tomonidan yig‘ilgan san’at asarlari ikki ming-ga yaqin bo‘lgan. Muzeyda qadimgi rus rangtasviriga alohida o‘rin ajratilgan.

A. Rublev, I. Nikitin, F. Rokotov, D. Leviskiy, O. Kiprenskiy, V. Tropinin, A. Ivanov, K. Bryullov, A. Venesianov, I. Kramskoy, V. Vasnesov, V. Vereshchagin, V. Surikov, I. Repin, I. Shishkin, I. Levitan, A. Savrasov va boshqa taniqli rassomlarning asarlari galereyaning bebaho durdonalaridan hisoblanadi.

Tretyakov galereyasida 1932-yildan boshlab yaqin xorijiy mamlakatlar san’ati na-munalari ham namoyish etila boshlagan. U yerda o‘zbekistonlik rassomlarning asarlari ham bor.

O‘zbekiston davlat tasviriy san’at muzeyi

O‘zbekiston davlat tasviriy san’at muzeyi 1918-yilda Toshkentda tashkil topgan. Muzey asosan knyaz N. Romanov saroyidagi kolleksiyada saqlangan 100 ga yaqin asarlar asosida vujudga kelgan. Ayrim eksponatlar o‘lkashunoslik muzeyining badiiy bo‘limidan, keyinchalik Moskva va Rossiyaning boshqa shaharlar muzeylari fondidan keltirilgan.



Keltirilgan asarlar orasida K. Bryullov, V. Tropinin, I. Repin, V. Serov, I. Levitan asarlari ham bor edi.

Shuningdek, ular orasida Tretyakov galereyasidan, Rus muzeyidan va shax-siy kolleksiyalardan olib kelingan asarlar ham mavjud. Muzey fondining katta qismi O‘zbekistonda yashab ijod etgan rassomlar P. Benkov, O. Tatevosyan, V. Ufimsev, N. Kashina, Z. Kovalevskaya, U. Tansiqboyev, A. Abdullayev, Ch. Ahmarov kabi

rassomlarning ishlari bilan boyitildi. Muzeyda Italiya, Ispaniya, Germaniya, Finlandiya, Gollandiya, Fransiya, Angliya va Sharq mamlakatlari san'atiga oid asarlar ham bor. Muzey o'zbek amaliy san'atining barcha turlariga oid boy kolleksiyalarga ham ega. Hozirgi kunda muzeyda 40 mingdan ortiq asarlar saqlanmoqda. Unda ta'mirlash ustaxonasi, fotolaboratoriya, ko'rgazma tashkil etish bo'limlari ishlab turibdi.

I. V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi

Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi 1966-yilda rassom Igor Vitalyevich Savitskiy (1915–1984) tashabbusi bilan tashkil etilgan. Hozir u Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik san'at kolleksiyasi bo'lib, unda to'rt ming yillikdan ortiq xronologik qamrovli 100 mingga yaqin buyum mavjud.

Muzeyda xalq amaliy san'ati, Xorazm san'ati, XX asr o'zbek, rus, qoraqalpoq rangtasvir va haykaltaroshligi asarlari namunalari hamda turli eksponatlar mavjud. Muzeyda kutubxona va ta'mirlash ustaxonasi ish olib boradi. Tasviriy san'at bo'limining kolleksiyasi muzeyning shakllanishi tarixidagi alohida sahifa bo'lib, u butun dunyo bo'ylab mashhurlikka erishdi. Bu yerda nafaqat muzey ta'sirida shakllangan milliy rassomlik maktabi, balki O'zbekiston rassomlarining XX asr boshlaridagi asarlari, mahalliy milliy tasviriy san'at maktabining tug'ilishi va shakllangan davri kabilar ham namoyish etiladi. Bu san'at asarlari – "Turkiston avangardi" deb atalgan. Bu rus sharqshunoslarining ajoyib guruhi hisoblanib, Nukusda to'liq namoyon bo'lib, tomoshabinning doimiy qiziqishini uyg'otadi. A. Volkov, U. Tansiqboyev, Usta Mo'min, N. Qoraxon, M. Kurzin kabi ijodkorlarning nomlari vafotidan so'ng e'tirofga sazovor bo'lib, jahon san'ati tarixiga muhrlangan.



Qoraqalpog'iston tasviriy san'atini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan rassomlardan I. Saviskiy, K. Soigyuv, D. Turanniyozov, J. Kuttimurodov, J. Izentayevlarning asarlari muzeyning yuqori peshtaxtalaridan o'rin olgan. Mazkur dargoh O'zbekiston va jahonning mashhur muzeylarida o'tkazilayotgan ko'rgazmalarda doimiy ravishda qatnashib keladi.

O'zbekiston Davlat amaliy san'at muzeyi

1927-yilda Toshkentda o'zbek ustalarining eng yaxshi asarlaridan namunalar ko'rgazmasi tashkil etildi. Keyinchalik u doimiy ko'rgazmaga aylandi va "O'zbekiston xalq xo'jaligi ko'rgazmasi" deb nomlandi. Har yili eksponatlar to'planib, o'tgan darslar mahsulotlari: qo'lda tikilgan kashtalar, do'ppilar, zargarlik buyumlari, gilamlar va xalq

amaliy san’atining boshqa namunalari sotib olindi. Ana shu xalq amaliy san’ati asarlari 1937-yil 7-iyulda Toshkentda ochilgan “Hunarmandchilik muzeyi”da namoyish etila boshlandi. 1960-yilda “O‘zbekiston amaliy san’atining doimiy ko‘rgazmasi” nomini oldi. 1997-yilda muzey O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufiga o‘tib, **Davlat amaliy san’at muzeyi** maqomini oldi.





Ayni paytda muzey xazinalarida XIX asrning birinchi yarmidan to hozirgi kungacha mohir ustalar yaratgan amaliy san’at durdonalari saqlanmoqda. Bu yerda o‘zbek xalqining betakror amaliy san’at namunalari bilan butun dunyoga mashhur xalq amaliy san’ati ustalarining yog‘och va ganch o‘ymakorligi, metall quyish, zargarlik, kulolchilik, gilamdo‘zlik, to‘quvchilik, zardo‘zlik, kashtachilik va amaliy san’at namunalarining asl nusxalarini ko‘rishimiz mumkin.

TASVIRIY SAN’AT ATAMALARINING IZOHLI LUG‘ATI

Akvarel lotin tilidan olingan bo‘lib, “suv” ma’nosini anglatadi. U – suvda yaxshi eriydigan, yuviladigan mayin va shaffof bo‘yoq. Akvareldagi tasvir nihoyatda rangli, nafis va nozik bo‘lib, ular ko‘pincha qog‘oz ustiga ishlanadi.

Asimmetriya yunon tilidan olingan bo‘lib, “simmetrik emas” degan ma’noni anglatadi. Tasviriy san’at asaridagi detallar, suratning chap va o‘ng yoki yuqori va pastki tomonlaridagi tenglik, o‘xshashlik alomatlarining yo‘qligi asimmetriya hisoblanadi. Asimmetriya turli buyumlar shaklida ham kuzatiladi.

Axromatik ranglar yunon tilidan olingan bo‘lib, “rangsiz” degan ma’noni bildiradi. Oq, qora va ularning aralashmasidan hosil bo‘lgan kulrangning turli tuslari hisoblanadi.

Barelyef fransuzcha so‘z bo‘lib, “past relyef” ma’nosini anglatadi. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan relyef atamasining bir turi. Relyefning bu turida tasvir tekislik yuzasidan uning haqiqiy o‘lchovining yarmidan kam nisbatda bo‘rtib chiqqan bo‘ladi (masalan, tanga, medal).

Badiiy akademiya nomi asosan rassom, haykaltarosh, me’morlar tayyorlanadigan oliy o‘quv yurtlariga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, nafaqat san’at, balki ularda rahbarlik qiladigan, tashkiliy ishlarni olib boradigan davlat muassasalari ham shu nom bilan yuritiladi. Masalan, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi.

Blik – narsa va tasvirlarning eng yorug‘ yaltiroq joyi.

Bosh bezak – kitoblarning ichki bezagi, kitob varag‘ining eng tepa qismida berilgan tasvir. Ular rasmli yoki naqshli bo‘lishi mumkin.

Byust fransuzcha, “qabr ustiga qo‘yiladigan haykal” ma’nosini anglatadi. Byust odamning ko‘kragidan yuqori qismi tasvirlanadigan haykal hisoblanadi.

Janr – hayot lavhalarini, ko‘rinishlarini uning mazmuniga ko‘ra tasvirlovchi badiiy asar turidir. Masalan, manzara, natyurmort, turmush, portret, animalistik, morinistik janrlar tasviriy san’at janrlari hisoblanadi.

Iliq ranglar – quyosh, olov taftini eslatuvchi, kishilarda iliqlik (issiqlik) hislarini uyg‘otuvchi ranglar. Ular qizil, sariq, zarg‘aldoq, malla, novvotrang, qirmizi, pushti, shingob, sabza, sadaf, lolaro‘y, gulgun, norangvash, somoniy, bargikaram kabi ranglardir.

Kompozitsiya badiiy asarda qo‘llanadigan atama bo‘lib, “tuzish-qurish” ma’nosini anglatadi. Badiiy obrazlar va vositalarning asarda o‘z o‘rnida shakl, rang, mazmun jihatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi va u badiiy obrazlarning ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi.

Manzara – tasviriy san’at janrlaridan biri. Unda tabiat, shuningdek, shahar ko‘rinishlari tasvirlanadi.

Mozaika rangtasvir turi bo‘lib, qattiq materiallar hisoblangan koshin, rangli shisha, marmar, tosh, yog‘och, metall parchalarini tekis yuzaga maxsus qorishmalar yordamida yopishtirib yaratiladigan tasvirlash texnikasi. Bunday asarlar ko‘pincha devorga, shiftga, uy poliga ishlanadi.

Natura – tasvirlash uchun mo‘ljallangan odam, hayvon, manzara, predmet va shu kabilar.

Natyurmort tasviriy san’at janrlaridan biri bo‘lib, fransuzchadan olingan, “jonsiz tabiat” degan ma’noni anglatadi. Mazkur janrda gullar, meva va sabzavotlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, san’at va sport atributlari aks ettiriladi.

Palitra fransuzcha, “yupqa plastika” degan ma’noni anglatadi. Ular yog‘ochdan ishlanadi. Palitralar metall, plastmassa, chinni kabi materiallardan ham ishlanishi mumkin. Palitralar bo‘yoqlarni aralashtirish uchun tayyorlangan bo‘lib, u rangtasvirchi rassomning ish quroli hisoblanadi.

Panno lotin tilidan olingan bo‘lib, “mato parchasi” ma’nosini anglatadi. Pannolar ko‘pincha moybo‘yoq bilan mato ustiga ishlanadi. Ular maxsus joyga o‘rnatish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rangtasvir, relyefli va naqshli hoshiya bilan chegaralangan bo‘ladi.

Perspektiva lotin tilidan olingan bo‘lib, “ravshan ko‘raman” degan ma’noni anglatadi. Borliqdagi barcha narsalar ma’lum masofadan turib kuztilganda, kuzatuvchiga o‘lchovlari, hajmi, rangi o‘zgargandek bo‘lib tuyuladi. Bu hodisa *perspektiva* deyiladi. Tasviriy san’atning nazariy asoslaridan hisoblangan perspektiva maxsus fan darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, uning chiziqli, havo(rang) va relfyef (hajm perspektivasi) turlari bor.

Plakat fransuz tilidan olingan bo‘lib, “e’lon” ma’nosini anglatadi. U tasviriy san’atning grafika turiga kiradi. Plakatlar kishilar hayotidagi muhim muammolar yechimiga qaratiladi, ular tashviqot va targ‘ibot vositasi hisoblanadi.

Plener fransuz tilidan olingan bo‘lib, “ochiq joy”, “keng ko‘rinish” ma’nosini anglatadi. Ko‘pincha rassomlar o‘z asarlari uchun etyud, qoralama, ranglamalarni plenerda bajaradilar. Ochiq havoda etyud, qoralama, ranglamalar ishlashdan maqsad kunduzgi tabiat va boshqa obyektlarning ranglarini aniq tasavvur etishdan iborat.

Portret fransuz tilidan olingan bo‘lib, “inson tasviri” ma’nosini anglatadi. U tasviriy san’at janri hisoblanadi. Portretda bir yoki bir nechta shaxs tasviri ishlanishi mumkin. Ular insonlarning boshi yoki beligacha bo‘lgan bo‘y-basti ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin.

Rassom – rangtasvir va grafika turida ijod qiluvchi mutaxassis.

Rang (havo) perspektivasi – real borliqdagi narsa va hodisalar kishi ko‘zidan uzoqlashgan sari ranglarida ro‘y beradigan o‘zgarishdir. Bunda ularning ranglari havo, chang, tuman ta’sirida o‘z kuchini yo‘qotadi.

Relyef – lotin tilidan olingan bo‘lib, “qabariq”, “bo‘rtma” ma’nosini anglatadi. Haykaltaroshlikda tasvir tekislik yuzasidan qisman bo‘rtib chiqqan bo‘ladi. Uning barelyef va gorelyef turlari bor.

Refleks – yonma-yon turgan narsalar va ularning tasviridagi rang yoki tus jihatdan bir-biriga ko‘rsatadigan aks ta’sirlari.

Ritm yunon tilidan olingan bo‘lib, “oqaman” degan ma’noni anglatadi. Tasviriy san’atda asarning ifodaviylik vositalaridan biri hisoblanib, u tomoshabinga estetik ta’sirni kuchaytirishga yordam beradi. Suratdagi detallar, ularning shakllari, ranglari, o‘lchovlarining qaytarilib yoki almashinib kelishi ritmni hosil qiladi.

Simmetriya yunon tilidan olingan bo‘lib, “o‘lchovdosh” degan ma’noni bildiradi. Tasviriy san’atda suratdagi detal yoki narsaning o‘rtasidan vertikal o‘q chiziq o‘tkazilganda uning chap va o‘ng tomonlarining bir-biriga tengligi kuzatilsa, u simmetrik shakl hisoblanadi. Suratning chap va o‘ng yoki yuqori va pastki qismlaridagi o‘zaro tenglik yoki o‘xshashlik ham simmetriyani bildiradi. Masalan, kapalak simmetrik shaklga ega. Simmetriyaning o‘qli va markaziy turlari bo‘ladi. O‘qli simmetriyada simmetriya o‘qi bitta bo‘lsa, markaziy simmetriyada u bir nechta bo‘lishi mumkin.

Sovuq ranglar – qor, muz taftini eslatuvchi, yashil, zangori, binafsha, ko‘k, moviy kabi ranglar.

Soya – narsalarning yorug‘lik tushmaydigan qismida hosil bo‘lgan ko‘rinishi. Soyaning ikki turi bor: shaxsiy soya va tushuvchi soya.

Tasviriy sanat – borliqda mavjud va mavjud bo‘lmagan mavjudot, narsa va hodisalarni tasvirlovchi san’at turi.

Fon lotin tilidan olingan bo‘lib, *tubi, asosi, zamini* ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atda fon rasmning orqasidagi tasvirli yoki tekis bo‘yalgan qismidir.

Xromatik ranglar yunon tilidan olingan bo‘lib, *rang, bo‘yoq* ma’nosini anglatadi. Ular qatoriga oq, qora, kulrangdan tashqari barcha ranglar kiradi.

Shtrixlash – qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qo‘llanadigan uslub.

Eskiz fransuz tilidan olingan bo‘lib, *xomaki tasvir* ma’nosini anglatadi. Rangtasvirda u bo‘lg‘usi asarning kichik o‘lchovdagi xomaki namunasi. Unda surat kompozitsiyasi, mazmuni, ranglari, asosiy detallari tasvirlanadi.

Yarim soya – turli-tuman mavjudot va narsalar tanasidagi, shuningdek, ularning tasviridagi yorug‘ va soyalar o‘rtasidagi qismi.

Haykal haykaltaroshlik mahsuli bo‘lib, loy, tosh, yog‘och, temir, mum kabi materiallardan hajmli qilib ishlanadi. Uning dumaloq va relyefli turlari bor.

Haykaltaroshlik – tasviriy san’atning bir turi. Bunda odam, hayvon va qushlarning hajmli tasviri turli materiallar yordamida ishlanadi. Haykaltaroshlikda ko‘pincha tosh, yog‘och, loy, gips, metall kabi materiallardan foydalaniladi. Uning mayda plastika, dastgohli haykaltaroshlik, mahobatli haykaltaroshlik, istirohat bog‘i haykaltaroshligi, dekorativ haykaltaroshlik kabi turlari bor.



Tasviriy san’at fanining baholash mezoni

Tasviriy san’at o‘quv fani o‘quvchilarda badiiy estetik madaniyat, ijodkorlik fantaziya-tafakkuri va kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda alohida ahamiyatga egadir. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda baholashning yangi tizimi joriy etilib, bu orqali o‘quvchilarning bilimi va amaliy ko‘nikmalari munosib baholanishi ko‘zda tutilgan.

7-sinf uchun baholash vositalari





www.idum.uz saytidan yuklab olindi

7-sinf. Baholash mezoni



Ko‘nikmalar	O‘quv maqsadlari
Komponovka	7.1.1. Tasvirni qog‘oz yoki tekislik yuzasiga to‘g‘ri joylashtira oladi.
Proporsiya	7.2.1. Tasvirni ishlashda nisbatni to‘g‘ri belgilaydi.
Estetika	7.3.1. Tasvirni ishlash jarayonida mavzuga tegishli barcha qoidalarni to‘g‘ri qo‘llaydi.
Tasvirni ishlash	7.4.1. Tasvir ishlash jarayonini to‘g‘ri boshlay oladi.
	7.4.2. Tasvir ishlash ketma-ketligini biladi.
	7.4.3. Tasvirni to‘liq ishlay oladi.

Baholash shkalasi. 5 ballik baholash shkalasi saqlab qolinadi. Har bir shkalaga mos baholash mezonlari sinovdan o‘tkaziladi.

Belgilangan vazifa	To‘g‘ri bajarilgan vazifalar soni	Noto‘g‘ri bajarilgan vazifalar soni	Baholash
5	5	-	5
5	4	1	4
5	3	2	3
5	2	3	2
5	1	4	1

7-sinf tasviriy san’at fanidan mavzular bo‘yicha baholash mezonlari

Sana			
Mavzu			
O‘quvchi-ning F.I.O			Jami top‘langan ball
1-vazifa	Qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish	1	
2-vazifa	Chizish ketma-ketligini to‘g‘ri bajarish	1	
3-vazifa	Topshiriqni bajarish jarayonida ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish	1	
4-vazifa	Topshiriqlarni mustaqil chiza olish	1	
5-vazifa	Yakunlangan ishni namoyish etish va tahlil qilish	1	

O‘quv nashri

TASVIRIY SAN’AT
7

O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

(Ta’lim o‘zbek va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun)

Muharrir *Xurshidbek Ibrohimov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Orifjon Madvaliyev*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 18.01.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i __. Nashriyot-hisob tabog‘i __.
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.